

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ORIENTAL UNIVERSITETI

MA'RUFJON DUSTMURODOV

**DUNYO TILLARI: TURKIY TILNING
DUNYO TILLARI TIZIMIDA
TUTGAN O'RNI
(TARIXIY-QIYOSIY ASPEKTD)**

Uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2025

UOK 81'276.6:355.11:342.725

KBK

D

Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li

Dunyo tillari: turkiy tilning dunyo tillari tizimida tutgan o'rni (tarixiy-qiyosiy aspektida). Uslubiy qo'llanma. – T.: “Dimal” nashriyoti, 2025-y. – 98 b.

Mas'ul muharrir:

Gavhar Rahmatova,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

Baxtiyor Daniyarov,

filologiya fanlari doktori, professor

Rixsitilla Alimuxamedov,

filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Ushbu uslubiy qo'llanma Oriental Universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2025-yil ___-noyabrdagi ___-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-0000-00-3

© M.M. Dustmurodov, 2025

© “Dimal” nashriyoti, 2025

KIRISH

Ushbu uslubiy qo'llanma "Dunyo tillari: turkiy tilning dunyo tillari tizimida tutgan o'rni (tarixiy-qiyosiy aspektida)" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda turkiy tillarning jahon tilshunosligi tizimidagi o'rni, o'ziga xos tarixiy shakllanish jarayoni, lingvistik xususiyatlari hamda boshqa til oilalari bilan aloqadorligi chuqur ilmiy tahlil etiladi. Asarda turkiy tillar genezisining nazariy asoslari, ularning shakllanish bosqichlari, davrlashtirilishi va tipologik belgilari haqida ilmiy manbalar hamda tarixiy-lingvistik tadqiqotlar asosida izchil ma'lumot berilgan.

Qo'llanmada avvalo dunyo tillarining umumiy tasnifi (genealogik, tipologik va areal mezonlar bo'yicha) yoritilib, til oilalari o'rtasidagi farqlar va o'zaro aloqalar misollar orqali ko'rsatib beriladi. Shu asosda turkiy tillar oilasining jahon tillari orasida tutgan o'rni, uning shakllanish manbalari va tarqalish geografiyasi har tomonlama yoritilgan. Turkiy tillarning qadimgi davrlardagi rivoji, Orxon-Enasoy bitiklaridan boshlangan yozma an'anasi, uyg'ur va eski turkiy yozma yodgorliklaridagi til materiallari, shuningdek, "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul-haqoyiq" kabi manbalar asosida turkiy til leksikasi, grammatikasi va fonetik tizimining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Ushbu qo'llanmada turkiy tillarning boshqa til oilalari, jumladan hind-yevropa, semit-xomiy, fin-ugor, sino-tibet tillari bilan qiyosiy-tipologik jihatdan o'xshash va farqlanuvchi jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Qiyosiy tadqiqotlar orqali turkiy tillarning fonetik, morfologik va sintaktik qurilishi, so'z yasalishi va semantik tizimi hamda lingvokulturologik xususiyatlari boshqa tillarga nisbatan qanchalik rivojlangan va o'ziga xos ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, turkiy xalqlarning ko'p asrlik tarixiy-madaniy jarayonlarda qo'shni xalqlar bilan olib borgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalari natijasida yuzaga kelgan o'zaro til ta'siri masalalari ham tarixiy-qiyosiy asosda tahlil etilgan.

Mazkur qo'llanma turkiy tillarning xalqaro miqyosdagi mavqeyi va zamonaviy davrdagi taraqqiyot tendensiyalarini ham qamrab oladi. Unda turkiy tillarning XXI asr globallashuv jarayonidagi o'rni, ularning BMT, TURKSOY, OTS (Turkiy davlatlar tashkiloti) va

boshqa xalqaro nufuzli tashkilotlar doirasida qo'llanishi, shuningdek, internet tilida va global kommunikatsiyada tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beriladi. Turkiy tillarning hozirgi davrdagi integratsiyalashuvi, o'zaro adabiy til me'yorlarining yaqinlashuvi, qo'shma imlo, lug'at va terminologik amaliyotlar natijasida yuzaga kelayotgan umumturkiy til muhiti masalalari ham qo'llanmaning asosiy e'tibor markazida turadi.

Uslubiy qo'llanma tarkibida mavzuni chuqur o'rganish uchun nazariy qism bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, seminar ssenariylari, mustaqil ta'lim topshiriqlari, testlar, savol-topshiriqlar, matn tahlili va taqqosiy-lingvistik ishlanmalar ham keltirilgan. Bu esa o'quvchilar, talabalarga mavzuni o'zlashtirish, o'qituvchilarga esa dars jarayonida qo'llash imkonini yaratadi.

Qo'llanma tilshunoslik yo'nalishidagi bakalavr va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar, o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar, shuningdek, tarixiy va qiyosiy tilshunoslik, turkologiya, umumiy tilshunoslik bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan bo'lib, mavzu doirasida nazariy ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

I BOB. DUNYO TILLARI TIZIMI VA ILMIY TASNIFI

1.1. Dunyo tillarining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari

Dunyo tillari bir necha ming yillik evolyutsiya jarayonida shakllangan bo'lib, ular insoniyat jamiyati rivoji, moddiy va ma'naviy madaniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Tilshunoslar dunyo tillarining taraqqiyotini bir necha bosqichlarda o'rganadilar. "Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umum insoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir"¹.

1. Tilning paydo bo'lishi va ilk davr (bobo til davri). Bu davr insoniyatning ilk ibtidoiy jamiyat bosqichiga to'g'ri keladi. Asosiy xususiyatlari: tovushlar tizimi muayyan shaklga ega emas; ibtidoiy ovoz, imo-ishora, onomatopoeik tovushlardan iborat bo'lgan. Lug'at boyligi juda kam va asosan sodda ma'noli so'zlardan tashkil topgan. Til hali aniq grammatik qoidalarga ega emas. Bu davrda ilk pratillar (eng qadimgi umumiy til zaminlari) shakllangan. Ayrim nazariyalarga ko'ra, bitta umumiy til bo'lgan (monogenez nazariyasi), boshqalarga ko'ra esa tilda ko'p markazlar bo'lgan (poligenez nazariyasi).

2. Sharqlanish va differentsiallashtiruv davri. Aholining ko'payishi, turmush tarzi, hududlar bo'yicha tarqalishi natijasida til birligi asta-sekin bo'linib, mustaqil tillar shakllana boshlaydi. Jarayonning sabablari: qabilalar migratsiyasi; etno-madaniy aloqalarning uzilishi; ijtimoiy-iqtisodiy farqlanish. Natijada til oilalari paydo bo'ldi: hind-yevropa, semit-xitoytillari, turkiy, fin-ugor, sino-tibet, bantular va boshqalar. Bu bosqichda ilk grammatik shakllanishlar yuzaga keldi: fe'l-zamon, egalik, ko'plik, kelishik kategoriyalari vujudga keldi.

3. Qabila va xalq tillarining shakllanish davri (etnik til bosqichi). Bu davr insoniyatning qabilaviy jamiyatdan xalq shakllanishiga o'tishi bilan bog'liq. Xususiyatlari: Qabila shevalari birlashib, xalq tillari shakllandi. Fonetik va grammatik me'yorlar

¹ Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – T., 2018. – B. 5. www.ziyouz.com kutubxonasi.

mustahkamlanadi. Soʻz yasaliş tizimi boyiydi, lugʻat rivojlanadi. Masalan, qadimgi turkiy tilda shu davrda ajdodlarning umumiy tili sifatida yagona asos shakllanadi. Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizgʻin bahs olib borganlar. Tilshunoslik tarixidan maʼlumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni oʻrtaga tashlashgan. Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bogʻlanish yoʻq, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar **anomalistlar** deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar “narsa bilan uning nomi orasida muayyan bogʻlanish bor. Bu bogʻlanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bogʻlanish ilohiy kuch tomonidan oʻrnatilgan” degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim **anologistlar** deb nom olgan².

4. Adabiy tilning shakllanish davri. Jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti, davlatlarning vujudga kelishi yozma madaniyatni talab etdi. Natijada adabiy til, yaʼni meʼyorlashgan, umumxalq uchun yagona til shakllandi. Belgilari: Yozuv paydo boʻlishi (piktografik → grafemik yozuvlar). Adabiy normalar va uslubiy meʼyorlar shakllandi. Ilk adabiy yodgorliklar paydo boʻldi. Misollar: Qadimgi turkiy: Orxon-Enasoy bitiklari (VIII asr) Qadimgi fors, sanskrit, xitoy, arab tilidagi yozma manbalar.

5. Milliy tillarning shakllanish davri. XVI–XIX asrlarda millatlarning vujudga kelishi bilan milliy tillar shakllandi. Bu bosqichda tilning barcha sohalarda qoʻllanishi kengaydi. Xususiyatlari: Adabiy tilning yuksalishi. Milliy adabiyot, matbuot va ilm-fan tili sifatida mustahkamlanish Ilmiy terminologiya boyishi. Masalan: rus, ingliz, oʻzbek, fransuz, turk, nemis, qozoq va boshqa milliy tillar shakllandi.

6. Zamonaviy til rivoji – globalizatsiya va standartlashuv davri. XX–XXI asrlarda tillar rivoji global oʻzgarishlar bilan tavsiflanadi. Asosiy jarayonlar: Jahon axborot makonining kengayishi. Internet tili va raqamli kommunikatsiyaning paydo boʻlishi. Ingliz tilining global tilga aylanishi Tillarning integratsiyasi va koʻplab tillarning yoʻqolish xavfi. Xalqaro va mintaqaviy tillar

² Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – T., 2018. – B. 5. www.ziyouz.com kutubxonasi.

shakllanishi. Bugungi kunda dunyoda ~7000ga yaqin til mavjud, ularning ko'pi yo'qolish xavfida. Shu bilan birga, tarjima texnologiyalari, tilni raqamlashtirish, sun'iy intellekt til taraqqiyotiga yangi bosqich ochmoqda.

Dunyo tillari taraqqiyoti insoniyat madaniyati, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivoji bilan chambarchas bog'liq holda bosqichma-bosqich amalga oshgan. Har bir bosqichda til: ijtimoiy ehtiyojga moslashdi, lug'ati boyidi, grammatikasi takomillashdi, yangi yozuv, uslub va shakllarni egalladi. Til taraqqiyoti hanuz davom etmoqda va XXI asrda raqamli muhit tilni o'zgartiruvchi kuch sifatida kirib kelmoqda³.

1.2. Dunyo tillari tasnifining asosiy mezonlari

Dunyo tillarini ilmiy tasniflashda bir nechta mezonlar qo'llaniladi. Har bir mezon tilning ma'lum bir jihatini o'rganishga xizmat qiladi. Asosiy tasnif mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Genealogik (tarixiy-kelib chiqish) mezon. Bu tasnif tillarni kelib chiqishi, umumiy ajdod tilga mansubligi asosida guruhlarga ajratadi. Genealogik tasnifning asosiy prinsipi – qarindosh tillar o'rtasidagi umumiy ildizlarni aniqlashdir. Masalan: hind-yevropa, turkiy, semit-hamit, ugo-fin, sinotibet, bantu tillari oilalari; tillar tarixini tiklash, ularning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish; qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar, fonetik, leksik, grammatik qiyoslash.

2. Tipologik (strukturaviy-qurilish) mezon. Tipologik tasnif tillarning kelib chiqishiga emas, balki tuzilish xususiyatlariga asoslanadi. Tipologik tasnifda quyidagilar o'rganiladi:

Tashkiliy belgi	Ko'rinishlari
Morfologik tip	Analitik, sintetik, agglutinatív, flektiv, inkorporativ tillar
Sintaktik qurilish	SVO, SOV, VSO va h.k. jumla tuzilishi
Fonologik tizim	Unli-undosh tizimi, urg'u, ohang

Masalan: turkiy tillar – agglutinatív; ingliz tili – analitik; rus va nemis tillari – flektiv.

3. Areal (geografik) mezon. Bu mezon tillarni hududiy tarqalishi va geografik yaqinligi asosida guruhlaydi. Geolingvistik

³ Bobni yortishda internet ma'lumotlariga ham tayanildi.

hududlar: Yevropa tillari, Osiyo tillari, Afrika tillari, Amerika va Avstraliya tillari va b. Ushbu tasnifda til kontakti, qo'shniçilik natijasidagi o'zaro ta'sir, areal xususiyatlar o'rganiladi. Masalan: Boltiqbo'yi areali, Bolqon til ittifoqi, Markaziy Osiyo lingvistik makoni.

4. Sotsiolingvistik mezon. Bu tasnifda tillar jamiyatdagi ijtimoiy maqomi bo'yicha farqlanadi. Quyidagi mezonlar qo'llaniladi: rasmiy va davlat tili, milliy va mintaqaviy til, lingva franka (xalqaro muloqot tili) – ingliz, fransuz, arab, rus, ispan, xitoy tillari, dialekt, lahja, argo va pidjin-kreol tillar.

5. Funksional mezon. Tillarning ijtimoiy vazifasi va qo'llanish sohalariga ko'ra tasnifi: Adabiy til (kodifikatsiyalangan norma); Og'zaki va yozma til; Ilm-fan tili, badiiy uslub tili, rams tili (ilmiy, rasmiy, ommaviy, badiiy, so'zlashuv uslublari).

Dunyo tillari tasnifi bir mezon bilan belgilanmaydi, aksincha, genealogik, tipologik, areal, sotsiolingvistik va funksional mezonlarning uyg'unligi tilning to'liq ilmiy tavsifini beradi. Har bir mezon tilning ma'lum bir qirrasini ochadi va ularning barchasi lingvistika uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

1.2.1. Genealogik tasnif

Dunyo tillarining genealogik tasnifi ularning kelib chiqishi, tarixiy ildizi va qarindoshlik aloqalarini aniqlashga asoslanadi. Ushbu tasnifda tillar **umumiy ajdod tildan** tarqalganligi yoki tarqalmaganligiga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Genealogik tasnif lingvistikaning **qiyosiy-tarixiy** (komparativ) metodiga tayanadi va til oilalari, tarmoqlar, guruhlar kabi struktur birliklarni qamrab oladi. Genealogik tasnifning asosiy vazifasi — tillar o'rtasidagi tarixiy qarindoshlikni aniqlash, ularning taraqqiyot jarayonini tiklash hamda umumiy manbadan tarqalgan tillarni bir oilaga birlashtirishdir. Bunda fonetik, leksik va grammatik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, o'xshashliklar va farqlar orqali ularning genetik aloqasi belgilanadi. Masalan, turkiy tillarda “ko'z – göz – köz – kuz”, hind-yevropa tillarida “ot – horse – Pferd – cheval” kabi so'zlarning tarixiy ildizi umumiy kelib chiqishni ko'rsatadi. Genealogik tasnifning asosiy birliklari. Genealogik tasnif quyidagi toifalar orqali amalga oshiriladi:

Birlik	Mazmuni
Til oilasi	Bir ajdod tilga borib taqaladigan qarindosh tillar majmuasi
Til guruhi	Bir oilaga mansub bo'lib, yaqin qarindosh tillar to'plami
Til	Mustaqil lingvistik birlik sifatida shakllangan milliy til
Sheva va lahjalar	Tilning hududiy ko'rinishlari

Dunyo tillarining yirik genealogik oilalari. Hozirgi kunda dunyo tillari bir nechta yirik genealogik oilalarga ajratiladi. Genealogik jihatdan tillarni til oilalariga ajratmiz. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lmagan tillar esa qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Dunyo tillari yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, kelib chiqish, qarindoshligiga, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Til oilalarining nomlari bobo til nomi bilan yuritiladi. Masalan, slavyan tillari oilasi, german tillari oilasi, roman tillari oilasi, eroniy tillar oilasi, somiy tillari oilasi, turkiy tillar oilasi va boshqalar. Yer yuzida 20 dan ortiq til oilasi bor⁴. Jahonda keng tarqalgan til oilalari quyidagilar:

Til oilasi	Turkumlanishi
Hind-Yevropa oilasi	<p>hind turkumi (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat va h.);</p> <p>eron turkumi (fors, afg'on, osetin, kurd, tojik va h.);</p> <p>slavyan turkumi (rus, ukrain, belorus, chex, slovak, polyak, serb, makedon, bolgar, xorvat, sloven);</p> <p>boltiq turkumi (litva, latish, latgal);</p> <p>german turkumi (dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy tili);</p> <p>roman turkumi (fransuz, provansal, italyan, ispan, portugal, rumin, moldovan tillari, o'lik lotin tili);</p> <p>kelt turkumi (irland, shotland, breton, uels);</p>

⁴ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova M., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. – B. 46.

	anatoliy turkumi (o'lik); tohar turkumi (o'lik); Grek, alban, arman tillari birorta turkumga mansub bo'lmasdan, shu til oilasiga kiradi.
Oltoy tillar oilasi	turkiy tillar (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turk, turkman va boshqa jami 30 ga yaqin til), mo'g'ul, manchjur, yapon, koreys turkumlari kiradi;
Fin-ugor tillar oilasi	fin guruhi (fin, eston, karel, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mordva tillari), ugor guruhi (venger, mansiy, xantiy tillari).
Som-xom tillar oilasi	semit guruhi (arab, axmar, xarari, oysor, ivrit tillari), qushit guruhi (galla, somali, saho, beja tillari), berber guruhi (kobil, shilx, rif, tamazist tillari), chad-xom guruhi (xuase, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi tillari), arab guruhi (qadimgi arab)
Kavkaz oilasi	g'arbiy guruh (abxaz, abazin, adigey, kabardin, ibix tillari), nax guruhi (chechen, ingush, batsbiy tillari), dog'iston guruhi (avar, darg'in, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari), janubiy guruh (megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy)
Xitoy-tibet oilasi	tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vetnam tillari), tibet-birma guruhi (tibet, birma tillari) kiradi.

Bulardan tashqari yana *dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika* til oilalari ham bor. **Turkiy tillar agglutinativ tillar sanaladi.** Bu tillarda har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar odatda asosdan keyin qo'shiladi. Masalan: *litsey+dosh+lar+im+ga*.

Shuningdek, dunyodagi tillar **faol va nofaolligiga ko'ra** tirik va o'lik tillarga bo'linadi: **Tirik tillar** – xalqlar hozirda gaplashadigan tillar: o'zbek, ingliz, afg'on, qirg'iz, nemis kabi. **O'lik tillar** – hozir muomalada ishlatilmay qolgan tillar: lotin, qadimgi hind yoki sanskrit tili, qadimgi slavyan, qadimgi xorazm, qadimgi arab, qadimgi fors, toxar, anatoliy va so'g'd tili.

XI asrgacha muomalada bo'lgan qadimgi xorazm tili hind-yevropa tillari oilasining eron tillar turkumiga mansub edi. Lotin tili esa qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili bo'lgan. Imperiya yemirilgandan keyin esa bu til ham o'lik tilga aylangan. Hozirda lotin tilining qoldiqlarini ilmiy atamalarda uchratishimiz mumkin. Xususan, tibbiyot sohasida ko'plab kuzatiladi. Ma'lum tillarning vujudga kelishi uchun manba bo'lib, o'zi aloqa vositasida ishlatilmaydigan til asos til (**bobo til**) deyiladi: Roman tillari uchun lotin tili bobo til bo'lib hisoblangan. Dunyodagi xalqaro tillar sifatida ingliz, rus, ispan, fransuz, xitoy, arab tillari tan olingan.

Turkiy tillar oilasi. Turkiy tillarda so'zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstraliya mintaqalarida istiqomat qilishadi. Turkiy til sirasida faqat o'zbek tili "o" lovchi tildir. Chunki o'zbek tilida boshqa turkiy tillarning *at, ana, almoq, bash, qazan* kabi ko'plab so'zidagi "a" tovushi o'rnida "o" tovushi ishlatiladi. O'zbek (turkiy) tilda yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar VI-VII asrlarga tegishli bo'lib, umumturkiy adabiy til sifatida shakllandi.

Qarluq tillari guruhi	Qipchoq tillari guruhi	O'g'uz tillari guruhi
o'zbek va uyg'ur tillari	qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, gagauz, qrim-tatar, qorachoy-bolqar, qo'miq, no'g'ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash va boshqalar	ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari

Bundan tashqari, yakkaxon (izolyat) tillar ham mavjud bo'lib, ular hozircha hech bir genealogik oilaga mansub deb qaralmaydi. Masalan: yapon, koreys, bask tillari.

Genealogik tasnif tillarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishga, qadimgi ajdod tillarni qayta tiklashga, xalqlarning etnik shakllanish jarayonlarini ilmiy asosda talqin qilishga, tillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va qarindoshlikni aniqlashga imkon beradi. Shu bois genealogik tasnif umumiy tilshunoslik hamda tarixiy lingvistik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1.2.2. Tipologik tasnif

Tipologik tasnif dunyo tillarini ularning kelib chiqishiga emas, balki tuzilishiga, grammatik, fonetik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra guruhlashga asoslanadi. Ushbu yondashuv tillar orasidagi genetik qarindoshlikni emas, balki struktur o'xshashlik va farqlarni o'rganadi. Tipologik tasnif asoschisi sifatida XIX asr tilshunosi V. fon Gumboldt nomi tilga olinadi⁵. Tipologik tasnif til tizimining quyidagi qatlamlarini qamrab oladi:

- morfologik tuzilish,
- fonetik-fonologik tizim,
- sintaktik qurilish,
- so'z yasalihi va grammatik ketma-ketlik,
- kategoriya va shakllar tizimi.

Bu tasnif struktural lingvistika, areal tipologiya va umumiy til nazariyasida muhim ahamiyatga ega.

Morfologik tipologiya. Morfologik tipologiya tillarni so'z yasalihi va grammatik shakllanish usullariga ko'ra quyidagi tiplarga ajratadi:

Tip	Xususiyati	Misollar
Analitik tillar	Grammatik ma'no ko'proq yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi, so'z o'zgarmaydi	ingliz, xitoy
Sintetik tillar	Grammatik ma'no qo'shimcha va affikslar bilan ifodalanadi	rus, nemis, arab
Agglutinativ tillar	Qo'shimchalar bir-biriga qo'shib, har biri bitta grammatik ma'no ifodalaydi	turkiy, koreys, mo'g'ul
Flektiv (fusional) tillar	Bitta affiks bir vaqtning o'zida bir nechta grammatik ma'no bildiradi	rus, lotin, nemis
Inkorporativ (polisintetik) tillar	Bir so'z tarkibiga butun gap ma'nosi jamlanadi	eskimos-chukot, ayrim amerika hindulari tillari

⁵ <https://felifov.nethouse.ru/static/doc/0000/0000/0047/47498.ha4pab3qcu.pdf>

Misol: Turkiy tillarda: *kitob-lar-imiz-da* – har qo‘shimcha alohida ma‘no beradi (ko‘plik, egalik, kelishik). Rus tilida esa bitta yakuniy shakl bir nechta grammatik ma‘no anglatadi: *книгаму* (ko‘plik, vosita kelishigi).

Sintaktik tipologiya. Tillarning asosiy so‘z tartibiga ko‘ra tasnifi:

- SOV – Subyekt + Ob‘yekt + Fe‘l (o‘zbek, turkiy tillar, yapon, koreys)

- SVO – Subyekt + Fe‘l + Ob‘yekt (ingliz, fransuz, rus)

- VSO – Fe‘l + Subyekt + Ob‘yekt (arab, ivrit)

Sintaktik tipologiya shuningdek qo‘shimcha xususiyatlar bilan ham o‘rganiladi: so‘z birikmalari tartibi, aniqlovchi–aniqlanmish joylashuvi, yordamchi so‘zlardan foydalanish va boshqalar.

Fonetik-fonologik tipologiya. Bu yo‘nalish tillarni tovush tizimi asosida solishtiradi:

- unli va undoshlar tizimi,

- urg‘u, intonatsiya, ohang,

- fonemalar soni va tizimi.

Masalan, arab tilida bo‘g‘iz tovushlari, turkiy tillarda singarmonizm hodisasi, xitoy tilida esa tovush ohanglari (tonlar) muhim tipologik belgilardir.

Tipologik tasnifning ahamiyati

Tipologik tasnif: tillar orasidagi struktur o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydi, turli genealogik oilalarga mansub tillar o‘rtasidagi umumiyliklarni ko‘rsatadi, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi, sun‘iy til yaratish va areal lingvistika uchun ilmiy asos beradi. Masalan, genealogik jihatdan qarindosh bo‘lmagan turkiy va yapon tillarining agglutinatив tuzilishda o‘xshashligi tipologik jihatdan izohlanadi, ammo ular genealogik jihatdan bir oilaga mansub emas.

1.2.3. Areal tasnif

Dunyo tillarining areal tasnifi ularning geografik maydonda tarqalishi, qo‘shnichilik munosabatlari, til kontaktlari hamda hududiy o‘xshashliklariga ko‘ra guruhlanishini anglatadi. Bu tasnif genealogik (kelib chiqish) va tipologik (tuzilish) mezonlardan farqli ravishda tillarning hududiy yaqinlik natijasida shakllangan lingvistik

umumiyliklarini o'rganadi. Areal lingvistika tillarning bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sirini, leksik, fonetik, grammatik almashinuv jarayonlarini ham tahlil qiladi. Bu hodisa asosan madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalar, migratsiya, mustamlakachilik, savdo va diniy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Areal tasnifning asosiy xususiyatlari. Areal tasnif: tillarni tarqalish hududiga qarab guruhlaydi, areal umumiylik va farqlarni aniqlaydi, til ontaktlarini o'rganadi, til ittifoqlari (union), til makonlari tushunchalariga asoslanadi. Mazkur yondashuv genetik qarindoshlik shart emasligini e'tirof etadi. Bir hududda yashagan, qarindosh bo'lmagan tillar ham o'zaro ta'sir natijasida umumiy xususiyatlar kasb etishi mumkin.

Areal til birliklari. Areal lingvistikada quyidagi tushunchalar qo'llanadi:

Atama	Mazmuni
Til areali (lingvistik hudud)	Muayyan geografik makonda joylashgan tillar majmuasi
Til ittifoqi (Sprachbund)	Genealogik jihatdan farqli bo'lsa-da, uzoq davom etgan til kontakti natijasida umumiy belgilarni shakllantirgan tillar uyushmasi
Kontakt zonasi	Turli tillar o'zaro kuchli ta'sir qilgan hudud
Substrat, superstrat, adstrat	Til ta'sirining sotsiogeografik ko'rinishlari

Mashhur til ittifoqlari (Sprachbundlar). Areal tasnifda dunyoda bir nechta mashhur til ittifoqlari aniqlangan:

Bolqon til ittifoqi – albaniya, bolgar, yunon, makedon, rumin tillari (artiklning ot ortidan kelishi, fe'l kategoriyalaridagi o'xshashliklar bilan xarakterlanadi)

Janubiy Osiyo til ittifoqi – hind, bengal, panjobi, dravid tillari (postpozitsiya, fe'lning gap oxirida kelishi kabi umumiyliklar)

Markaziy Osiyo lingvistik makoni – turkiy, fors-tojik, mo'g'ul tillari (ko'plab leksik almashinuvlar, struktural yaqinlashuvlar kuzatiladi)

Qafqaz til ittifoqi – gruzin, osetin, avar, lezgin va b. (murakkab fonetik tizim, undoshlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi) Dunyo tillarining geografik areallari

Areal tasnifda tillar odatda quyidagi yirik hududiy guruhlariga ajratiladi:

Yevropa tillari areali

Osiyo tillari areali (Sharqiy, Janubiy, Markaziy, Janubi-G‘arbiy Osiyo subareallari bilan)

Afrika tillari areali

Amerika tillari areali (Shimoliy va Janubiy)

Avstraliya va Okeaniya tillari areali

Bu tasnif tillarning global tarqalish manzarasini belgilaydi va areal-lingvistik xaritalar orqali ifodalanadi.

Areal tasnifning ahamiyati. Areal tasnif: tillarning o‘zaro ta’sir va almashinuv jarayonlarini o‘rganishga yordam beradi; madaniy va tarixiy aloqalarni til orqali tahlil qilish imkonini yaratadi; bir hududda yashovchi xalqlarning etnik, madaniy yaqinligini ochib beradi; til o‘zgarishlarining geografik omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Areal lingvistika hozirgi kunda kontakt lingvistika, sotsiolingvistika va tarixiy lingvistika bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda.

1.3. Turkiy tillarning dunyo tillari xaritasidagi o‘rni

Turkiy tillar bugungi kunda dunyo lingvistik manzarasida muhim o‘rin egallagan yirik genealogik til oilalaridan biri hisoblanadi. Ushbu oilaga mansub tillar Yevrosiyo qit‘asining g‘arbiy hududlaridan tortib, Markaziy Osiyo va Sibir, shuningdek, Xitoyning g‘arbiy mintaqalarigacha bo‘lgan keng arealda tarqalgan. Turkiy tillar geografik jihatdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari tutashgan makonda rivojlanib, ko‘plab xalqlarning siyosiy, madaniy va tarixiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan.

1. Tarqalish hududi va geografik doirasi. Turkiy tillar Atlantika okeaniga yaqin Sharqiy Yevropadan tortib Tinch okeanigacha, shimolda Sibirning qutb zonasidan janubda Eron, Afg‘oniston va Xitoy chegaralarigacha yoyilgan ulkan arealni qamrab oladi. Bu areal “Buyuk Turkiy dunyo” yoki “Turk dunyosi” deb ham ataladi.

Turkiy tillar tarqalgan hududlar:

- Sharqiy Yevropa (Turkiya, Bolqonning ayrim qismlari)
- Kavkaz mintaqasi
- Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston)
- Sharqiy Turkiston (Xitoyning Shinjon-Uyg'ur hududi)
- Sibir va Ural mintaqalari (Tatar, Bashqird, Yoqut (Saxa), Xakas, Tuva tillari)
- Ozarbayjon va Eronning shimoliy qismi

Ushbu geografik ko'lam turkiy tillarning dunyo tillari xaritasida strategik va madaniy jihatdan alohida o'ringa ega ekanini ko'rsatadi.

2. Genetik til oilalari tizimidagi o'rni. Dunyo tillarining genealogik tasnifida turkiy tillar mustaqil til oilasi sifatida qaraladi. Ba'zi tarixiy-lingvistik tadqiqotlarda turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillarining qadimda "Oltay nazariyasi" doirasida qarindoshligi haqida ilmiy farazlar mavjud bo'lsa-da, u hozircha qat'iy isbotlangan tasnif sifatida qabul qilinmagan.

Turkiy tillar o'z ichida quyidagi yirik guruhlariga bo'linadi:

- G'arbiy (O'g'uz) guruh: o'zbek, turk, ozarbayjon, turkman
- Qipchoq guruhi: qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qo'miq
- Qarluq (Chig'atoy) guruh: o'zbek, uyg'ur
- Sibir turkiy tillari: yoqut, tuva, xakas, shor, qaraim va b.

Bu ichki tasnif turkiy tillarning geografik tarqalishi bilan ham mos ravishda rivojlangan.

3. Demografik o'rni va miqyosi. Bugungi kunda turkiy tillarda so'zlashuvchilar soni taxminan 200–250 million kishidan ortiq bo'lib, ular dunyo aholisining muhim qismini tashkil etadi. Turkiy tillar: 4 mamlakatda davlat tilidir: Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmanisto; bir nechta davlatlarda rasmiy yoki mintaqaviy til maqomiga ega: Qirg'iziston, Ozarbayjon, Iroq va Xitoyning ayrim hududlarida, Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalarda Bu omil turkiy tillarning jahon hamjamiyatidagi siyosiy va lingvistik mavqeini mustahkamlaydi.


4. Sivilizatsion va madaniy o'rni. Turkiy tillar:

- Buyuk Ipak yo'li madaniy almashinuv hududida shakllangan,
- Sharq va G'arb o'rtasida lingvistik ko'priklar vazifasini bajargan,

•qadimgi turkiy yozma yodgorliklar orqali (Orxon-Yenisey bitiklari) dunyo madaniy merosiga sezilarli hissa qo'shgan.

Bugungi kunda Turkiy dunyo davlatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari (TDT – Turk davlatlari tashkiloti doirasidagi hamkorlik, yagona alifbo muhokamalari) turkiy tillarning global maydondagi mavqeini yanada kuchaytirmoqda.

Turkiy tillar tarqalish areali, demografik salohiyati, tarixiy-madaniy merosi va siyosiy ahamiyati bilan dunyo lingvistik xaritasining muhim qismidir. Ular Yevrosiyoning markazida joylashgan bo'lib, turli sivilizatsiyalar uchrashuv nuqtasida shakllanib, global miqyosda o'zining barqaror mavqeini saqlab kelmoqda.



Turkiy tillarning geografik tarqalishi. To'q ko'k: Shimoli-sharqiy umumiy turkiy til (Sibir turkiy tillari); Yashil: Janubi-sharqiy umumiy turkiy til (Karluk tillari); To'q sariq: Shimoli-g'arbiy umumiy turkiy til (Qipchoq tillari); Qizil: Janubi-g'arbiy umumiy turkiy til (O'g'uz tillari); Binafsha rang: O'g'ur tillari

II BOB. QADIMGI TURKIY TILNING LEKSIK TIZIMINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNING ETIMOLOGIK TASNIFI

2.1. "Qadimgi turkiy til" atamasining ilmiy talqini va uning davrlashtirilishi

Qadimgi turkiy til (Old Turkic, Eski Türkçe) – bu turkiy tillarning tarixiy rivojlanish bosqichlaridagi dastlabki yozma manbalarda ifodalangan shakli bo'lib, qadimiy turkiy xalqlarning til merosi sifatida tilshunoslikda mustahkam o'ringa ega. Ilmiy talqinda qadimgi turkiy tilni faqatgina yozma yodgorliklar orqali o'rganish mumkinligi ta'kidlanadi, chunki bu davrda og'zaki manbalar yozib qolmagan.

1. Ilmiy talqini. Qadimgi turkiy til atamasi:

- Genealogik nuqtai nazar: turkiy tillar oilasining qadimgi shakli, undan keyingi turkiy tillar (o'rta va zamonaviy) rivojlangan.

- Tipologik nuqtai nazar: agglutinatív tuzilishga ega bo'lib, morfologik va sintaktik xususiyatlari keyingi turkiy tillarda davom etgan.

- Yozma manba nuqtai nazar: Orxon-Yenisey bitiklari, Talas bitiklari, runik va boshqa qadimgi yozuvlar orqali tasdiqlanadi.

Shu bilan birga, qadimgi turkiy til lingvistik va tarixiy kontekstda turkiy xalqlarning etnik, madaniy va sivilizatsion xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiladi.

2. Qadimgi turkiy tilning davrlashtirilishi. Tilshunoslar qadimgi turkiy tilni tarixiy jihatdan quyidagi bosqichlarga ajratadi:

Qadimgi turkiy tilning dastlabki shakli (VII–IX asrlar)

Orxon-Yenisey bitiklari asosida aniqlangan.

Asosan ko'chmanchi turkiy xalqlar nutqini aks ettiradi.

Runik yozuv va Orxon-Yenisey alifbosi ishlatilgan.

Qadimgi turkiy tilning keyingi shakli / o'rta qadimgi turkiy (IX–XI asrlar)

Talas bitiklari, Turfan va Qochoq manbalari asosida o'rganilgan.

Grammatik va leksik jihatdan turkiy tillarning keyingi shakllari (o'rta turkiy) bilan uzviy bog'liq.

Tarixiy hodisalar, diniy va madaniy matnlar (buddaviy, manicheistik) ko'p uchraydi.

O'rta turkiy tilga o'tish (XI–XV asrlar)

Qadimgi turkiy tilning leksik va morfologik xususiyatlari sekin-asta o'rta turkiy tillarda shakllanadi.

Og'zaki va yozma manbalar rivojlanadi, turkiy adabiy tilning asoslari paydo bo'ladi.

Qadimgi turkiy runik bitigtoshlar areal jihatdan ular topilgan keng hududni qamrab oladi. Bu bitiglar asosan VIII–X asrlarga oid bo'lib, Turkiy xalqlarning keng hududga tarqalgan madaniy-tarixiy hayotini aks ettiradi. Qadimgi turkiy runik bitigtoshlar asosan O'rxun-Yenisey madaniy hududida tarqalgan bo'lib, bu hududlar keyinchalik turkiy xalqlarning davlatchilik va yozma an'analari shakllanishida muhim o'rin tutgan. Qolaversa, ularning davriy yaratilishi – bu yodgorliklarning tarixiy vaqt bo'yicha vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganuvchi muhim masala hisoblanadi. Bu jihatdan I.V.Kormushin qadimgi turkiy runik yozuvining variantlarini quyidagicha tasniflagan:

1. Mo'g'ulistondagi "O'tukan-turk" (O'rxun) bitiglarini (VII asr oxiri – 730-yillar, Ikkinchi Turk xoqonligi siyosiy davri);

2. Mo'g'ulistondagi "O'tukan-Uyg'ur" bitiglarini (VIII asrning ikkinchi yarmidan IX asrning birinchi yarmigacha, Uyg'ur xoqonligi siyosiy davri);

3. Yenisey daryosi havzasidan va shimoli-g'arbiy Mo'g'uliston hududi "Yenisey-Qirg'iz" bitiglarini (IX asrning ikkinchi yarmidan X asr oxiri yoki hatto XI asr boshlarigacha, Qirg'iz xoqonligi siyosiy davri);

4. "Sharqiy Turkiston-Uyg'ur" bitiglarini (X-XI asrlar, Turfon va uning atrofidagi Uyg'ur beklilari siyosiy davri);

5. Qirg'izistondagi, shuningdek, qo'shni Markaziy Osiyo mamlakatlarining hududlaridagi Talas bitiglarini (paleografik ma'lumotlarga ko'ra ular Yenisey-Qirg'iz yodgorliklarining bir qismi bo'lib, ehtimol X asrga oid);

6. Shimoliy Oltoy hududidan topilgan "Shimoliy Oltoy-Qirg'iz" bitiglarini (paleografik ma'lumotlarga ko'ra, ular ehtimol X asrga oid)⁶.

3. Qadimgi turkiy tilning ahamiyati. Tarixiy va lingvistik ahamiyati: turkiy tillarning kelib chiqishi va genealogik aloqalarini aniqlashga yordam beradi. Madaniy meros: qadimgi yozma

⁶ Александр В.С. И.В. Кормушин и его вклад в тюркскую рунологию (к 85-летию ученого). Russian Turkology. № 1–2 (42–43), 2024. – P. 167.

yodgorliklar orqali turkiy xalqlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini o'rganish mumkin. Leksik va morfologik tadqiqotlar: hozirgi turkiy tillardagi so'z va shakllarning tarixiy ildizini aniqlash imkonini beradi.

2.2. Qadimgi turkiy til so'z borlig'ining yozma manbalarda aks etish holati

Turkiy el-uluslar tarixda Uzoq Sharqdagi Bohay (Sariq) dengizidan tortib, mojar (vengr) dashtlariga qadar keng mintaqada hukmronlik qilgan va bugungi kunda ham, deyarli ushbu arealda yashamoqda. Turk xoqonliklari (552-744) davri turkiylar davlatchiligi tarixidagi muhim bosqich bo'lib, o'z davrida mintaqada yetakchi kuch sifatida qo'shni sulolalar, qolaversa, keyingi turkiy va g'ayriturkiy sulolar tarixida muhim o'rin egallaydi. Bunda xoqonlikning harbiy ish va mudofaa jihatdan yuqori darajadagi boshqaruv tizimiga ega bo'lganligi yetakchi omillardan bo'lib xizmat qilgan. Xususan, L.Gumilevning ta'kidlashicha, "Turkutlar (Turk xoqonligi) zafarlari va dunyoning yarmiga egalik qilishi tasodifiy hodisa emas edi. Ular yuqori saviyadagi shunday bir qo'shin va idora tizimi yaratdilar, shunga munosib ravishda g'alabalarga ham erishdi, deb aytish mumkin"⁷. O'rxun-Yenisey bitigtoshlari, xitoy va boshqa tarixchilar qalamiga mansub tarixiy asarlar, solnomalar qadimgi turkiy qabila va urug'lar ko'pdan ko'p harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etganidan guvohlik beradi.

Har qanday tadqiqotni amalga oshirishda manbalarning ahamiyati, albatta, beqiyosdir. Harbiy qurilishni o'zida aks ettirgan terminlarni chuqur o'rganishda qadimgi turkiy bitigtoshlar muhim ahamiyatga ega, chunki bular turklarning dastlabki yozma hujjatlaridir. Ko'k turk matnlari Birinchi, ayniqsa, Ikkinchi Turk xoqonligi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, alaxusus, harbiy faoliyatini ochib berishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Zero, "Harbiy terminologiya faqat ayrim terminlarning katta qismi va ular orasidagi munosabatlar jamlanmasi ekanligini asoslash uchun emas, balki harbiy terminologiyaning aynan tizimda qanday

⁷ Гумилев Л. Н. Қадимги турклар... – Б. 64.

shakllantirilganligini aniqlashga yordam beradi”⁸. Qayd etish joizki, qadimgi turkiy harbiy terminlar tizimi Turk xoqonligi tashkil topgandan keyin emas, balki undan oldin asrlar davomida, avvalgi turkiy davlat uyushmalari negizida shakllangan. Qadimgi xunlarning harbiy ishdagi shijoati, juan-juanlar, va ayniqsa ko‘k turklarning siyosiy maydonga chiqishi orqali yana qayta jonlandi hamda takomillashdi. Turkiylarning ashina urug‘iga mansub qabilasi qisqa davr ichida yirik imperiyalardan birini yaratishga erishdi. Bu o‘sha davrda turkiylarning eng asosiy raqiblaridan bo‘lgan Suy (581-618) va Tan sulolalari (618-907), shuningdek, Sosoniylar (224-651) hamda boshqa bir qancha yirik davlat birlashmalari tomonidan e‘tirof etildi. Ushbu jarayon bevosita ko‘kturklarning davlat birlashmasi, undan-da oldinroqqa nazar tashlansa, juan-juanlar davriga to‘g‘ri keladi. Jumladan, unvon berish tartibi haqida xitoy solnomalarida bir qadar ma‘lumotlar saqlangan bo‘lib, ulardan “Vey shu” yilnomasida juan-juanlar bilan bog‘liq quyidagi ma‘lumotlar fikrni dalillaydi: “juan-juanlarda mavjud odatga ko‘ra, hukmdorlar va amaldorlar bajargan ishlariga qarab unvon olishadi. Bu xuddi “O‘rtaliq davlat” (Xitoy)da o‘lgandan keyin beriladigan unvonlar kabidir, faqat ularda vafotidan keyin faxriy unvonlar berilmaydi”⁹. Ushbu ma‘lumotlardan ham anglash mumkinki, qadimgi turkiylarning davlat boshqaruvi va jamiyatdagi roli uning harbiy ishdagi jasorati, darajasiga muvofiq o‘sib borgan¹⁰. “Harbiy ish ko‘pgina xalqlarda bo‘lgani kabi ko‘k turklar uchun ham umumxalq xarakteriga ega edi. Ular juda yoshlikdan harbiy ish bilan shug‘ullana boshlagan. Harbiy mashg‘ulotlar har bir fuqaro uchun majburiy hisoblangan. Natijada harbiy qurilish, harbiy ish va harbiy san‘at bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar tizimi qadimgi turkiy tilda vujudga kelgan va faol qo‘llangan”¹¹. Qolaversa, termin va unvonlar tizimining shakllanishida qo‘shni g‘ayriturkiy

⁸ Курганов А. Ҳарбий терминларнинг ишлатилиши ва улардаги ўзгаришларнинг ўзига хос хусусиятлар // Ўзбекистонда хорижий тиллар, № 4 (23) 2018. – Б.77.

⁹ Материалы по истории древних кочевых народов группы дунху. Введение, перевод и комментарии В. С. Таскина. – М.: Наука, 1984. – С. 269; Бобоёров. Ф. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – Б. 178.

¹⁰ Бу an‘ana, xususan, harbiylarga jangdagi ko‘rsatgan qahramonliklaridan kelib chiqib unvon-laqab berish Boburiylar saltanatida ham amalda bo‘lgan. Bu uchun qarang: Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобирнома. – Т.: ФА, 1960. – Б. 14.

¹¹ Dadaboyev H. Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma – Т.: Sahnof, 2021. – В. 8.

davlat va siyosiy uyushmalarning ham o'rnini bor edi. Turk xoqonligi davrida mavjud iyerarxiya har jihatdan tartiblashib, yanada boyidi.

Shu kunga qadar xoqonlik davlat boshqaruvidagi harbiy termin va unvonlar tizimining ko'pgina jihatlari, shu jumladan, ularning tarixiy-etimologik,

semantik-funksional xususiyatlari kabi masalalar bo'yicha muayyan darajada izlanishlar olib borilgan. Ammo aynan xoqonlik cherigida qo'llanishda bo'lgan harbiy terminologiyaning shakllanishi, bajargan vazifalari va statistikasiga doir maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Xususan, qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari va o'sha davr shart-sharoitlari hisobga olingan holda olib borilgan tadqiqotlarning ozligi bois qadimgi turkiy harbiy terminologiyaning kelib chiqishiga doir bir qancha bahsli fikrlarga guvoh bo'lish mumkin. "Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, qadimgi turklar davlatchiligidagi bir qator termin hamda unvonlarining paydo bo'lishi asosan tashqi ta'sir bilan bog'liqligi qayd etiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar – xitoyshunoslar, eronshunoslar, mo'g'ulshunoslar va boshqalar tashqi o'xshashlik va farazlarga asoslanib, o'zlarining tadqiqot tarmoqlari ta'sirida qadimgi turkiy unvonlarning kelib chiqishini boshqa manbalardan izlamoqdalar. Garchi bu to'g'ridan to'g'ri olingan ba'zi istilohlar uchun asosli bo'lsa-da, lekin ularning aksariyati turkiy zaminda shakllangan bo'lishi mumkin"¹². Shuningdek, tadqiqotlarga o'zga tilli, xususan, sug'diy, sanskrit va baqtriy tildagi hujjatlarning yetarlicha jalb qilinmaganligini kuzatish mumkin. Mazkur tadqiqot uchun qayd etilgan tilga oid hujjatlar bo'yicha yetuk mutaxassislarining fikrlari ham muhim manbalar qatorida ko'rildi.

Turk xoqonligi tarixining ayrim qirralarini yoritishda xitoy yilnomalarida ham qimmatli ma'lumotlar in'ikosini topgan. Yilnomalarda Turk xoqonligining markaziy hududlarida sodir bo'lgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, xoqonlikning Suy (581-618), Tan (618-907) sulolalari bilan munosabatlari qamrab olingan. Keyingi o'rinlarda sayyohlarning xoqonlik hududi bo'ylab uyushtirgan sayohatlari asosida to'plagan ma'lumotlari ham xoqonlik harbiy tizimining ayrim jihatlari yoritishga imkon beradi. Ular orasida, asosan, Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy hududlari va qo'shni

¹² Кубатин А. Система титулов в тюркском каганате: генезис и преемственность. – Т.: Янги нашр, 2015. – С. 6.

mamlakatlarga sayohat uyushtirgan Syuan Szan (627-644) va Xoy Chao (720-yillar)ning qaydlari ma'lum darajada ahamiyatlidir. Lingvistik manbalar harbiy istilohlar bilan ishlashda, ayniqsa, ularning kelib chiqishi va vazifalarini aniqlashda bebaho sanaladi. Qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini tahlilga tortishda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va keyingi davrlarda yaratilgan boshqa bir qancha asarlar tadqiqot uchun asosiy manbalar vazifasini o'tadi.

Qadimgi turkiy bitigtoshlarda uchraydigan istilohlarning katta qismini harbiy terminlar tashkil etishi ushbu saltanat uyushmasining mohiyatida harbiy ish va san'at ustuvorlik qilganidan darak beradi. Bitigtoshlardagi ilk satrlardan oq harbiy ohangning ustuvorlik qilishi ham ushbu fikrimizni dalillaydi: "*sü sülöpän tört buluñdaqi bodunuy qop almiš* – lashkar tortib to'rt jihatdagi xalqni butunlay olgan(lar)" (KT, 2). Ushbu jumlar orqali harbiy ishdagi mahorat turklarning yirik hududlarni zabt etishdagi asosiy omil bo'lganligini bilish mumkin.

Turk cherigining qat'iy tizimli, o'z vazifasiga ega ma'muriy-hududiy qismlangani erishilgan g'alabalarni ta'minlagan omillardan biri bo'lgan. Masalan, qo'shin *yolayçi* – "yo'l boshlovchi (qism)", *ilki sü* – "avangard, ilg'or qism", *atliý sü* – "otliq qo'shin, suvoriy", *yaday sü* – "piyoda qo'shin", *äkin sü* – "zaxira qo'shin" kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan va ular zaruriy vaqtda o'z vazifasini mohirona ado etganlar. Buni bitigtoshlardagi parchalardan ko'rish mumkin: "*Oyuz tapa sülädim, ilki sü tašiqmiš ärti, äkin sü äbdä ärti* – o'g'uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar – ilg'or qism yo'lga chiqqan edi, ikkinchi lashkar qarorgohda edi" (BX, 32). "Umumiy hisobda *sü* dan yasalgan yoki *sü* bilan shakllangan harbiy istilohlar soni yuzdan ortiqligi qayd etiladi"¹³. Turk xoqonligi harbiy harakatlarda qo'shinning g'alabalarini ta'minlagan muhim omil uning jangovar shayligi va asosiy qismini *atliý sü* – "otliq qo'shin"lar tashkil etganligida ham edi. Qo'shinning bu shiddatkor qismi jang paytida asosiy manevrlarni amalga oshirgan. Bitigtoshlarda hatto askarlarning qaysi otda jangga kirgani (otlarning nomi) haqida ham qaydlar uchraydi. Bu quyidagi parchalarda ko'zga tashlanadi: "*Özlüki binip oplayu tägip üç ärig sänçdi* – O'zlak otni minib uch

¹³ Ercilasun A. Askerlikte Onlu Systeme Türklerin Katkıları // Second International Congress on Turkic civilization. – Bishkek, October 4-6, 2004. – S.195.

jangchini o'ldirdi" (KCh, 15); "*üçünç Yägän Silig bägiñ kädimliğ toriğ at binip tögdi* – uchinchi (bor) Yegan Silig bekning zirhli to'riq otini minib hujum qildi" (KT, 33). Ma'lumki, ot qadimdan turkiylarda har bir *är* – o'g'ilning doimiy yo'ldoshi hisoblanardi.

Harbiy harakatlarining muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan yana biri bevosita qo'shinning talablarga javob bera oladigan qurol-yarog'lar bilan jihozlanganligida edi. Bitigtoshlarda *aşuq* – "dubulg'a", *yaray* – "harbiy qurol-aslaha", *kädim* – "zirh, harbiy kiyim", *oq* – "o'q", *käş* – "o'qdon", *süñüg* – "nayza", *süñüñlüğ* – "nayzali", *qilič* – "qilich" kabi terminlarning faol qo'llanilishi turkiy jangchilarning qurol-yarog' bilan puxta mudofaalanganidan darak beradi. "*süñüg batimi qaqrğ söküpän ...* – nayza botimi qorni yorib ..." (KT, 35); "*süñüglüg qantan kälipän sürä ältdi* – nayzali qaydan kelib, surib ketdi" (KT, 23); "*Yaraqinta yalmasinta yüz artuq oqun urti* – Yarog'iga, yopinchig'i (zirhi)ga yuzdan ortiq o'q bilan urdi" (KT, 33) kabi parchalardagi harbiy terminlarning faol qo'llanilishi fikrimizni dalillaydi. Aytish lozimki, Turk xoqonligi qo'shinining mustahkam qurol-yarog' bilan ta'minlanishida temir konlari va uni qayta ishlovchi ustalarning o'rni beqiyos edi. Ashina qavmining qadimda temirchilik bilan mashg'ul bo'lgani hamda temir rudasiga boy konlar ularning hech ikkilanmasdan mustaqillik va yetakchilikni qo'lga olishdagi jasoratiga ham xizmat qilgan.

"Xitoy yilnomalarida tukiye (turk)larning qurol-yarog'lari o'q-yoy, gurzi, zirhli sovut, uzun suvoriy nayzalari va qilichlardan iborat ekani ko'rsatib o'tiladi"¹⁴. Aytish o'rinliki, qadimgi turkiylar og'ir anjomlar emas, balki nisbatan yengil qurol-yarog'lar bilan mudofaalangan. Chunki ularning harbiy aslahalari keng vodiylarda va uzoq o'lkalarga yengil harakatlanishga mo'ljallangan edi. Xususan, "Oltoy o'lkasidagi Baliq-Sook degan joydagi mozor-qo'rg'on qazilganda uning qurol-aslahalari va jang kiyimlari bilan ko'milgan qadimgi turk jangchisiga tegishli ekani aniqlangan. Ahamiyatlisi shuki, ushbu topilmalar tiklanganda ular orasida qilich, dubulg'a (shlem), xanjar, o'q-yoy, sovut kabi jangovar buyumlar

¹⁴ Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre Doğu Türkleri. Çeviri E. Kayaoğlu, D. Banoğlu. – İstanbul, 2006. – S. 21.

mustahkam temir va kumushdan yasalgan bo'lib, suvoriyga ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydigan darajada yengildir"¹⁵.

Bitigtoshlarda hujum bilan bog'liq *sänč-* – “suqmoq, nayzalamoq”, *ölür-* – “o'ldirmoq”, *bič-* – “kesmoq”, *ur-* – “urmoq, tiqmoq, sanchmoq, kesmoq” kabi istilohlar uchraydiki, bu hodisa turkiylarda hujum qurollarining turli ko'rinishlari bo'lganligidan dalolat beradi.

Bitigtoshlardagi “*körüg*” termini orqali qadimgi turkiylarda o'ziga xos josuslik, ayg'oqchilik xizmati ham yaxshi yo'lga qo'yilganligini anglash mumkin: “*körüg sabī antay: toquz oyuz bodun üzä qayan olurti tär ...* – kuzatuvchining gaplari shunday: To'quz o'g'uz xalqi ustiga bir xoqon hukmron bo'ldi” (BX, 9). Shuningdek, bitigtoshlarda “dushman hujumidan saqlovchi post, soqchi” ma'nosidagi *qarayū(n)* terminining uchrashi xoqonlikda mudofaa tizimi ham yuqori darajada yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Bu borada bitigtoshlarda quyidagicha ma'lumot aks etgan: “*Sälänjä qodī yorīpan qarayūn qāslata ābin barqīn anta buzdum* – Selenga (daryosiga) quyi tushib, postni bostirib, qarorgohini buzdim” (BX, 37). Xususan, bitigtoshlarda *sü, čärig* – “qo'shin”, *yizäk, är* – “jangchi, jangchilar”, *oylan* – “yosh jangchilar”, *süñüş* – “jang”, *sülämäk* – “urush-”, *yayī* – “dushman”, *körüg* – “razvedkachi, josus”, *yärçi* – “yo'l boshlovchi/yo'l ko'rsatuvchi”, *til* – “til (asir)” kabi istilohlar faol qo'llangan.

O'rxun-Yenisey bitigtoshlari Turk xoqonligi tarixi, davlat tuzilishi va davlatchilik an'alarining turli jihatlarini, jumladan, boshqaruv tizimi va unvonlar haqida muhim ma'lumotlarni olishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunga qadar kashf etilgan yozma manbalarda Turk xoqonligi va undan keyin siyosat maydonida paydo bo'lgan boshqa saltanatlarning tashqi siyosati hamda ichki hayotiga oid juda ko'p ma'lumotlar mavjud. “Qadimgi turkiylar, jumladan, xoqonlikning davlat qurilishi va u bilan bog'liq tushunchalar haqida so'z ketganda, O'rxun-Yenisey bitigtoshlari matnida “davlat” ma'nosida *äl* istilohining qo'llangani e'tirof etiladi”¹⁶. “Xoqonlikdagi qabilalar ittifoqi *älga* uyushgan va *törü* –

¹⁵ Кубарев Г.В., Кубарев В.Д. Погребение знатного тюрка из Балык-Соока (Центральный Алтай) // Археология, этнография и антропология Евразии. 4 (16), 2003. – С. 64-80.

¹⁶ Mori M. The T'u-chüeh Concept of Sovereign // Acta Asiatica. Bulletin of the Institute of Eastern Culture, 41. – Tokyo, 1981. – P. 50-58; Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 71.

hokimiyat/qonun tomonidan idora etib turilgan. Buni bitigtoshlardagi ushbu parchadan anglash mumkin¹⁷: “*Türk qara qamuy bodun anča tämiš: ällig bodun ärtim, älim amtī qanī* – Turk fuqarosi shunday debdi: Elli (davlatli) xalq edim, davlatim endi qani?” (KT, 9). Ushbu parchalardan ma’lumki, *qayan* oliy rahnamo sifatida *äl* – davlat (shuningdek, xalq) va *bodun* – oddiy xalq, avom ustidan o’z hukmini yurgizgan. Shuningdek, davlat (*äl*)ning nomi o’sha amaldagi xoqonning nomi bilan yuritilavergan, ya’ni xoqon nomi davlat nomi (eponim) sifatida xizmat qilgan. “*Ältäriš qayan älintä*”, “*Bilgä qayan älintä*”, “*Qapyan qayan yäri*” kabi. Bu jarayon keyingi turkiy sulolalar davrida ham davom etgan.

Bitigtoshlarda unvondorlar asosan o’z unvonlari nomi bilan qayd etilganini ko’rish mumkin. Masalan, “*On oq oylüm Türgäš qayanta Maqarač tamyači ... kälti* – O’n o’q o’g’lim(dan) Turgash xoqonidan Maqarach tamg’achi... keldi” (KT, 53). Bitigtoshlarga ko’ra, qadimgi turkiylarda *är* – er yigitlikning ikki bosqichi haqida ma’lumotlar mavjud. Unga ko’ra yangi tug’ilgan o’g’il ulg’ayib voyaga yetgach, el, qavm oldidagi biror jasorati uchun *är* (haqiqiy er) darajasiga munosib ko’rilgan. Jumladan, bitigtoshlardagi “*inim kül tägin är at bolti* – inim Kul Tegin voyaga yetdi (erkak bo’ldi)” (KT, 31); “*oylan atim Čubuč İnäl ärtä atim Kümül Ögä* – o’g’il otim Chubuch Inal, yigitlik (erlik) otim Kumul O’ga” (Y, 45/1) kabi jummlalar shundan dalolat beradi.

Turk xoqonligida mansab, lavozimlar tizimiga nazar tashlasak, oliy hukmdor – *qayanning* yuqori darajadagi maslahatchilari bor bo’lgan. Bular *ayyuči* va *bilgä* unvonli vazirlar edi. Ular barcha ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohada hukmdorga maslahatchi bo’lishi bilan birga, oliy darajadagi qo’mondonlar ham hisoblangan. Tinchlik paytida harbiy kengashda asosiy maslahatchi, urush chog’ida cherigni harakatlantiruvchi qo’mondon vazifasini bajargan. Xoqonning tobi qochgan yoki turli sabablar bilan oliy hukmdor boshqaruvdan chetlashganda ushbu unvonlar egalari saroydan tashqaridagi masalalarda vaqtincha hukmdor vakolatini ham bajarishgan. *bilgä* oliy darajali unvon-epitet sifatida ilk marta turkiy sulolardan Ko’kturk xoqonligida tilga olinadi. Qoraxoniylar davlat

¹⁷ Kul Tegin bitigtoshi (Qarang. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил.... – Б. 104; Tekin T. Orhon Yazıtları. Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk. – Istanbul: Yıldız Yayınları, 2003. – S. 41-42)

qurilishini o'zida aks ettirgan "Qutadg'u bilig"da bir necha bor hukmdor nomi oldidan qo'llanilib, sifatlash vazifasini ado etgan. Aytish o'rinliki, turli el, turli xalqlarda insonga xos fazilatlardan muayyan biriga urg'u berilib, ushbu sifat axloq darajasiga ko'tarilgan. Bu esa o'sha xalqlarning turmush tarziga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmagan. Turklarda qadimdan dono, oqil, bilimlilar toifasiga o'zgacha hurmat ko'rsatilgan va har vaqt jamiyatning old qatorida turgan. Xususan, turklarda eng ziyoli qatlam vakillari *bilga* unvoni bilan sarafroz qilingan¹⁸. *ayyuči* va *bilgä* unvonlaridan tashqari yana bir qancha unvon-lavozimlarning markaziy hokimiyat boshqaruvida ko'rish mumkin. Turk xoqonligidagi unvonlarning asosan harbiy xarakterdaligi davlat tepasidagi harbiy yetakchilar, umuman, har bir turk *är* – jangchi yigitining asosiy burchi *äl* – davlatning mustaqilligini saqlash, dushmanlarga tobe bo'lib qolmaslik uchun kurashish kerakligi bilan ham belgilanar edi. Buni bitigtoshlardagi ushbu satrlarda kuzatish mumkin: "*tört buluñ qop yayi ärmiş, sü süläpän, tört buluñdaqı bodunuy qop älmış, qop baz qılmış, başlıliy yüküntürmiş, tizliliğ sökürmış* – to'rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib to'rt tomondagi xalqni butunlay olgan, butunlay tobe qilgan. Boshi borni yukuntirgan, tizzasi borni cho'kkaalatgan" (KT, 2).

"Xoqonlik markaziy apparatidan Ulug' xoqondan tashqari, siyosiy uyushmani tashkil etgan qabilalar va elatlar ustidan nazorat olib boruvchi, markazdan tayinlangan amaldorlar yoki Ulug' xoqonga qarashli boshliqlar ham o'rin olgan. Xoqonlik idora tizimi uzluksiz ravishda pog'onali guruhlangan. Xoqonlik xoqonga bo'ysungan xonlar o'rtasida taqsimlangan. Tadqiqotlarda xoqonlikda bir vaqtning o'zida yettita kichik xonlik mavjud bo'lganligi qayd etiladi"¹⁹. Qabilalar ko'pincha *yabyu* va *šad* unvonli shaxslar tomonidan boshqarilgan. Ular, albatta, sulola vakillari bo'lishi kerak edi. Turk xoqonligidagi mavjud unvonlar tartibiga doir "Tun-dyan" asarida keltirilgan quyidagi ma'lumot buni dalillaydi: "U(lar)ning unvonlari *yabyu, šad, tägin*. Asosan ular xoqonning o'g'li, og'a-inilari va ushbu xonadon a'zolaridan bo'lishadi. Shuningdek, *ärkin, kulčör, ältäbär, tudun, ssu-čin* va boshqa lavozimlarga hamma

¹⁸ Ko'kturklardagi *bilgäni* mo'g'ullardagi *märgän* unvoniga muqoyasa etish mumkin. Chunki mo'g'ullarda shaxsning harbiy kamoloti eng muhim fazilat sifatida bilingan.

¹⁹ Hayrettin E. Eski Türklerde Devlet Teşkilati... – S. 228

tayinlanishi mumkin edi”²⁰. *šadlar* harbiy yetakchi o‘laroq asosan davlatga qarashli jamoalarni boshqarishda ko‘proq o‘rin tutgan. *čör, tägin, ältäbär, ärkin, tudun, tuyyun* unvonli amaldorlar ham xoqonlikka qarashli jamoalarni boshqargan. Ular o‘zlariga tegishli urug‘larni xoqon nomi bilan idora etishgan, shuningdek, soliq va moliyaviy nazorat bilan shug‘ullangan. Nisbatan birlashgan yirik qabilalarga harbiy mas‘ul bo‘lgan *tudunlar* ba‘zan to‘g‘ridan to‘g‘ri markazning vakili hisoblanishgan. Xususan, bu jarayon *qayanning* tobe qabila, uyushmalarni idora etishda ularning mavjud boshqaruv toifasiga tayanish bilan birga, ular ustidan harbiy va boshqa sohalarda nazorat olib borish uchun *išbara, tudun, inanču* kabi o‘z unvondor (nozir)larini tayinlashida ko‘zga tashlanadi.

Asosiy ko‘k turk xalqi (*bodun*)ni tashkil etuvchi qabilalarning boshida *bäg* unvoniga ega harbiylar turgan va ular kengashlarda xoqonning o‘ng yonidan joy egallagan: “*Sabimin tukäti äšidgil: ulayu ini yiginum, oylanim, biriki oyušum bodunum, biryä šadapit bäglär, yiryä tarqat buyruq bäglär* – So‘zimni tugal eshitgil! Keyinimdagi ini, jiyanim, o‘g‘il(lar)im, ittifoq urug‘im – xalqim, o‘ngdagi shadapit beklar, so‘ldagi tarxon, buyruq beklari” (KT, 1). “Aytish lozimki, O‘rxun-Yenisey bitigtoshlarida xoqonlik harbiy-ma‘muriy tizimi bilan bog‘liq 100 ga yaqin unvon, mansab va lavozim nomlari, sifatlashlar uchrashi hujjatlarda aks etgan”²¹. Shuningdek, *sübaši* va *apatarqan* lavozimlari ham mavjud bo‘lib, ular harbiy ekspeditsiya boshlig‘i va qo‘shin qo‘mondoni vazifalarini ado etuvchi kishilarga berilgan. *Apatarqan* unvoni harbiy ishlar uchun mas‘ul amaldor sifatida urush paytidagi maxfiy xabar, buyruq va ko‘rsatmalar faqat unga yetkazilgan. Shuningdek, *tarqanlar* diplomatik masalalar bilan ham shug‘ullanishgan. Harbiy harakatlar vaqtida oliy qo‘mondon va unga bo‘ysunuvchi bir nechta quyi qo‘mondonlar faoliyat yuritgan. Bularga *yabyu, šad, tägin, čör, ärkin, ältäbär* unvonlari bilan yuritilgan shaxslarni kiritish mumkin. Shuningdek, sarkardalar tarkibida *bilgä, čäbiš, tudun* unvonlariga ega zobitlar ham bo‘lgan va turli harbiy qism, bo‘linmalarga qo‘mondonlik qilgan. *bäg* va *tarqan* cherig lashkarboshilari safidan o‘rin olgan.

Turk xoqonligiga xos unvon-lavozimlarning o‘ziga xos jihati shunda ediki, hukumat – *törüga* qaysi urug‘, sulola kelmasin o‘z

²⁰ Taşağıl A. Gök-Türkler. I, 2. Baskı. – Ankara, 2003. – S. 107.

²¹ Gömeç S. Kök Türkçe yazılı belgelerde yer alan unvanlar // Türk kültürü. № 443. – Ankara, 2000. – S. 129-142.

hokimiyatini legitimlashtirishga harakat qilgan. Bunga o'z hokimiyatini ilohiylashtirish va oddiy xalq – *qara qamuy bodunni* bunga ishontirish orqali erishilgan. Ya'ni, avom tomonidan Tangri *qayanga uluy* – rutba yoki *qut* – to'le bergan hamda ushbu fazilatlar sohibiga so'zsiz itoat etish kerak deb inonilgan. Buni bitigtoshlar matnining boshidan joy olgan quyidagi jummalarda ko'rish mumkin: *“Üzä Kök Täñri asra yayız yär qilinduqda ikin ara kişi oylı qilinmiş. Kişi oylınta üzä äčüm apam Bumın qayan, İstämi qayan oturmış* – Tepada ko'k osmon, pastda qaro yer yaratilganda ikkisinin orasida kishi (inson) bolalari yaratilgan. Kishi (inson) bolalari ustidan otabobom Bumin xoqon, Istamiq xoqon taxtga o'tirgan” (KT, 1).

2.3. O'z qatlam

Tilning o'z qatlam so'zlari – bu tilning asl, tug'ma so'zlari bo'lib, ular boshqa tillardan o'zlashtirilmagan, ya'ni tilning tabiiy rivojlanishi natijasida hosil bo'lgan leksik birliklardir. Ushbu qatlam tilning ildizini, tarixiy shakllanishini va asosiy leksik fondini tashkil qiladi. Lingvistika fanida uni “asl turkiy so'zlar”, “tug'ma so'zlar”, “indigenous words” deb ham atashadi.

Leksik xususiyatlari. Qadimgi turkiy til o'z qatlam so'zlari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega: Agglutinatativ tuzilishga mos keladi. Qo'shimchalar yordamida turli grammatik ma'nolar (ko'plik, egalik, kelishik) hosil qilinadi. Masalan: tengri (Xudo) → täñri-lär (Xudolar). Fonetik jihatdan soddaligi. Unli va undoshlar tizimi tabiiy va uyg'un. Masalan: su (suv), yär (yer), ay (oy)

Semantik qatlamning tabiati. Tabiat, hayvonot, ijtimoiy tuzilma va kun tartibi bilan bog'liq. Masalan: kök (osmon, ko'k), baş (bosh), äl (xalq, jamoa), kök (ko'k – rang va osmon ma'nosida). Turkiy tillarning tarixiy ildizini o'rganish ularning dunyoqarashi va hayot tarzini aks ettiradi. O'z qatlam so'zlari orqali keyingi turkiy tillardagi so'zlarning ildizini aniqlash mumkin. Masalan, hozirgi o'zbek, qozoq, qozoq, turk tillaridagi ko'plab kundalik so'zlar qadimgi turkiy tilning o'z qatlam so'zlaridan kelib chiqqan.

Turkiylarning qadimgi davri bo'lmish xoqonlikning ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy, shuningdek, harbiy hayotiga oid bir qancha izlanishlar olib borilgan va tadqiqotlar chop etilgan. Mavjud ishlarda qadimgi turkiy til harbiy terminologiyasining u yoki bu darajada

tarixiy va lingvistik tahlili berilgan, ammo ularning genezisi va taraqqiyoti hali to'liq aniqlashtirilmagandir. Qolaversa, Turk xoqonligi davlat boshqaruv tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlarda saltanat harbiy ish va mudofaa sohasida qo'llanishda bo'lgan harbiy terminlarning aniq miqdori ham berilmagan. Shu jihatdan, qadimgi turkiy tildagi harbiy terminlarni diaxron aspektida atroflicha o'rganish nafaqat til tarixi, balki qadimgi turklarning davlatchiligi, boshqaruv an'analari va harbiy qurilishi uchun ham katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, xoqonlikda harbiy terminlar tizimi qanday shakllanganligi, ularning kelib chiqishi, etimologik jihatlarini aniqlash hozirgi turkiy tillarning harbiy terminologiyasi tizimida sodir bo'lgan jarayonlarni yanada oydinlashtiradi. Ushbu bobda bitigtoshlarda aks etgan terminlarni harbiy qatlam nuqtayi nazaridan quyidagicha tasnifladik.

1. O'z qatlam;

2. O'zlashma qatlam;

2.1. Xitoycha o'zlashmalar;

2.2. Sanskritcha o'zlashmalar;

2.3. Sug'dcha o'zlashmalar.

äl – “el, davlat, xalq”. Bitigtoshlardagi *ältäbär*, *älätmiş* kabi unvon va *älsirä* – “yurtsiz qolmoq”, *ällig* – “davlati bor, hukmdor”, *älli* – “davlat holiga keltirmoq, davlat qurmoq” kabi leksemalar tarkibida qo'llangan *äl* so'zi yana bir qancha istilohlarning vujudga kelishida ham ishtirok etgan. Jumladan, *Ältäriş* – (ikkinchi Turk xoqonligi asoschisi) *äl-tär-iş*: *äl* – “xalq, qabila”, *tär* – “termoq, yig'moq, bir joyga to'plamoq”, *-(i)ş* harakat nomi qo'shimchasi, ya'ni bu yerda “elni, xalqni to'plovchi, boshini bir joyga yig'uvchi” ma'nosidadir. Shuningdek, *Älbilgä* (Eltarish xoqonning xotini, Bilga xoqon va Kul Teginning onasi) – *äl-bilgä*: *äl* – “xalq, qabila”; *bilgä* – “dono”, ya'ni “xalqni va donolikni o'zida birlashtirgan; xalq birligi va donolik ramzi”. Kul Tegin bitigidagi quyidagi jumlada *äl* so'zi orqali ishtiyoq san'ati yuzaga kelgan: “*türk bodun ällädük älin* – turk xalqi uyushgan elini”. *ällädük* so'zi *äl* (davlat) + *-lä* + *-dük* (-gan)dan iborat bo'lib, aniq ma'nosi “davlat qilingan”dir. *älin* dagi *-i* egalik, *-n* tushum kelishigi qo'shimchasidir. *ällädük älin* iborasida ishtiyoq san'ati bor.

Bitiglardagi “el, davlat, el-davlatli qabila yoki xalq” ma'nolarida qo'llangan *ällig* so'zi ham *äldan* yasalgan. Bu so'z o'zbek tilida *ellig* > *ellik* shaklida “bir el (xalq)qa mansub bo'lgan, eli va yurti bo'lgan

kishi” ma’nolarida saqlangan (O‘TIL, V, 34). So‘z bugungi kunga qadar deyarli ma’no o‘zgarishsiz yetib kelgan. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxiridagi *g > k* o‘zgarish o‘zbek tilida tez-tez uchraydi: *yirig > (y)iririk; achig > achchiq; tirig > tirik; o‘lig > o‘lik* va hkz. Bu holat aynan *ellig > ellik* so‘ziga ham xosdir. O‘rta asr adabiy yodgorliklarida “hukmdor” ma’nosida qo‘llanilgan *älig / ilig / ilik / iläk* so‘zlari ham qadimgi turkcha *ällig* – “eli, davlati bor” so‘zining fonetik o‘zgarishli shakllaridir. Ushbu istilohga antonim bo‘lgan davlatning boshqa bir davlatga siyosiy tobeligini anglatgan *baz* – “tobe, qaram, davlati yo‘q” istilohi ham asl turkchadir.

Bitiglardagi *içrâ* – “maxfiy ma’lumot, yashirin”, *içräki* – “saroyga oid” istilohlari *iç* – “ichki qism; maxfiy(lik)” sof turkiy o‘zak zaminida yuzaga kelgan. Bitiglarda *iç* va *taš* so‘zlari bilan yasalgan *içräki* – “xos, saroyga tegishli, xoqonga tegishli”, *içik-* – “tobe bo‘lmoq, ichikmoq”, *içrâ* – “maxfiy”, *içgär-* – “tobe qilmoq”, *tašiq-* – “isyon etmoq” leksemalari tilga olingan. Bulardan *içik-* so‘zi harbiy siyosiy termin sifatida bitiglarda “tobe bo‘lmoq, siqilmoq, ichikmoq, iltijo etmoq, taslim bo‘lmoq” ma’nolarida faol uchraydi. *içrâ* so‘zining ildizi *iç* bo‘lib, u otdan ot shakllantiruvchi *-ra* suffiksi orqali hosil bo‘lgan.

Bitiglardagi “siyosiy markazning tashqarisi” ma’nosidagi *taš* (tashqari) termini hozirgi o‘zbek tiliga tarkibidagi ayrim affikslarning yaxlitlanib qolishi bilan yetib kelgan: *tashqari* (*tash* – asos, *-qari* – eski o‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigi), *tashqi* (*tash* – asos, *-qi* – makon-zamon sifat yasovchi affiksi) shakllarida. Hozirgi o‘zbek tilidagi *tashqi* so‘zi “tashqarida, sirtqi, zohiriy, xorijiy”, *tashqari* leksemasi esa “inshootlarning atrofidagi joy, sirtqi, boshqa, o‘zga” ma’nolarini anglatadi (O‘TIL, IV, 25). Shuningdek, O‘TILda *tash* so‘zining o‘zi ham keltirilib “tashqi tomon, sirtqi; chet” ma’nolarida izohlanganki (O‘TIL, IV, 19), lekin so‘zning bu holatda (tash) ishlatilishi faqat badiiy uslub va ayrim o‘zbek shevalari uchun xosdir. Bu so‘zni o‘zbek tilining faol so‘zlar qatlamiga kiritib bo‘lmaydi.

Qadimgi turkiy tilda “qonun-qoida; hukumat” ma’nolarida ishlatilgan *törü(g)* istilohi etimologiyasi xususida turlicha fikrlar bildirilgan. Bulardan eng haqiqatga yaqin tahlillardan biri ushbu termin qadimgi turkiy tildagi rotatsizm hodisasi natijasida vujudga kelganligi haqidagi qarashdir. Ya’ni *tüz-* – “tuzmoq”dan fe’ldan ot

yasovchi *-(i)g, -(i)k* qo‘shimchalari orqali yasalgan *tüzük* – “tuzilgan (kengash)” so‘zining tovush o‘zgarishli varianti. *tüzük ~ türük ~ törük ~ törüg* kabi. Lekin istilohning bitigtoshlarda *törü* shaklida (*-g* siz) ham qo‘llanganini inobatga olsak, ushbu terminning etimologiyasini yana ham aniqlashtirish zarur, degan xulosaga kelinadi. Ushbu termin hozrgi o‘zbek tilida *to‘ra* shaklida talaffuz qilinadi va quyidagi ma‘nolarni anglatadi: 1 *tar.* yuqori tabaqaga mansub kishi; zodagon, oqsuyak, aristokrat. 2 *tar.* xonlar davrida va chor Rossiyasi davrida Turkistonda katta amaldor, hokim. 3 hurmat yuzasidan yoki ulug‘lab, kishilarning nomiga, unvoniga, mansabiga, shuningdek, ko‘chma ma‘noda ba‘zi narsalarni bildiruvchi so‘zlarga qo‘shib ishlatiladigan so‘z (*Azimto‘ra*). 4 *ko‘chma ma‘noda* rasmiyatchi, rasmiyatparast, byurokrat. 5 *to‘ra* (erkaklar ismi) (*O‘TIL*, III, 662). Izohlardan ko‘rish mumkinki, leksema bir qancha qo‘shimcha ma‘no kasb etgani holda o‘zining bitiglardagi ma‘nosini saqlab qolgan.

Bitiglarda “xoqonli, xoqoni bor, mustaqil” ma‘nolaridagi *qayanliq* istilohi *qayan* o‘zagiga egalik ma‘nosini ifodalovchi *-liq* suffiksini qo‘shish bilan yasalgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *-lik* affiksi vazifasi o‘rnida asosan, *-li* ishlatiladi: *davlatli, bolali*, lekin *-lik* shakl ham badiiy uslubda faol. O‘zbekchada *xoqonlik* so‘zi “xoqonlik lavozimi” va “xoqonga tegishli davlat yoki mamlakat” ma‘nolarida qo‘llaniladi (*O‘TIL*, IV, 417).

Bitiglardagi semantik-funksional jihatdan mushtarak *yolayčĭ* (*yol-ay-čĭ*) – “yo‘l boshlovchi (qism)” va *yärčĭ* (*yär-čĭ*) – terminlari ishlatilgan. Birinchi termin *yol* so‘ziga fe‘ldan ot yasovchi *-ay* qo‘shimchasidan so‘ng ismlardan shaxs oti yasovchi *-čĭ* affiksining qo‘shiluvidan yasalgan. O‘zbek tilida tarixiy turkiy tildagi ikki bo‘g‘inli so‘zlarning so‘ngida *γ/g – v/w* almashuvi mavjud: *yaday > yayav > yayov; sürüg > sürüv* kabi. Yuqoridagi so‘zda ham shu holat kuzatilgan: *yolayčĭ > yolavčĭ > yo‘lovchi*. Ushbu so‘z o‘zbek tilida umuman “yo‘lda ketayotgan shaxs” ma‘nosida *yo‘lovchi* shaklida mavjud (*O‘TIL*, II, 280). Ko‘rish mumkinki, biz izohlayotgan termin birlamchi semasini tamoman yo‘qotmagan holda undan keyingi davr manbalari, shuningdek, hozirgi o‘zbek tilida saqlangan. *yärčĭ* esa *yär* va *-čĭ* qismlarining qo‘shiluvidan yasalgan.

“*kälmäz ärsär, tiliy sabiy ali olur tädi* – kelmas bo‘lsa, til tutib ma‘lumot olib tur, dedi” (*To‘n*, 32). Ushbu parchadagi *tiliy sabiy ali*

olur birikmasini M.Ergin “xabarchining so‘zini olib tur”²², T.Tekin “xabarlarini olib tur”²³, J.Kloson “ma’lumotlarni va hisobotlarni yig‘ib turmoq”²⁴ shaklida o‘giradi. Istiloh, shuningdek, Shine Usu bitigidagi *til tutmiš* iborasi tarkibida qo‘llangan: ... *basmiš: til tutmiš: kaniņa...*(ShU, 12). J.Kloson ushbu birikmani “xabarchini qo‘lga olmoq”²⁵ anglamida o‘giradi. “Devonu lug‘otit-turk”da *tilik* va *til* so‘zlari uchrab, *tilik* so‘zining “tanishmoq, so‘zlashmoq” ma’nolaridan tashqari “xabar bermoq” ma’nosida ishlatilishini ham yozadi: “*māniņ birlā tiligdi* – men bilan so‘zlashdi”²⁶. Bunda Mahmud Koshg‘ariy lug‘atidagi *til tut-* iborasi Shine Usu bitigidagi ibora bilan uyg‘un shaklda qo‘llangan. “Qutadg‘u bilig”da istiloh bilan bog‘liq “*til ičginma-* – “xabarchi jo‘natmoq”, *til al-* – “xabar(chi) olmoq” iboralari mavjud”²⁷. *til al-* iborasi chig‘atoy turkchasida bitilgan “Zafarnoma”da ham ko‘zga tashlanadi: “*necha kishini yuqari yo‘ldin til olmak uchun yubordi, kim ahvoldin xabar kelturgaylar*”²⁸.

Manbalarda *sü* dan yasalgan yoki u bilan sintagmatik munosabatda bo‘lgan harbiy istilohlarning yuzdan ortiq o‘rinda ishlatilgani qayd etiladi²⁹. Bitigtoshlarda *sü* istilohi bilan shakllangan *ilki sü* – “avangard, ilg‘or”, *atliy sü* – “otliq qo‘shin”, *yaday sü* – “piyoda qo‘shin”, *sülä-*, *sü tašiq-* – “qo‘shin tortmoq”, lashkar surmoq”, *sübaši* – “qo‘mondon, sarkarda”, *sü ält-*, *sü yori-* – “askar (qo‘shin) tort(moq)” kabi terminlar aks etgan.

Qadimgi turkcha matnlarda uchta *sü//sü* leksemasi farqlanadi. Ulardan biri xitoychadan kirgan “so‘zboshi” ma’nosidagi *sü* (syuy) (ДТС, 548)³⁰. Ikkinchisi turkcha *qut* so‘zining sinonimi, ya’ni “baxt, davlat” ma’nosidagi *sü* (< xitoycha. *dz‘uo* > *su*; mo‘g‘ulcha *su* va *sü*, qalmaqcha *sü*)³¹. Uchinchisi “qo‘shin” ma’nosidagi turkcha *sü* leksemasidir.

²² Ergin M. Orhun abideleri. – Istanbul: Boğaziçi Yayınları, 2002. – S. 74-75.

²³ Tekin T. Tunyukuk yazıtı. – Ankara: Simurg Yayınları, 1994. – S. 14.

²⁴ Clauson G. An etymological Dictionary ... – P. 234.

²⁵ O‘sha asar. – P. 489.

²⁶ Atalay B. Divanü Lugati‘t-Türk tercümesi. I-II-III-IV. – Ankara: TDK Yayınları, 1998. – S. 116-117.

²⁷ Gökalp H. Bir askerlik terimi olarak til / tıl / dil ile kurulan unutulmuş deyimler. IJLA. Volume 2 / 3 Autumn, 2014. – S. 58-60.

²⁸ Kik A. Zafer-nâme-i Emîr Temür. Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, – Istanbul. 2007. – S. 97.

²⁹ Ercilasun A. B. Askerlikte Onlu Sisteme ... – S.195.

³⁰ Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 781.

³¹ Rahmeti A.R. Eski Türk Şiiri. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1986. – S. 389.

M.Ryassenenga ko'ra, "sü turkiy tilga xitoy tilidan kirgan bo'lib, ushbu istiloh "ovlamoq", "ovlanmoq" ma'nosidagi *šou* дан (hozirgi xitoychada *šou lie*) kelib chiqqan va *šü* (šö) shaklida talaffuz etilgan"³². Ushbu fikrga qarshi bo'lgan J.Kloson *sü*ni xitoycha emasligini, chunki leksemaning arabiy matnlarda ham *s* (*sü*) bilan yozilishini ta'kidlaydi³³. A.Gaben ham M.Ryassenening fikrlarini shubha ostiga oladi³⁴. K.Mengesning xitoychadan o'zlashgan so'zligi va T.Tekinining "Turkchadagi eng qadimgi o'zlashma so'zlar" nomli tadqiqotida *sü* leksemasi ko'zga tashlanmaydi³⁵. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, *sü*ni sof turkiy istilohlar qatoriga kiritish mumkin. Qolaversa, ushbu leksema qadimgi turkiy tilda juda faol bo'lib, polisemik jihatdan to'rt ma'noda qo'llana olgan.

Bitiglardagi "jang qilmoq, lashkar tortmoq, o'ldirmoq; jang, urush" ma'nolarida qo'llanilgan *süñüş*- istilohi *sü(ñ)*dan yasalgan. *Süñüş*- uchun *sü(ñ)* – asos, *-(ü)š* DLTga ko'ra, qadimgi turkiy tildagi birgalik nisbat affiksidir. *-(ü)š* affiksi hozirgi o'zbek tilida ham birgalik nisbat qo'shimchasi sifatida *-(i)sh* shaklida mavjud. So'zning asosi bo'lmish *süñ*- fe'li qadimgi turkiy bitiglardan faqat Qizil Chiraa bitigida tilga olinadi: "qölim alp uçun bir ärig oq birlä süñdim – Qo'lim kuchli bo'lganidan bir odamni o'q bilan urdim". "Leksema XI asrdan keyin deyarli iste'moldan chiqib ketgan"³⁶. *Süñ*- so'zining "jang; qo'shin" ma'nolaridagi *sü* leksemasidan shakllangan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Xulosa shuki, *süñüş*- hozirgi o'zbek tilidagi *urush* va *urish* kabidir (hozir ot deb qaraladigan *urush* so'zi *urish*-fe'lidan ajralgan). Ya'ni *urush* – "jang" (ot), *urish* – kimnidir jazolash (fe'l); *süñüş* – "jang" (ot), *süñüş*- – "jang qilmoq" (fe'l). Ma'lumki, bunday so'zlar turkologiyada ism-fe'l omonimiyasi yoki sinkret leksemalar, deb yuritiladi.

Aytish lozimki, hozirgi o'zbek tilida bitigtoshlar matnidagi *sü* va *u* bilan shakllangan birorta so'z uchramaydi, lekin O'TILda *sava(la)*-³⁷ (*urmoq, kaltaklamoq; zarba bermoq*), *savash* (ot. urush, jang),

³² Rasanen M. Versuci eines etymologiscien Wörterbucis der Turksprachen. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, – Helsinki, 1969. – S. 434.

³³ Clauson G. An Etymological Dictionary... – P. 48.

³⁴ Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri... – S. 295.

³⁵ Menges K. The Turkic Languages and Peoples, – Wiesbaden 1968. – S.169; Tekin Talat. Makaleler LI (Yayıma Hazırlayanlar: E. Yılmaz, N. Demir), – Ankara, 2004. – S. 227-231.

³⁶ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 212.

³⁷ Sh.Rahmatullayev *sava* leksemasining ildizini "Devonu lug'otit-turk"dagi "yung titadigan qo'sh chiviq" ma'nosini anglatgan sag' oti (DLT, III, 168) bilan bog'lab, ushbu so'zdan -a qo'shimchasi

savash- (fe'l. urushmoq, jang qilmoq), shuningdek, *savam* (savalanadigan paxta yoki jun), *savachup* (*ayn.* savag'ich (cho'p) (O'TIL, I, 413-414) so'zlari mavjudki, bu so'zlarning o'zagi bo'lgan *sava-* fe'li sof turkcha asos sifatida bitigtoshlar matnidagi *sü* bilan aloqador bo'lsa kerak. Qolaversa, *savash* (urush) va *savash-* (urushmoq) sinkret leksemalari bitigtoshlardagi *sünüş* (urush) va *sünüş-* (urushmoq) so'zlari kabi ism-fe'l omonimiyasini hosil qiladi. *savash* va *savash-* so'zlari hozirgi o'g'uz tillarida ham faol qo'llaniladi. Eski o'zbek tilida bu ism-fe'l omonimlarining faqat harakat ma'noli *savash-* shakli aynan "urushmoq" ma'nosida ko'zga tashlanadi (DLT, II, 112-1). Qrim tatarchasida *sug'ush* so'zi aynan "urush, jang" ma'nosida ishlatiladi.

Manbalarda "askar, er kishi" ma'nosida ifodalangan *är* bilan shakllangan *ärän* "erlar"³⁸, *ärdäm* – "erlik, yigitlik" (odob), *ärlän* – "uyulanmoq", *ärlik* – "erkaklik" kabi so'zlar qo'llangan. *ärkäk*³⁹ so'zi tovush va ma'no o'xshashligiga qaramasdan *är* bilan bog'liq emas. Xususan, "M.Erdal bu so'zni *irk* – "to'rt yoshga kirgan qo'chqor" so'zidan *-ak* qo'shimchasi bilan yasalganini qayd etadi. Qolaversa, bir qancha turkiy matnlardagi *ärkäk* so'zi "erkak hayvon" ma'nosini anglatgan: *irkäk yunt* – "erkak ot" (IB, 24), *ärkäk buzayu* – "erkak buzoq"⁴⁰. Ya'ni jinsning belgisini aniqlovchi komponent vazifasini bajargan. Yuqoridagi *är* bitig'larda hozirgi o'zbek tilidagi ma'nolariga yaqin bir holatda kelgan. Ushbu so'z O'TILda "1. erkak. 2. er. 3. mard, jasur, oliyjanob kishi" ma'nolarida izohlangan (O'TIL, II, 45).

"Nayza yoki tig'li qurol bilan yaralamoq yoki o'ldirmoq, yengmoq, hujum qilmoq" ma'nolaridagi sof turkiy *sänč-* termini genezisi va taraqqiyoti ahamiyatga molik. Ma'lumki, bir qancha turkcha manbalarda uchi tig'li yalov *sanjoq* deyilishi ko'zga tashlanadi. Asli *sänč*dan yasalgan va *sanjoq* deb nomlanuvchi detalni anglatgan ushbu so'zning yasalish asosi va yasalmasidagi o'zaro

bilan yasalganini aytadi hamda buni qadimgi turkiy turkiy tildagi $\gamma(g) \sim v / w, a \sim ä$ fonetik o'zgarishi bilan dalillashga harakat qiladi. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. – Б. 273.

³⁸ *ärän* so'zi "erkak, er, askar, bahodir; erkaklar, askarlar" ma'nosini bildirgan. Birinchi bor X asr qadimgi turkiy til obidasi – "Oltun yoruq" tilida ishlatilgan (ДТС, 176). Дадабоев Х. "Девону луғотит-турк"даги... – Б. 6.

³⁹ Hozirgi o'zbek tilida keng ko'lamda qo'llaniluvchi *ärkäk* so'zi "er, erkak kishi" ma'nosida ilk bor "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otut turk"da ishlatilgan. Дадабоев Х. "Девону луғотит-турк"даги ... – Б. 7.

⁴⁰ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 202.

ma'no bog'liqligini sezish qiyin emas. Chunonchi, keyingi davrda Usmonlilarda beylar tomonidan idora etilgan viloyatdan kichik ma'muriy birlikning *sanjoq* deb atalishida uchi tig'li yalov – *sanjoqning* hukmdorlik alomati ekanligi yetakchi rol o'ynagan bo'lishi kerak. Qolaversa, ayrim hujjatlardagi *Sanjar* (*sanchar: sanch-ar* – sanchuvchi; yengilmas) antroponimi ham ushbu so'z bilan aloqador bo'lsa, ajab emas.

Bitiglarda *yaraq* – “qurol-aslaha” istilohidan *-liy* suffiksi bilan yasalgan *yaraqliy* – “harbiy qurol-aslahaga ega” termini ham mavjud. *Yaraq* istilohi hozirgi o'zbek tilida bitiglardagi ma'nosida va biroz shaklan o'zgarishli holda saqlangan. Hozirgi o'zbek tilida *yarog'* so'zi “hujum yoki himoya qilish uchun ishlatiladigan asbob” (O'TIL, V, 120), shuningdek, *yaroq* – “har qanday sohada kerak bo'ladigan jihoz-asbob” (O'TIL, V, 121) ma'nolarida ishlatiladi. E'tiborli joyi shundaki, eski o'zbek va hozirgi o'zbek tilida ham “biror ish-faoliyatda yoki holatda nafi tegish” ma'nosidagi *yaramoq* fe'li ham borki, yuqoridagi “*yaraq – yaray – yaroy*” so'zlari aynan *yara-* asosidan yasalgan.

O'zaro shaklan yaqin bo'lgan *süñüg, süñüglüg, süñüş* istilohlari bitigtoshlarda faol qo'llangan. *süñüglüg* istilohi *süñüg* – “nayza” asosiga *-lüg* asosdan anglashilgan narsaga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimchani qo'shiluvdan yasalgan va “nayzali; qurollangan” degan ma'noni anglatgan. J.Klosonga ko'ra, *süñüg* so'zining asosi sifatida “nayza” ma'nosidagi *süñ* so'zi olinadi⁴¹. M.Ryasenenga ko'ra, *süñüg, süñü, süñi* so'zlari umumiy o'zak-hosila shaklida ko'rilib, umumiy “nayza” ma'nosida izohlanadi⁴². Ushbu istilohning sof turkcha o'zakdan yasalganligi A.Sherbak tomonidan isbotlangan⁴³. “Jang qilmoq, lashkar tortmoq, o'ldirmoq” va “jang, urush” ma'nolarida bitiglarda faol qo'llangan *süñüş* istilohi ham *sü(ñ)* fe'lidan yasalgan.

Manbalarda “zirh, harbiy kiyim – sovut, bargustuvon, jabduq” ma'nolarida qo'llangan *kädim* termini qadimgi turkcha *käd-* – “kiymoq” asosidan fe'ldan ot yasovchi *-im* qo'shimchasi bilan yasalgan. “Leksema taraqqiy etib *käd-* > *käδ-* > *käy-* > *kiy-* tarzida o'zgargan. Hozir halach turkchasida ushbu leksema *käd-* shaklida

⁴¹ Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 834.

⁴² Resenen M. Eines Etymologischen Wörterbuchs der... – P. 437.

⁴³ Щербак А.М. Введение в сравнительное изучение тюркских языков. – СПб, 1994. – С. 112.

talaffuz qilinadi va yoziladi”⁴⁴. Hozirgi o‘zbek tilida esa *kiy*-shaklidir. *kādim* “Qutadg‘u bilig”da ham tilga olinib, “oddiy maishiy kiyim” ma’nosida ishlatilgan. Bundan leksemaning ushbu davrdan ma’no kengayishiga uchraganini ko‘rish mumkin. Qolaversa, asarda leksema tarkibidagi *d* fonemasining δ shaklida qo‘llanilgani kuzatiladi: “*äginkä kädim-mä boyuzqa yämi käräk* – Eginga – kiyim, bo‘g‘izga ovqat kerak” (QBH, 104₂₉). Shuningdek, asar matnidan *kädti* // *käđti* – “kiydi”, *kädgüsi* – “kiyimi”, *kädgülik* – “kiyimlik”, *käđüt* – “kiyim, xalat” kabi so‘zlar ham joy olgan. Kul Tegin bitigida *kädimga -liý* qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil bo‘lgan *kädimliý* – “sovutli, zirhli” derivati ishtirok etgan.

Ko‘kturk va Uyg‘ur yozuvlarida *atliý* – “otliq”, “suvoriy” termini mavjud bo‘lib, ushbu istiloh *at* va *-liý* – (asosdan anglashilgan narsaga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimcha)ning qo‘shiluvidan yasalgan. Hozirgi o‘zbek tilida ham *otliq* so‘zi xuddi shunday morfemik tarkibda ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchisi *otliq* – “suvoriy”, ikkinchisi *otlik* < *ot-li* – “otli, oti bor kishi” (O‘TIL, I, 156). Mahmud Koshg‘ariy istilohni *atliý* shaklida keltiradi: *atliý är* – “otliq odam” (DLT, I, 123; 178).

Asosan *sü* (“qo‘shin, askar”) bilan sintagmatik munosabatga kirishib, “piyoda qo‘shin yoki askar” ma’nosini anglatadigan *yaday sü* birikmasini hosil qilgan *yaday* so‘zi asl turkchadir. *kād-* > *käđ-* > *käy-* kabi ko‘pgina turkiy so‘zlarning tarkibida eski turkiy til davriga kelib *d* > δ > *y* yoki *d* > *y* o‘zgaruvi uchrashi ma’lum. *bod* > *boy*; *adaq* > *ađaq* > *ayay*; *adril-* > *ayril-* kabi. Bu jarayonni *yaday* so‘zi ham boshdan kechirgan. *yaday* > *yadāy* > *yayay* > *yayov*. “Qutadg‘u bilig”da *yaday*, *yadayliý* istilohlari qayd etilgan. *yadayliý* aynan “piyoda askar yoki qo‘shin” ma’nosini anglatgan: “*Yorip tägmägü yärkä barma yaday*” (QBH, 109₃₆). “Qisasi Rabg‘uziy” matnida uch o‘rinda *yaday*, uch o‘rinda *yayay* shakli ishlatilgan”⁴⁵: “*yadayin tokušup tälimni tamuyga itdi* – piyodasi bilan urushib, ko‘pini jahnnamga jo‘natdi” (QR, 246, 20); “*yätmiš miñ yayay Musani qavdilar* – yetmish ming piyoda askar Musoni quvdilar” (QR, 115, 8). Leksema boshqirdchada ham *yäyäv*⁴⁶ shaklida ishlatiladi. Ushbu so‘z hozirgi o‘zbek tilida *yayov*, *yaydoq*, *yaydov*, shuningdek, badiiy

⁴⁴ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 267.

⁴⁵ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 247.

⁴⁶ Башкорт теленең һуҙлеге. том I. – М.: Русский язык, 1993 – С. 461.

nutqda *yaydog'* shakllarida saqlangan. 1. *yaydog'* – egar-jabduqsiz, yalang'och (ot); 2. ko'chma ma'noda: yap-yalang'och; hech narsasi yo'q (O'TIL, V, 100). So'zlar oxiridagi tovush o'zgarishlarini o'zbek tilida kuzatiladigan $g' \sim v / w \sim q$ (*tog'* – *tow* – *toq* kabi) tovush o'zgarishi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, "xun davriga tegishli deb qaraladigan *ordu* terminining Xan sulolasi davri (m.a. II asr) xitoy yilnomalarida uchraydigan *vo-lu-to* bilan aloqadorligi haqidagi qarashlar ilk marta Shiratoriy tomonidan o'rtaga tashlangan. T.Tekin istilohning xun davridagi ma'nolarini o'zining "Xunlarning tili" asarida "chegarada kuzatuvchi soqchi", "chegara qorovuli", "xunlarning xitoyliklardan himoyalaniş uchun pistirmaga yotadigan joyi" ma'nosida beradi"⁴⁷. Bu bilan olim ushbu istilohning ildizini xun tili bilan bog'lashga harakat qiladi. *ordu* sof harbiy istiloh o'laroq tarixiy manbalarda dastavval "qo'shin, lashkar", shuningdek, "hukmdor qarorgohi, qal'a, qo'shin qarorgohi, saroy" ma'nolarini ifodalagan. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarga ko'ra ushbu istiloh "qadimgi turkiy tilda "tepaga harakatlanmoq" ma'nosini anglatgan *or-* fe'liga *-(u)t* orttirma qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan shakldan *-i* qo'shimchasi bilan yasalgan (ЭСТЯ, I, 432). Keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan; *t* undoshi *r* undoshining ta'sirida jaranglisiga, so'z oxiridagi *u* unlisi *ä* unlisiga almashgan: (*or- – ut - orit-*) + *u - oriti* > *orti* > *ordi* > *ordä*"⁴⁸. "Mazkur so'z qadimgi turkiy tilda "shahar" ma'nosini anglatuvchi boshqa so'zlardan farqli o'laroq, "poytaxt" mazmunini ham bildirgan"⁴⁹. Hujjatlarda "turk va uyg'ur xoqonlarining yozlik va qishlik qarorgohlari sifatida bilingan"⁵⁰ *ordular* va poytaxt shaharlari A. fon Gaben, K.Segledi, T.Nagrodzka-Maychjik kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan⁵¹.

⁴⁷ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 301.

⁴⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик ... – Б. 486.

⁴⁹ Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б. 126.

⁵⁰ Хатамова М. Турк хоқонлиги шаҳарлари ... – Б. 6.

⁵¹ Gabain A. (von) Köktürklerin Tarihine Kısa Bir Bakış I: Stepte Yaşayan Köktürkler (682–742) // Dil ve Tarih –Coğrafya Fakültesi Dergisi. Cilt II. Sayı 5, 1944. – S. 685-695; He is. Steppe und Stadt in Leben der ältesten Türken // Der Islam. – Bd. 29. – Htt. I. – Berlin, 1950. – S. 30-62; Czegledy H. Çoğay-quzi, Qara-qum, Kök-öng // АОН. №15. 1962. – P. 55-69; Nagrodzka-Majchrzyk T. Geneza miast u dawnych ludow tureckich (VII–XII w.). – Wrocław, 1978.

*Ordu*⁵²ning ma'no kengayishiga uchrab, "qo'shin, lashkar" ma'nolaridan tashqari "hukmdor, xon qarorgohi, qal'a, qo'shin qarorgohi, lashkargoh, saroy" ma'nolarini ifodalashi keyingi davrda juda faollashgan. DLTda *ordu* II – "o'rda, shoh turadigan shahar" (DLT, I, 145), "hukmdor joylashgan yer" ma'nosida izohlangan. Lug'atda "shohlar xizmatidagi kishi" ma'nosida *ordu basī* so'zi tilga olingan (DLT, I, 145). Shuningdek, asarda *o'ziga shahar qurdirdi* ma'nosidagi *ordulandi* (DLT, I, 291) leksemasi va "Qashqarni *Ordukänd deydi*lar, ya'ni shohlar turuvchi shahar demakdir" (DLT, I, 145) qaydlari mavjud. Bu yerda *ordu* so'zining X-XI asrlarda narsa oti emas, oliy hukmdorning harbiy harakatlanishi bilan doimiy bog'liq bo'lgan muayyan joyga nisbatan ham ishlatilganini ko'rish mumkin. Bu davrda (Uyg'ur, Xoqoniya) *ordu (ordo)* leksemasi "qo'shin" ma'nosidan biroz uzoqlashib, "oliy qo'mondonning buyruqlar chiqaradigan va qo'shin ustidan nazorat olib boradigan harbiy qarorgohi" ma'nosida qo'llanila boshlangan. DLTda *orduning* aniq bir jo'g'rofiy hududga ishlatilganligini ham kuzatish mumkin: *ordu* – Balasog'un yaqinidagi bir shahar; shuning uchun Balasog'un quz *ordu* ham deyiladi (DLT, I, 145-5).

Ushbu toponim Yusuf Xos Hojib tomonidan ham tilga olinadi: *Mu täni turuylay qut ordu äli* – (Muallif o'zini nazarda tutmoqda) istiqomat joyi Quz O'rdu eli, asli nasabidan yuritmiş tili" (QBK, 6₁₄). Muqaddam davlatning ma'muriy-harbiy markazi bo'lgan, o'rdu – qo'shin joylashgan, oliy hukmdor qarorgohi bo'lgan shahar (Balasog'un) keyinchalik biroz bo'lsa-da bu maqomi (harbiy qarorgoh)dan ayrilgan bo'lsa ham, lekin nom bu hududga nisbatan qat'iy ishlatiladigan bo'lgan. "Qutadg'u bilig"da *ordu (uč ordu)* boshqa bir o'rinda Turkistondagi bir shahar nomining tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi. "*Nägü tär äšitgil uč ordu xani* – Uch O'rdu xoni nima deydi, eshitgin, elga moslab to'g'ri so'z aytgan kishi" (QBN, 219₃). Alisher Navoiy asarlarida istiloh *ordu* tarzida kelgan bo'lib, "qarorgoh, qo'shin, askar turadigan joy" ma'nosini anglatadi: *Ittifoqo ul kecha bir g'arib tund yel estikim, o'rduning ko'proq oq uy chodirlarni yiqib, ajab oshub el orasig'a soldi* (ANATIL, III, 611). Qadimgi davrlarda "xoqonlar mustahkam poytaxt shahar bilan birga hokimiyat ramzi bo'lmish "Oltin O'rdu"ga ham ega bo'lishgan. *Ordu*

⁵² G'.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar bu so'zni дворецкий deb tarjima qiladi.

o'zida ma'muriy boshqaruv apparati, xazina va qo'shinni ham jamlagan edi. Shuning uchun, dushman oldin "Oltin O'rdu"ni olgan, keyin devor bilan qurshalgan poytaxt shaharni egallashga kirishgan. Bu esa dasht imperiyalarida o'rduning mavqeyi doimiy poytaxt shahardan yuqoriroq turganini bildiradi"⁵³. Ayni zamonda asosan, davlatning oliy qo'mondoni va birinchi rahbari bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridan ayro lavozimlar hisoblansa, qadim va o'rta asrlarda davlatning oliy hukmdori bo'lgan xoqon, xon, shoh, imperator (fag'fur) o'z xalqining rahnamosi sifatida harbiy qo'mondonlikni ham o'z zimmasida ushlagan, to'g'rirog'i bu davr talabi bo'lgan. Shundan kelib chiqib, yuqorida qayd etilganidek, oliy qo'mondon va a'yonlar, eng muhimi, saltanat quvvati bo'lgan qo'shin qaror topgan joy *o'rdu* – qo'shin joylashgan ma'muriy-harbiy istehkom, poytaxt deyilgan, bu o'sha hudud tub aholisi tomonidan ham shunday nomlangan. Keyinchalik bu joy ushbu maqomidan ayrilgan bo'lsa-da, *ordu* – *orda* – *o'rda* nomi bilan ataladigan bo'lgan, *Balasog'un* (DLT, I, 145-5) kabi. Keyingi davrlardan boshlab *o'rdu* davlatning poytaxti ma'nosida qo'llanila boshlangan, *O'rdu baliq* kabi. Lekin ayrim hujjatlarga ko'ra, keyingi davrlarda *ordu* istilohi anglatgan hududning yanada kichrayib, faqat xon saroyini anglatishi kuzatiladi. Jumladan, "Qutadg'u bilig"da *ordu* bir necha o'rinda saroy ma'nosida keladi: "*Kälip tägdi älig turur orduya* – U hukmdor joylashgan saroyga kelib tushdi" (QBH, 27₂₀); "*Tälim ordular buzdi küčkäj küčin* – Ko'plab saroylar zulmkorlar zulmi tufayli vayron bo'ldi" (QBN, 155₁₃; QBN, 2001). XVII asrga tegishli hujjatlarda *o'rda* saroy ma'nosida qo'llanilgan: "... *taqi kelib Arslonxonning o'rdasin va beklarning evlarin chopti*"⁵⁴. Boburiylar davrida "shohlarning Dehlidagi saroyi *urdu-i-mu'alla*, bu yerdagi ishlatiladigan til *zaban-i-urdu* deb atalgan"⁵⁵. *Ordu* istilohi "Boburnoma"da ham faol tilga olingan: "*o'rdu girdini tamom shox, xandaq bila ehtimom va ehtiyot qilib mazbut qilduk*"⁵⁶. Ushbu parchada *o'rdu* istilohi "harbiy istehkom" ma'nolarida ishlatilgan. Shuningdek, asarda "*Bu yurtta ekanda Samarqanddin shahriy va bozoriy ul miqlor chiqib edikim,*

⁵³ Хатамова М. Турк хоқонлиги шаҳарлари ... – Б. 13.

⁵⁴ Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи Тарокима. Нашрга тайёрловчи: Қозоқбой Маҳмудов. – Т.: 1995. – Б. 22.

⁵⁵ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 301.

⁵⁶ Заҳрирiddин Муҳаммад Бобур. Бобирнома... – Б. 144.

*o'rd*u shahri bo'lub edi. Harne shahrlarda tilasalar, *o'rd*uda topilur edi"⁵⁷ jumlasini ham mavjudki, bu o'rinda leksemaning "bozor, savdosotiq joyi" ma'nosida ham ishlatilganini ko'rish mumkin. Dastlab, "qo'shin" ma'nosida ishlatilgan ushbu leksema keyinchalik Boburiylar sulolasi davrida Hindistondagi musulmon aholi so'zlashadigan jonli tilni anglata boshlagan.

Ordu istilohi xunlardan to o'rta asrlargacha turkiy davlatlarning deyarli barchasida hokimiyatning muhim instituti sifatida bilingan. Xullas, *ordu* termini "hokimiyat markazi, hukmdor – xoqon o'tiradigan maxsus joy, qarorgoh; qo'shin" ma'nolarini anglatgan. Ayrim turkiy tillarda hali ham iste'molda bo'lgan *ordu* harbiy termini ayni davrda muayyan bir xalq, ma'muriy birlikni muhofaza etuvchi tashkiliy tuzilma ma'nosida ishlatiladi. Keyingi davrlarda istilohning "askar, qo'shin" ma'nosida qo'llanishi, asosan o'g'uz tillarida saqlanib qoldi. O'TILda ushbu termin *o'rda* va *o'rd*u shakllarida ilk va o'rta asrlardagi ma'nolaridan uzoqlashmagan holda izohlangan: *o'rda* – 1. turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal'a (Qo'qon xoni o'rdasi); 2. qo'shin qarorgohi, lashkargoh; *o'rd*u – qo'shin, lashkar: *o'rdugoh* – qo'shin qo'nadigan yoki turadigan joy, lager (O'TIL, V, 163). Bu leksemalar O'TILda aks etsa-da, jonli so'zlashuv tilida deyarli muomalada emas. Asosan badiiy-tarixiy asarlarda ishlatiladi. Bu so'zlarning faol ishlatilishi XIX-XX asrlargacha, xonliklar siyosiy hayotining tugashi bilan yakunlangan.

Bitiglarda "jangchi, askar" ma'nosida qo'llangan *yayichi* terminining funksional-semantik jihatlari e'tiborga molik. *yayichi* istilohi hozirgi o'zbek tilida mavjud emas, ammo bu so'z zaminida shakllangan *yovchi* leksemasi mavjud, biroq ushbu so'z tamoman boshqa ma'no *sovchi* ma'nosidadir. *sovchi* O'TILda "uylanuvchi yigit tomonidan biror xonadonning voyaga yetgan qizini ko'rish va uni kelin qilib berishga qiz tomon roziligini so'rash uchun vakil qilingan kishi" sifatida izohlangan (O'TIL, III, 542). Lekin ayrim turkiy xalqlar (asosan qipchoqlarda)da kuyov bo'lajak yigit va uning o'rtoqlari tomonidan "bostirib" kelib, kutilmaganda kelin bo'lajak qizning olib qochish urf-odatini borligini hisobga olsak, *yovchi* so'zini sovchilarga nisbatan ishlatilish sababi anglashiladi. *yovchi* leksemasining

⁵⁷ O'sha asar. – B. 99.

bunday ma'nosi o'zbek tilining qipchoq shevalarida faol. Aytish lozimki, *sovchi* tarixan) *sabči* (*sab* – *xabar*, *so'z*) > *sawči* shaklida taraqqiy etib, ushbu so'zning etimologik ma'nosi "Devonu lug'otit-turk"da aks etgan (DLT, III, 445-23).

"Yov, dushman" ma'noli *yayı* istilohi uyg'ur, Yenisey va Oltoy bitiglarida uchraydi: "*tānri bulgakın üçün yayı boltı* – Tangri istagani uchun dushman bo'ldi" (KT, 4). Istiloh hozirgi o'zbek tilida "dushman" ma'nosidagi *yog'iy* (O'TIL, II, 58) va "dushman, raqib" ma'nosidagi *yov* (O'TIL, II, 22) shakllarida saqlangan. Ko'rinadiki, har ikki leksemaning semalari mushtarak. Bu ikki so'z tarixan bir leksemaning ikki varianti hisoblanadi. Jumladan, "*yāv* so'zida bo'lgani kabi ikkinchi bo'g'inlardagi *-agi* (*ag'i*) yoki *-agu* (*ag'u*) > *-av* o'zgarishi turkiy tillar, xususan, o'zbek tilida tez-tez uchraydi: *birägü* > *biräv* > *biräv*; *küdägü* > *küyäv* > *kyyäv*; *kiragi* > *kirav* > *kirov* kabi"⁵⁸. *yayı* so'zida ham xuddi shu jarayon kuzatilgan. Hozirgi o'zbek tilida *yov* so'ziga aloqador *yovgarchilik* (jang, urush holati; dushmanlik, o'zaro adovatda bo'lishlik), *yov-yov* (yov hujumi, urush), *yovlamoq* (hujum qilmoq), *yovlik* (yovgarchilik; o'taketgan yirtqich; dushman), *yov-yaroq* (qurol-aslaha), *yovqur* (jasur), *yovqurlik* (botirlik), *yovchi* (*yog'chi*) (*ko'ch. ma'n. sovchi*) leksemalar mavjud (O'TIL, II, 22-24).

Bitiglarda "jangchi" ma'nosida tilga olingan *uruñu* so'zining asl shakli *urun gu* shaklida bo'lib, keyinchalik konvergensiya uchragan. Bunda so'z *ur-* – "urmoq" fe'lidan shakllangan bo'lishi mumkin. Biroq bu so'z eski turkiy yozuvlarda "urmoq" emas, "yozmoq, tosh o'ymoq" ma'nosida ishlatilgan. A.Gaben unvonning *urun-* fe'lidan *-gu* qo'shimchasi bilan yasalganligini ta'kidlab, "jangchi" ma'nosini anglatishini yozadi⁵⁹. J.Kloson ushbu so'zga "bayroq" ma'nosini berib, *urun-* "o'rnatilgan narsa" fe'lidan yasalgan bo'lishi mumkinligini aytadi⁶⁰. DTCga ko'ra, ikki *uruñu* omonimiyasi farqlanib, "bayroq" va harbiy unvon ma'nolarida izohlanadi (DTC, 653). Bundan kelib chiqib, bitigtoshlardagi *uruñuni* "bayroqdor (jangchi)" ma'nosida tushunish to'g'riroq bo'ladi. H.Orhun so'zni qadimgi turkcha harbiy unvonlar qatoriga kiritadi⁶¹. Istiloh quyidagi

⁵⁸ Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki ... – S. 267.

⁵⁹ Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri... – S. 305.

⁶⁰ Clauson G. An Etymological Dictionary – P. 236.

⁶¹ Orhun H. N. Eski Türk Yazıtları. – Ankara: TTK, 1986. – S. 616.

parchada tilga olingan: “*Uruņu: yūz: baši: Uluγ Uruņu* – jangchisi, Ulug‘ yuzboshi sarkardasi” (Tar, 7).

Qadimgi turk bitigtoshlarida harbiy istehkomlar bilan aloqador terminlardan biri bo‘lgan “*qarayunni V.Tomsen qarayin* shaklida o‘qib, *qaray* (talonchilik), *-i* (egalik qo‘shimchasi), *-n* (tushum kelishigi qo‘shimchasi) shaklida morfemalarga ajratgan. V.Radlov va P.Melioranskiy *quryan* (qo‘rg‘on), S.Malov *qarayin* shaklida o‘qigan, lekin S.Malov *qaray* (zo‘r) asos, *-in* vosita kelishigi shaklida tahlil qilgan”⁶². *qaryuy* so‘zi DTCda “ishora qal‘asi” (DTC, 450), R.Dankofda esa “yong‘in qal‘asi”⁶³ ma‘nolarida izohlangan. Hozirgi o‘zbek tilida ushbu so‘zga ma‘no jihatdan yaqin *qaroqchi* – “yo‘lto‘sar” va *qarog‘* – “qorachiq” leksemalari mavjud. Qolaversa, o‘zbek tilida faol qo‘llaniladigan *qo‘rg‘on* leksemasining kelib chiqishi ham *qaryu* bilan bog‘liq. O‘zbekistonning ko‘pgina toponimlarida saqlanib qolgan ushbu so‘z O‘TILda “1. o‘rta asrlarda qalin va mudofaa devori bilan o‘rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar-qal‘a”; “2. qal‘a, shahar, qo‘rg‘on va shu kabilarni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor” ma‘nolarida izohlangan (O‘TIL, V, 416-417). *qo‘rg‘on* va *qarg‘u* leksemalarini shakliy o‘xshashlik bilan birga “mudofaa inshooti” mushtarak semasi birlashtirib turibdi. Aytib o‘tish kerakki, ushbu istilohning etimologiyasi xususida *qur-* fe‘lidan qadimgi turkchada harakat fe‘lidan ot yasovchi *-yan* (*-yun*) qo‘shimchasi (DTC, 692) orqali yasalgan degan fikr ham bildirilgan, ya‘ni “qurilgan inshoot” ma‘nosida⁶⁴. Bizningcha, ushbu istiloh qadimgi turkiy tilda ham faol bo‘lgan “ko‘rmoq” ma‘nosidagi *qara-* fe‘lidan qadimgi turkchada narsa, o‘rin-joy oti yasovchi *-yu* qo‘shimchasi (DTC, 693) orqali yasalgan, ya‘ni “qarash, kuzatuv joyi” ma‘nosida.

Bitigtoshlarda “qo‘shin, lashkar” ma‘nolarida tilga olingan *čäriγ* istilohi haqida dastlabki fikrlarni ilgari surgan M.Ryasenen so‘zning o‘zagini hozirgi turkiy tillardan misollar keltirish orqali ochib berishga harakat qilgan. Olim so‘zning asosini hozirgi bir qancha turkiy lahjalarda ham mavjud bo‘lgan “jang qilmoq” ma‘nosidagi *čär* asosiga bog‘laydi⁶⁵. G.Dyorferning “Hozirgi forschadagi turkcha va

⁶² Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил.... – Б. 130.

⁶³ Dankoff R. (with James Kelly) Mahmud al-Kashgari... – P. 130.

⁶⁴ Bu uchun qarang: Сафаров Р.Т. Военная лексика ... – С. 43.

⁶⁵ Räsänen M. Versuch Eines etymologischen ... – S. 106.

mo'g'ulcha o'zlashmalar so'zligi"da ushbu istiloh "zaxiradagi qo'shin, mirshab" ma'nolarida izohlangan va u S.Malov tomonidan *čäriq*ning qadimiy hind tiliga bog'lanishiga qo'shilmaydi⁶⁶. M.Nalbant *čäriq* ning genezisini qadimgi turk tilidagi *tar-/tir-, čär-/čiz-/cür-, yar-/yür-*⁶⁷ – "chizmoq, bir qator qilib tizmoq" fe'llari bilan bog'laydi va istilohni proto turkcha *čär-/čiz-* bilan aloqador shaklda izohlashga harakat qiladi. Haqiqatdan ham, ushbu qarash nisbatan asosli bo'lishi mumkin. Chunki hozirgi bir qancha turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida ham umumiy bir so'zning taraqqiy etgan hosilalari bo'lmish *ter-, tiz-, chiz-* fe'llari bor, ular umumiy ma'noda "kimsa yoki narsalarni birin-ketin yonma-yon qilib termoq, qatorlashtirmoq, saflamoq" ma'nosidadir (O'TIL, IV, 75, 85). *t~ch, r~z, y~ch, t~y (j)* fonetik o'zgarishi ko'pgina turkiy tillar, xususan, o'zbek tili uchun ham xos. Jumladan, bu o'zgarishni *xachir > xatir, ko'r > ko'z, yolchi > cholchi, yo'q > jo'q, tirtiq > yirtiq* so'zlarida kuzatish mumkin. Demak, *čäriq* termini qadimgi turkiy tilda "termoq" ma'nosini anglatgan va *ter*ning ibtidoiy shakli bo'lgan *čär-* fe'lidan hosil bo'lgan va "cherilgan, terilgan (askarlar)" ma'nolarini anglatgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Qolaversa, "Devonu lug'otit-turk"da *čärik* (o'g'uzchaga ko'ra) "askar, urush safi" (DLT, I, 144-29) va "biror narsaning qarama-qarshi tomoni" (DLT, I, 369) sifatida izohlanadi. "Bu yerda *čärik* urushayotgan ikki tomonning nomidir, chunki ular jangda qarama-qarshi turadi". Lug'atda *čärgäšdi* – "saf tortishdi" (DLT, II, 243) va *čärlik(dä)* – "ro'para(sida)" (DLT, I, 312) leksemalari mavjud bo'lib, ushbu so'zlar ma'no hamda vazifa jihatidan *čärik* istilohi bilan aloqadordir va bu so'zlar (*čärik, čärlik, čärgäšdi*)ning umumiy *čär* o'zagidan shakllanganini sezish qiyin emas. Qo'miq tilida ham *cher* va *cheriv* leksemalari mavjud bo'lib, *cher* – "juft", *cheriv* – "qo'shin, lashkar" ma'nolarini ifodalaydi.

Ba'zi olimlar *čäriq* istilohining kelib chiqishini sanskritcha *ksatrika* "qo'shin, lashkar" so'ziga bog'lashadi. Ushbu qarash bir qadar asosli bo'lishi mumkin, chunki qadimgi turkiy tilda sanskritcha *maqarač (maxaroja), išbärä ((i)shivara)* kabi istilohlar

⁶⁶ Doerfer G. Türkische und Mongolische ... – P. 65-70.

⁶⁷ Mehmet Vefa N. çerig / çeri sözcüğünün kökeni ve kök ailesi. Pamukkale Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, 2008 – S. 109-116.

faol iste'molda bo'lgan. Lekin, bizningcha, *čärig* istilohining ildizlarini turkiy til bilan bog'lash to'g'riroqdir.

O'rxun-Yenisey bitigtoshlarida eng faol qo'llangan terminlardan biri bo'lgan *ayyuči* istilohining o'zagi bo'lmish "ay- so'zining ma'nosi eski uyg'urcha lug'atlarda "buyurmoq, jazolamoq, tushuntirmoq, gapirmoq, so'zlamoq, bashorat qilmoq" kabi ma'nolarda keladi"⁶⁸. Ushbu so'z hozirgi o'zbek tilida *aytguvchi* yoki *aytuvchi* shaklida yashamoqda. So'zning o'zagi bo'lgan *ayt-*, tarixan *ay-i-d* > *ay-i-t* > *ayt-* holatida⁶⁹, qo'shimcha esa *-yuči* > *-yüvči* > *-güvči* > *-uvči* shaklida rivojlangan. "Xoqonlikda hukmdor va amaldorlarni o'z shaxsiy ismi bilan emas, epitet hamda unvonlari bilan chaqirish rasm bo'lgan va bu holat turli tillarda o'z aksini topmasdan qolmagan. Nainki, xoqonlik, balki undan keyin mavjud bo'lgan o'nlab turkiy davlat uyushmalari tarixiga aloqador turli tillardagi manbalarda hukmdor va amaldorlar o'z shaxsiy ismi bilan emas, asosan, unvon va epitetlari bilan qayd etilgani ko'zga tashlanadi"⁷⁰.

Bitiglardagi "qabila yoki urug' sardori" ma'nosida anglashilgan *bäg* unvoni F.Althemga ko'ra "asl turkcha bo'lib, tarixiy manbalarda ilk marta Osiyo Xun hukmdori Mo-tun (m.a. 209-174)ning ismidagi qo'llangan: *Mo-tun* ~ *Bixtun* ~ *Biktun* ~ *Bägtun* shaklida"⁷¹. Istiloh fonetik va semantik o'zgarishlar bilan bugungi kungacha saqlanib qolgan: *bäg*, *bäk*, *bäy*, *bi(y)*, *bäh* kabi. "Turkiy tillarning etimologik lug'ati"da ushbu istilohlarning eng qadimgi shakllari sifatida *bäg*, *bäk*, *bäy* ko'rsatiladi (ЭСТЯ, 97-99). Ushbu leksema ko'kturk va eski uyg'urchada *bäg*, boshqirdchada *bey*, xazarchada *beh*, *peh*, qozoq-qirg'izchada *bi*, *pi*; o'zbekchada *beg*, *bek*, *biy*, *beh*, turkmanchada *big*, *beg*, turkchada *bey*, *beg*, *bek* shakllarida uchraydi. O'TILda *bek* "turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlari, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo'lgan shaxs" (O'TIL, I, 231) sifatida izohlangan. Shu o'rinda *bek* so'zining birinchi ma'nosidan yasalgan *beklarbegi* so'ziga to'xtalib o'tish joiz. *beklarbegi* – xonliklar davrida yuqori ma'muriy unvon va lavozim; viloyat va katta shaharlarning hokimi hisoblangan. "Beklar-begining

⁶⁸ Röhrborn K. Uigurisches Wörterbuch, Sprachmaterial der ... – S. 286.

⁶⁹ Tolkun S. Eski Türkçedeki -d- Pekiştirme Ekinin Özbekçe ve Türkiye Türkçesindeki izleri. İlmî Araştırmalar, 23, 2007. – S.135.

⁷⁰ Бобоёров. Ф. Фарбий Турк хоқонлиги... – Б. 174.

⁷¹ Altheim F. Geschichte der Hunnen... – P. 105.

asosiy vazifasi soliq va boshqa majburiyatlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, hukmdor farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni hal etishdan iborat edi" (O'TIL, I, 216). Ko'rish mumkinki, *beklarbegi* unvoni *beg* unvoniga nisbatan mavqe jihatdan yuqori turgan. Shuningdek, *beg / bek* so'zi erkaklar ismining tarkibiy qismi va (1-shaxs *egalik shaklida*) o'z begi yoki xo'jayiniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatiladigan so'z sifatida saqlangan.

Bitigtoshlarda *buyruq* shaklida uchraydigan unvonning qadimgi turkcha *buyur-* "buyurmoq, amr qilmoq" fe'lidan yasalganini sezish qiyin emas. Buni tarixiy turkiy til tadqiqiga bag'ishlangan so'zliklar ham dalillaydi. Ushbu asos (*buyur-*) "Devonu lug'otit-turk" da mavjud (DLT, I, 316), lekin qadimgi bitigtoshlardan tashqari ushbu asar (DLT) yaratilgan davrgacha bo'lgan boshqa manbalarda ko'zga tashlanmaydi. Shuningdek, J.Klason bu istiloh *buyur-* dan kelib chiqqanligi va hujjat ustida ish olib boradigan yuqori darajadagi fuqarolik va harbiy ofitserlar uchun ishlatilishini yozadi⁷². O'TILda *buyruq* so'zi hukmdorlar tomonidan hokimlarning talablarini ommaga yetkazuvchi va bugungi kunda tashkilotlar hamda kompaniyalar tomonidan berilgan rasmiy hujjat sifatida qayd etilgan (O'TIL, I, 366). Hozirgi o'zbek tilida ham *buyur-* fe'li *buyruq* otining yasaliş asosi sifatida faol ishlatiladi va ikki leksema ham asos hamda yasalma sifatida bir-biri bilan ma'no bog'liqligini yo'qotmagan.

yolluy istilohi *yol* - "yo'l" so'zi va otdan ot yasovchi *-luy* affiksining qo'shiluvidan yasalgan. *yo'l* so'zi eski turkchada "*omad, tole'* tushunchalariga monand *yaxshi yo'l, to'g'ri yo'l* (oq *yo'l* kabi) tarzda metafora qilinganligi sababli *yolluy* ham *ezgu yo'lli, yo'li porloq, ya'ni omadli, baxtli* kabi ma'nolarga ega bo'lgan o'ziga xos nom sifatida ishlatilgan. Jumladan, tuva tilida *yo'l* so'zining asl ma'nosi unutilib, *chol* shaklida "baxt, omad, tole'" ma'nolarida qo'llanilib, eski turkcha *yolluy* tuvachada *choldug* - "baxtiyor, xursand" shaklida aniqlangan"⁷³. *Yo'l* so'zi hozirda turkiy tillarda eski turkcha matnlardagi va boshqa ma'nolarda keng qo'llaniladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi "oq *yo'l, yo'li ochiq, yo'li porloq, yo'lingizni bersin*" kabi iboralar bevosita *omad, baxt, tole'*

⁷² Clauson G. An Etymological Dictionary ... - P. 387.

⁷³ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... - S. 144.

tushunchalari bilan aloqadordir. Mahmud Koshg'ariy *yol* so'zini "yo'l" (DLT, I, 426) va "safar" (DLT, I, 87) deb izohlaydi. O'zbek tilida *yol* – *yo'l* so'zi "yo'li bor, yo'l tushirilgan; o'rinli, jo'yali" ma'nolarda qo'llanadi (O'TIL, II, 280).

Qadimgi turk qo'shinida vazifador shaxs, boshliqlardan birini ifodalagan *čabiš*ning genezisi diqqatga sazovordir. Jumladan, "*Bilgäsi čabiši bänäk ärtim*"(To'n, 7) jumlasidagi "*čabiš* istilohi S.Malov va G.Aydarovlar tomonidan *čab-äs-i* (dong eshi, yo'ldoshi) shaklida o'qilgan"⁷⁴. P.Pelliot xitoy tilida yozilgan matnlarda *čavuš* so'ziga o'xshash ba'zi nomlar topilganini qayd etib, VIII asrda turklar tomonidan elchi sifatida yuborilgan shaxsning xitoy manbalarida *Cho-pi-še* unvoniga egaligi va bu *chovush*ning eng qadimgi shakli ekanligini ta'kidlaydi⁷⁵. "*čabiš* istilohi vaqt o'tishi bilan *čabiš* > *čaviš* > *čavuš*ga aylandi"⁷⁶. Istiloh etimologiyasi bo'yicha bildirilgan yana bir fikrga ko'ra, *čabiš* asli "bermoq, urmoq" ma'nosini anglatuvchi turkcha *čap*- "chopmoq" fe'lidan kelib chiqqan va ushbu fe'lga *-(i)š* qo'shimchasini qo'shish orqali shakllangan. J.Klason ham *čabiš* so'zini turkcha *čap*- "chopmoq" fe'lidan kelib chiqqanligini aytadi va ushbu fe'lni "shoshilinch jo'namoq, yugurmoq" ma'nolarida izohlaydi⁷⁷.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqilganda istilohning sof turkcha ekanligi yanada oydinlashadi. Binobarin, *čabiš*ning bitiglardagi ma'nosiga e'tibor berilsa, ushbu unvon egasining urush vaqtida markaziy qo'mondonlik va bo'linma, harbiy qismlar o'rtasidagi xabar-pochta vazifasini o'z zimmasiga olganligi ko'zga tashlanadi. Buning uchun *čabiš* unga berilgan vazifani, albatta, (otda) yugurib (chopib) bajarishi kerak. Bularni hisobga olsak, *čabiš* istilohining hozirgi o'zbek tilida ham mavjud bo'lgan "yugurish" ma'nosini anglatuvchi "chopmoq" ("chopish") fe'lining o'zagi - *chopdan* kelib chiqqanligi ayon bo'ladi. Qolaversa, ushbu unvondorda o'ta epchillik, zukkolik, hushyorlik kabi sifatlar bo'lishi talab etiladi. Bitigtoshlardagi To'nyuquq tilidan aytilgan "*Bilgäsi čabiši bänäk ärtim*" (To'n, 7) jumlasidagi *čabiši* so'zini "zakiysi,

⁷⁴ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил... – Б. 72.

⁷⁵ Pelliot P. Neuf notes sur des questions d'Asie centrale, T'oung Pao, Second Series, Vol.26, No.4-5, 1929. – P. 237.

⁷⁶ Solmaz S. Çavuş Unvaninin Kökeni, Anlamları Ve Türkiye Selçukluları Döneminde Kullanımı. // Sutad Bahar, 2018. – S. 423-436.

⁷⁷ Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 394.

hushyori, yelib-yuguradigani” ma’nosida tushunish to’g’riroq bo’ladi.

chopmoq leksemasi bir qancha turkiy tillarda qadimgi turkiy tildagi ma’nosida saqlangan. Jumladan, uyg’ur tilida “yugurish”⁷⁸, turkman tilida “yugurish”⁷⁹, ozarbayjon tilida “yugurish, tez haydash, tez yugurish”⁸⁰, qrim-tatar tilida “chopish, yugurish”⁸¹, qorachoy-bolqor tilida “yugurish, hujum qilish”⁸², o’zbek tilida “chopish, yugurish” ma’nolarida aks etgan. Ko’rinib turibdiki, *chovush* so’zining kelib chiqishiga asos bo’lgan *chop-* fe’li deyarli barcha turkiy tillar va lahjalarida mushtarak ravishda “yugurmoq, chopmoq”ni anglatadi. Ushbu istiloh hozirgi davrda faqat turk va ozarbayjon tillarida saqlangan bo’lib, “serjant” ma’nosida ishlatiladi.

Bitigtoshlarda “elni, davlatni tutib turuvchi” ma’nosida qo’llangan *ältäbärning* xitoycha matnlardagi *Či-li-fa* va *Hsih-lifa* bilan ham fonetik ham tarixiylik jihatidan bog’liqligi aytiladi⁸³. J.Hemiltonga ko’ra, ushbu leksema *äl* “davlat” va *täbär* so’zlarining birlashuvidan hosil bo’lib, *täbär* komponenti *täb* (*top-*) “topmoq, sohiblanmoq” fe’lidan shakllangan hamda “davlat yoki qavm yo’lboshchisi” ma’nosini anglatadi⁸⁴.

qan istilohining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo’lsak, A.Donuk *xon* terminini ba’zi bir tadqiqotchilar tomonidan “koreys tilidagi *kvan* (*van* – koreyscha hukmdor, qirol) va xitoy tilidagi *kuan* so’zlari bilan bog’lanishiga qo’shilmaydi hamda unvonning turkcha asosli ekanligini ilgari suradi⁸⁵. “Xunlar davrida Attila xotining ismi *Arikan* (Arig’xon) bo’lgan va “toza, olijanob malika” ma’nosini anglatgan”⁸⁶. K.Yildirim *xon* so’zini juan-juanlarga oid hujjatlarda ikki o’rinda uchrashini aytadi: Uning fikricha, V asr boshlarida juan-juan hukmdorining yetakchi shaxslaridan biri sifatida hokimiyat uchun kurashgan *Xe-to-Xon* ismli kishi tilga olinadi va, shuningdek, juan-juan aslzodasining ismi *Xe-to-Xon* shaklida talaffuz etilganligi

⁷⁸ Necipoviç E. Yeni Uygur Türkçesi Sözlüğü, çev. İklil Kurban, – Ankara: Türk Dil Kurumu Yay, 2008. – S. 71.

⁷⁹ Tekin T. Türkmence – Türkçe Sözlük. – Ankara: Simurg Yay, 1995. – S. 110.

⁸⁰ Altaylı S. Azərbaycan Türkçesi Sözlüğü, C. I, – İstanbul: Millî Eğitim Bakanlığı Yay, 1994. – S. 192.

⁸¹ Savran H. Kırım Tatar Türkçesi Dil Özellikleri Metinler Sözlük – İstanbul: Asi Kitap, 2009. – S. 223.

⁸² Tavkul U. Karaçay-Malkar Türkçesi Sözlüğü.– Ankara: Türk Dil Kurumu Yay, 2000. – S. 164-165.

⁸³ Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 21.

⁸⁴ Hamilton J.R. Toquz-Oguz et on-Uygur, JA, Tom 250, – Paris, 1962. – S. 23-63.

⁸⁵ Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... S. 27-28.

⁸⁶ Rasonyi L. Tarihte Türklük, – Ankara. 1971. – S. 73.

va bu *xoqon*ning o'rniga ishlatilganligini aytadi⁸⁷. Aytish lozimki, oltoy tillariga mansub deb qaraladigan koreys tilining ilk bosqichlarida “xalq; davlat; egalik” ma'nolarida *xan* istilohi qo'llangan. Jumladan, Koreya yarimorolida milodgacha bo'lgan davrda uch *xanlik*: *Moxan*, *Pxoxan*, *Čxoxan* xanliklari mavjud bo'lgan. Qolaversa, hozirgi koreys tilida ham “davlat; el” ma'nosida *xan* (*han*) leksemasi qo'llanadi. O'zbek tilida *xon* so'zining ma'nosi “turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni”, “xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo'shilib, unvon ifodalashi (Xudoyorxon, Bahodirxon)” va “erkak va ayollar ismiga qo'shilib, hurmatni ifodalashi (Oqilaxon, Karimaxon)” ta'kidlangan (O'TIL, III, 410).

Qadimgi turk siyosiy-ijtimoiy tuzumiga ko'ra, eng oliy unvon *qayandir*. Dastavval turkiylarning qadim ajdodi bo'lmish xunlar o'z xoqonini *Tänri Qut* unvoni bilan ulug'lagani haqida ma'lumotlar mavjud. *Tänri Qut* birikmasining ma'nosi “Ko'k yoki Tangridan qut – iqbol, tole', davlat (kabi) bo'lgan” yoki “davlatli va baxt-saodatli”dir. Buni bitiglardagi “*Tangridek Tangridan bo'lmish Turk Bilga Xoqon*” mazmunidagi jumalarda ham ko'rish mumkin. Manbalarga ko'ra, “birinchi marta Xun hukmdori Mete Xon “Ko'k tomonidan taxtga chiqarilgan Xunlarning buyuk xoqoni” unvoni bilan atalgan. Bu istiloh Metening miloddan avvalgi 176-yilda Xitoy imperatoriga yo'llagan maktubida tilga olinadi”⁸⁸. Keyinchalik ushbu an'ana ko'k turklar va boshqa turkiy davlatlar tomonidan davom ettirildi. Ba'zi tadqiqotchilarga ko'ra, “xitoy solnomalarida *K'o-han* deya transkripsiya qilinadigan *qayan* termini turkcha emas va kelib chiqishiga ko'ra o'zaro boshqa-boshqa leksemalardir”⁸⁹. K.Shiratoriy *qayan* va *qatun* terminlarini o'rgangan ishida *qayan* terminini ilk marta juan-juan – avarlarda qo'llanilganligini aytadi⁹⁰. Bunga qarshi G.Ramstedt istilohning xitoy, V.Bang esa sug'd manbalarida qo'llanilganligini ta'kidlaydi. F.Laszlo va Liu Siyen, P.Pelliot,

⁸⁷ Yıldırım K. Bozkırın Yitik Çocukları ... – S. 79-80.

⁸⁸ Bahaeddin Ö. Şine-ısu Yazıtının Tarihi ... – S. 68-69, 439.

⁸⁹ Shiratori K. Kaghan Unvanının Menşei. Belleten, IX, çev. İ. Gökbakan, – Ankara, 1945. – S. 499-504; Rasonyi L. Tarihte Türklük, 2. Baskı, – Ankara, 1988. – S. 60; B. Ögel, Türk Kültürünün Gelişme Çağları, 3. Baskı, – İstanbul, 1988. – S. 578; Caferoğlu A. Tukyü ve Uygurlarda Han Unvanları... – S. 106; Boodberg P.A. The Language of the To-pa Wei. Harvard Journal Asiatic Studies, I, 1936. – P. 171; Olbricht P. Uchida's Prolegomena zu einer Geschichte der Jou-jan. Ural-Altäische Jahrbücher, XXVI, – Wiesbaden, 1954. – S. 96-97; Bahaeddin Ö. Doğu Göktürkleri Hakkında Notlar, Belleten XXI – Ankara, 1957. – S.130.

⁹⁰ Shiratory K. Kaghan Unvanının Menşei... – S. 504.

V.Bartold va P.Olbrixt esa K.Shiratoriyga hamfikir ravishda ushbu unvon juan-juanlardan turklarga kirib kelganligini qayd etadi⁹¹. Ayrim tadqiqotchilarga ko'ra, *qan* unvoni *qayan* bilan aloqadordir: *qayan* > *qa'an* > *qan*⁹². Eng muhimi, hukmdorni anglatgan ushbu istiloh xoqonlik boshqaruvidagi eng oliy va ilohiylashtirilgan ma'mur sifatida qadimgi turkiy tilning faol leksemalari qatoridan joy oldi.

S.Go'mechga ko'ra *bäg* leksemasi bilan aloqalantirilgan *baya* unvoni qabilalarning lashkarboshilariga nisbatan ishlatilgan. Ba'zi o'rinlarda *baya* elchilar doirasida ham qo'llanilib, X asrda Xitoyga yuborilgan Turfan Uyg'ur davlati elchisining nomida ko'zga tashlanadi⁹³. Qolaversa, "unvon Avar va Bulg'or xonliklarida *bagan* – *bag'an* shaklida qo'llanilgan"⁹⁴. Keyingi davr turkiy hujjatlardagi *baya* so'zining o'zga tillardagi o'zakdan hosil bo'lganligi haqida qarashlar ham mavjud. Hozirgi halxada mo'g'ulchasida "kichik" ma'nosidagi *baga* (*bag'a*) leksemasi qadimgi sanskrit tilida *paka* (*pag'a*) ko'rinishida mavjud bo'lib, "hayvonning kichigi, hayvon bolasi" ma'nosini ifodalagan⁹⁵. K.Menges *bayaning* etimologiyasini, shuningdek, *šad* va *bäg* bilan birgalikda eroniy tillarga bog'laydi⁹⁶. S.Tezjan esa *kurbag'a* (*qurbaqa*) va *kaplumbag'a* (*toshbaqa*) so'zlaridagi *bag'a*ga ishora qiladi⁹⁷. Ba'zi tadqiqotchilar ushbu qarash haqiqatga yaqinroqligini ta'kidlab, o'z fikrlarini quyidagicha asoslaydilar: butun sharqiy Osiyo xalqlari kabi qadimgi turklar uchun ham toshbaqa o'ziga xos totemistik timsolni bildirgan. Buni qadimgi turklar qabrlaridagi balbalosti va asosiy vertikal ustunlar ostidagi toshlarga ishlangan toshbaqa shakllarida kuzatish mumkin. Ushbu hayvonning xitoy va koreys tarixiy sulolalari hukmdorlarining asosiy ramzlaridan biri vazifasini bajarishi (deyarli barcha sulolalarning davlat muhri baqa shaklida bo'lgan) shimoliy sulolalarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Lekin bizningcha, *bayaning* *bäg* leksemasi bilan aloqador ekanligi haqiqatga yaqinroq.

⁹¹ Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 25.

⁹² Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü, – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2007. – S. 403.

⁹³ Hamilton J. Tokuz-Oğuz ve On-Uygur, Türk Dilleri Araştırmaları, 7. 1997. – S. 187-232.

⁹⁴ Moravcsik. Byzantinoturcica, II, – Berlin, 1958. – S. 83, 239.

⁹⁵ Mehmet Ö. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Öğeler. Türk Dilleri Araştırmaları, 7. 1997. – S. 176.

⁹⁶ Menges K. The Turkic Languages and ... – S. 168.

⁹⁷ Tezcan S. Eski Türkçe Buyla ve Baga Sanları, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı-Belleten, – Ankara, 1978. – S. 53-54.

Tadqiqotlarda *ärk* soʻzi juan-juanlarda bir necha marta tilga olinishi va soliq taqdim qilish uchun Tabgʻachga yuborilgan *Vey-pi-chiang*ning unvoni ekanligi aytiladi va baʼzilar shunga asoslanib, *ärkin* soʻzini elchilik bilan aloqador xususiyatiga ega soʻz deb hisoblaydilar⁹⁸. Lekin, *ärkin* soʻzining *ärk*, *är* oʻzaklari bilan aloqadorligi ehtimoldir. Maʼlumki, Turk xoqonligi bir qancha harbiy-maʼmuriy istilohlarni juan-juanlardan oʻzlashtirgan. Bular qatoriga “*ärkin*, *ältäbär* kabi turkiy asosli unvonlarni ham qoʻshish mumkin”⁹⁹.

Bitigtoshlardagi *apa* va *apatarqan* oʻzaro aloqador leksemalardir. *Apa* soʻzi “ulugʻ”, “katta” maʼnolarini anglatishi oʻlaroq, *tarqan* soʻziga ushbu maʼnoni yuklab, mazkur qism bilan birgalikda “bosh qoʻmondon” maʼnosini bildiradi. J.Klason *apa* soʻzini zamonaviy turkiy tillarda “ota, dada, bobo, ona, opa va katta qiz qarindosh” maʼnolarida ishlatilishi va qadimgi turk tilida *apa* soʻzi “ajdod”, oʻgʻuzchada *aba* soʻzi “ona” maʼnolarini anglatishini yozadi¹⁰⁰. Mahmud Koshgʻariy *aba* soʻzini farqlaydi: “1. *Aba* ابا – ona (oʻgʻuzcha), Qarluq turkmanlari qattiq (p) bilan *apa* deydilar; 2. *Aba* ابا – ota (tubutlar tilida). Bu arab tilining izi boʻlsa kerak. Chunki tubutlar Yamandan qochib, turklar shahriga kelib, bola-chaqa qilib qolgan bir kishidan tarqaganlar. Ular Banu Sobitning avlodlaridir” (DLT, I, 113). Demak, Mahmud Koshgʻariyga koʻra, oʻgʻuzlar onani *aba* (*oba*), qarluqlar *apa* (*opa*), tuput (Tibet)lar esa otani *aba* deyishgan. “Ushbu unvon Toʻnyuquqning unvonlaridan boʻlib, “bosh qoʻmondon” sifatida talqin qilinadi”¹⁰¹. Oʻzbek tilida *opa* soʻzi tugʻishgan katta qiz farzand maʼnosini anglatadi (OʻTIL, III, 128). Toshkent shevasida bu soʻz onaga nisbatan ishlatiladi. Xulosa shuki, qadimgi turkchadagi *apa* va *aba* soʻzlari bir soʻzning turli variantlari sifatida sof turkiy leksema oʻlaroq, oʻzi qoʻshilgan qismga ulugʻlik maʼnolarini yuklagan.

ataman istilohi “rahbar, yetakchi, qahramon” maʼnosida Oʻrxun bitiglarida koʻzga tashlanadi. R.Jiroga koʻra, “*ataman tarqan* birikmasi muayyan shaxs nomi boʻlmagani holda ikki unvondan tashkil topgan bir birikmadir. Bulardan birinchisi *ataman* istilohi

⁹⁸ Yıldırım K. Bozkırın Yitik Çocukları ... – S. 80-81.

⁹⁹ Материалы по истории ... – С. 140, 163.

¹⁰⁰ Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 5.

¹⁰¹ Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 2.

turkcha *ata (ota)* soʻziga “katta” maʼnosidagi *-manning* qoʻshiluvidan yasalgan”¹⁰². Aytish lozimki, *ata* soʻzi qadimgi turkchada maʼno tomondan ushbu soʻzga yaqin boʻlgan va yuqori darajali unvonni anglatgan *apa (aba)* leksemi bilan tarixan bir soʻzning variantlari boʻlishi mumkin. Chunki, *b-t* almashuvi qadim soʻzlarning oʻqilishida koʻzga tashlanadi. Masalan, *Tümin – Bümin* kabi. Qolaversa, *apa (aba)* va *ata* soʻzlari semantik va funksional jihatdan juda yaqindir. “*ataman* istilohi keyinchalik turkiy tildan ruschaga oʻzlashtirildi va “qoʻmondon” maʼnosida ishlatildi hamda rus kazaklaridan ruminlarga oʻtdi”¹⁰³, xususan, oʻzbekchaga ham. Turkcha boʻlgan ushbu leksema biroz funksional-semantik oʻzgarish bilan XIX asrda oʻzbek tiliga rus harbiy tizimida anglatgan maʼnosi bilan kirib keladi. Ayni termin OʻTILda quyidagicha izohlanadi: *ataman* 1. Ixtiyoriy kazak drujinalarining saylab qoʻyilgan boshligʻi. Chor Rossiyasida; kazak qoʻshinlari yoki qishloqlarida harbiy, politsiya va maʼmuriy ishlarni bajarish uchun tayinlangan yoki saylab qoʻyilgan boshliq. *Stanitsa atamani. Qoʻshin atamani*. 2. Biror toʻda yoki guruhning boshligʻi; qoʻrboshi. *Bosqinchilar atamani* (OʻTIL, III, 113). Shuningdek, OʻTILda *ota* soʻzining 5- va 6-bandlaridagi maʼnosi aynan “rahbar va yetakchi”dir (OʻTIL, III, 151).

Shuni ham aytib oʻtish kerakki, baʼzi tadqiqotlarda *ataman* soʻzi ukraincha bilib, ushbu tilga polyak tilidan oʻzlashgan. Unga koʻra istiloh *hetman* (qadim inglizcha *headman* (*head* – “bosh”, *man* – “kishi”, yaʼni “kishilar yetakchisi”) – anglo-sakslar va skandinavlarda boshliq, yetakchi (nemischa *Hauptmann*) soʻzidan kelib chiqqan¹⁰⁴. Dastavval diniy yoʻlboshchi boʻlgan nasroniy yetakchilar Qrimda aholi punktlariga boshliq etib tayinlangan va ular keyinchalik Ukrainaga koʻchib oʻtishgan. Ana shular jonli soʻzlashuv tilida *hetmanlar* deb atalgan¹⁰⁵. Shuningdek, yana bir qarashga koʻra, ushbu nom turkiy “usmon, usmonli” soʻzidan kelib chiqqan. Chunki usmonli soʻzi inglizchada *Ottoman(s)* deb ataladi. Usmonli imperiyasi askarlarining jasoratlaridan taʼsirlangan Zaporojiya

¹⁰² Giraud R. Göktürk İmparatorluğu ... – S. 77.

¹⁰³ Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков – М.: Наука, 1974. – С. 202.

¹⁰⁴ Атаман // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – СПб., 1890-1907.: Археографическая экспедиция императорской академии наук. Акты собранные в библиотеках и архивах Российской Империи Том 1. – СПб: Типография 2 Отделения собственной Его Императорского Величества Канцелярии, 1836. – С. 20.

¹⁰⁵ Анцупов И.А. Казачество российское между Бугом и Дунаем: исторический очерк. – Кишинев, 2000. – 290 с.

kazaklari o'zlarining sardorlarini *ataman* deb atashgan va bu an'ana slavyanlarga o'tgan¹⁰⁶. Lekin *ataman* istilohining etimologiyasi qadim turkchaga borib taqalishi boshqa farazlarga qaraganda haqiqatga yaqinroqdir.

Davlatning harbiy kengash a'zosini ifoda etgan *tuyyun//toyğun* istilohi tadqiqotlarga ko'ra, qadimda davlat kengashini anglatgan *toy* va "birlik, jamlik va bir jamoaga mansub" ma'nosidagi *-ğun* qo'shimchasining birikuvidan hosil bo'lgan. Bunga muvofiq, "*tuyğun* so'zining tom ma'nosi "to'y birligi ichida; to'yga mansub", ya'ni "to'y a'zosi"dir"¹⁰⁷. Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, ushbu istiloh bir qancha turkiy tillarda mavjud "his qilmoq" ma'nosidagi *tuy-* va asosdan anglashilgan ish-harakatga egalikni bildiruvchi *-ğun (-g'in)* affikslarining birikuvidan shakllangan. Ushbu fikr bir qadar asosli bo'lishi ehtimol. Chunonchi, ushbu leksema hozirgi o'zbek tilida "tez sezib, fahmlab, payqab oladigan; sezgir" va "qirg'iy yoki qarchig'ayning erkagi" ma'nosida izohlangan (O'TIL, IV, 185). Lekin unvonni "to'y (Kengash) a'zosi" sifatida tushunish to'g'riroq bo'ladi.

Qadimgi Xitoy manbalarida birinchi marta *hiep-ho* shaklida qayd etilgan *yabyu* istilohining Xun imperiyasida ikkinchi ming yillikdan beri qo'llanganligi va davlat tashkilotida bir qanot boshqaruvchisini ifodalaganligi manbalarda qayd etiladi¹⁰⁸. Istilohning kelib chiqishi haqida turli qarashlar ilgari surilib, H.V.Beyli, P.Pello va R.N.Fray kabi olimlar ushbu termini fors tillariga aloqador deb biladi.¹⁰⁹ Istilohning sof turkcha ekanligi va turkchadagi *yap-* fe'lga *-yu* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'lganligi birinchi marta V.Tomsen tomonidan aytiladi¹¹⁰. Ushbu istilohning unvon sifatida qo'llanishi eski o'zbek adabiy tilida ham davom etdi. Jumladan, Z.Odabashi, Abulg'ozil Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asaridagi Kayixon o'g'illaridan birining ismini *Dib-Yavku – Deb-Yabqu* shaklida keltiradi va ismning tarkibidagi *yavku-yabqu* so'zini *yabgu* unvoni bilan bog'laydi¹¹¹. Q.Mahmudov tomonidan nashrga tayyorlangan kitobda esa bu nom *Debbaquy*

¹⁰⁶ Bu uchun qarang: <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D1%82%D0%B0%D0%BC%D0%B0%D0%BD>

¹⁰⁷ Kafesoğlu İ. Eski Türklerde Devlet Meclisi (Toy). 1980. – S. 208.; Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... S. 52.

¹⁰⁸ De Groot. Die Hunnen der Vorchristlichen Zeit, – Berlin-Leipzig. 1921. – S. 116-117.

¹⁰⁹ Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 58.

¹¹⁰ Thomsen V. Inscription de l'Orkhon dechiffress, MSFOU, V, 1896. – S. 286

¹¹¹ Odabaşı Z. Türk Devletlerinde Kullanılan ... – S. 171.

shaklida berilgan¹¹². Shuningdek, istiloh keyingi davr g'ayriturkiy manbalar, xususan arman hujjatlarida ham ko'zga tashlanadi.

Bitigtoshlarda harbiy boshliq, noibga nisbatan qo'llangan "tarqan istilohi kelib chiqishiga ko'ra xuncha o'zakli bo'lib, qadimgi xitoy manbalarida *dān-γway'* shaklida tilga olinadi"¹¹³. A.Gabenga ko'ra "istiloh (janubiy) Turkiston tillaridan, xususan Markaziy Eron tillaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin va *tarqan* so'zining *tar* ildiziga *-qan (xon)* qo'shimchasining qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan"¹¹⁴. V.Eberhard va D.Sinorlar bu istilohning turkcha "tarqatmoq" ma'nosidagi *tar-* fe'lidan *-gan (-kan)* qo'shimchasi orqali yasalgani va "tarqatuvchi" ma'nosini anglatishini yozadilar¹¹⁵. Ushbu fikr nisbatan haqiqatga yaqinroq deb hisoblaymiz. Leksema hozirgi o'zbek tilida tarixiy manbalardagi ma'nolarini qisman saqlagan holda aks etgan. Jumladan, O'TILda *darxon* va *tarxon* shakllarida qayd etilgan: *darxon (tarxon)* (*mo'g'ulcha* – temirchi; ozod kishi) imtiyozli, daxlsiz (qabila, urug', zot yoki mansabdor). *Darxon etmoq (yoki qilmoq)* – muayyan ish, mansab yoki jismoniy mehnatdan ozod qilmoq; bo'shatmoq (O'TIL, I, 569).

Xoqonzoda yoki xonzodalarga tegishli yuqori darajali harbiy-ma'muriy unvonlardan biri bo'lgan *täginning* etimologiyasi va o'qilishi haqida turli fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, G.Ramstedt eski turkchasini *täggin* shaklida olgan "tegin"ni o'xshatish yo'li bilan oltoy (koreys) tillaridagi *tek* (fazilat) + *in* (odam) so'zlariga bog'laydi va ushbu so'zning ma'nosini "mo'tabar odam" sifatida izohlaydi¹¹⁶. F.Althem bu nomni *täkkin (täggin)* sifatida o'qilishini afzal ko'radi va uning etimologiyasini xitoycha yoki forscha *dehqānga* bog'laydi¹¹⁷. Ushbu istilohning etimologiyasi xususida tugal xulosa berish qiyin, ammo uning ildizini turkiy tildan qidirish to'g'riroq bo'ladi. Qolaversa, ushbu leksema qadimgi va eski turkiy tilda ko'plik shakli orqali grammatik o'zgara olgan, *tägin* va *tägit* kabi. DLTda ham *tägit*, *täginning* ko'plik formasi ekanligi qayd etilgan (DLT, I, 337).

¹¹² Абулғозий Баҳодирхон, Шажарайи тарокима. Нашрга тайёрловчи: Қ.Маҳмудов, – Т.: 1995. – Б. 14.

¹¹³ Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 539.

¹¹⁴ Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri... – S. 42.

¹¹⁵ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 51.

¹¹⁶ Ramstedt G.J. Alttürkische und mongolische ... – S. 64.

¹¹⁷ Althem F. Geschichte der Hunnen... – S. 49.

inäl yoki *inaq* istilohlari hozirgi o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lgan sof turkcha *inan-* – “ishon”moq o‘zagidan shakllangan bo‘lib, umumiy ma‘noda “inonish, inonch” ma‘nolarini anglatadi. “*inäl* so‘zi birinchi marta VIII asr uyg‘ur budda matnlarida “Tegrada bo‘lmish Inal” birikmasi ichida ishlatilgan. Qadimgi turk hujjatlarida *İnäl Ögä* va *İnäl Čör* shakllari qayd etiladi”¹¹⁸. DLTda ushbu istiloh “onasi katta urug‘dan, otasi esa oddiy xalqdan tug‘ilgan bola” ma‘nosida izohlangan (DLT, I, 144). Shuningdek, lug‘atda “ishondim” ma‘nosidagi *inan-* so‘zi ham aks etgan. “Qutadg‘u bilig”da *inaq* yasalmasi “boyzoda, ishonarli inson” ma‘nolarida qo‘llangan. To‘nyuquq bitigida tilga olingan *inäl* unvonining qadimgi turkcha *ino-* – “inonmoq” fe‘lidan shakllangani qat‘iy asoslarga egaligi o‘laroq, *ini* (yo‘ldosh) va *äl/il* (el, xalq) so‘zlaridan shakllangan degan qarash ham o‘rtaga tashlangan¹¹⁹, ya‘ni *İni İl* – “el yo‘ldoshi, xalq bilan birdam”.

2.2. O‘zlashma qatlam

Qadimgi turkiy til (VI–X asrlar) o‘z davri uchun boy va rang-barang leksik imkoniyatlarga ega bo‘lgan rivojlangan til tizimi edi. Uning lug‘at tarkibi turkiy xalqlarning ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini, tabiat manzarasi, siyosiy va madaniy taraqqiyotini aks ettirgan. Mazkur til qatlami bo‘lgan qadimgi turkiy tildagi o‘zlashma so‘zlar turkiy xalqlarning geosiyosiy aloqalari va madaniy rivojlanish darajasini yoritib beradi. Ular asosan savdo, din, boshqaruv va madaniyat sohalari orqali kirgan. Qadimgi turkiy til (V–X asrlar) matnlarida uchraydigan o‘zlashma so‘zlar (zayom so‘zlar) turli madaniy, siyosiy, diniy va iqtisodiy aloqalar natijasida kirib kelgan. Ular asosan Sog‘d, Xitoycha, Sanskrit va Arabcha manbalardan o‘zlashgan. Quyida qadimgi turkiy tildagi o‘zlashmalarning leksik xususiyatlari haqida nazariy ma‘lumot beriladi.

Turkiylarning qadimgi davri bo‘lmish xoqonliklarning ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy, shuningdek, harbiy hayotiga oid bir qancha izlanishlar olib borilgan va tadqiqotlar chop etilgan. Mavjud ishlarda qadimgi turkiy til terminologiyasining u yoki bu darajada tarixiy va

¹¹⁸ Odabaşi Z. Türk Devletlerinde Kullanılan ... – S. 174.

¹¹⁹ Osman F. Sertkaya, “İnel Kağan”mi? – “İni İl Kağan”mi? – Istanbul: Atsız Armağanı, 1975. – S. 397-419.

lingvistik tahlili berilgan, ammo ularning genezisi va taraqqiyoti hali to'liq aniqlashtirilmagandir. Qolaversa, Turkiy xoqonliklarga bag'ishlangan tadqiqotlarda saltanat ishlarida qo'llanishda bo'lgan harbiy terminlarning aniq miqdori ham berilmagan. Shu jihatdan, qadimgi turkiy tildagi terminlarni diaxron aspektda atroflicha o'rganish nafaqat til tarixi, balki qadimgi turklarning davlatchiligi, boshqaruv an'analari va harbiy qurilishi uchun ham katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, xoqonlikda ma'muriy-harbiy va ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi qanday shakllanganligi, ularning kelib chiqishi, etimologik jihatlarini aniqlash hozirgi turkiy tillarning harbiy terminologiyasi tizimida sodir bo'lgan jarayonlarni yanada oydinlashtiradi. Qadimgi turkiy tilga o'zlashish sabablari quyidagichadir: **savdo va iqtisodiy aloqalar** – ipak yo'li orqali savdo atamaları kirdi; **din va mafkura ta'siri** – buddaviylik, manixeylik, keyinchalik islom terminlarini olib kirdi; davlatchilik va ma'muriy munosabatlar – aholi boshqaruvi, saroy, huquq, amaldorlikka oid so'zlar o'zlashdi; **madaniy va adabiy ta'sir** – qo'shni sivilizatsiyalarning adabiy va ilmiy atamaları qabul qilindi; **shahar madaniyati ta'siri** – so'g'diy va forsiy shahar madaniyatiga yaqinlashish natijasida shahar, hunarmandchilik leksikasi kirdi. Bitigtoshlarda aks etgan terminlarni harbiy qatlam nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin: o'z qatlam va o'zlashma qatlam: xitoycha o'zlashmalar, sanskritcha o'zlashmalar va sug'dcha o'zlashmalar.

Xitoycha o'zlashmalar. Bitiglardagi xitoycha harbiy-idoraviy terminlardan biri “qo'mondon” ma'nosidagi *sāñün*”dir. “*ku sāñün bašadu tört tumän sü kälti* – Ku Sangun boshliq to'rt tuman askar keldi”; “*Tay Sāñün ...tu..... bäs yüz baši* – Tay Sangun ... besh yuz boshi” (Tar, 6). *sāñün* xitoycha *tsic-kyn*, *tsiang-kün* – “general” unvonining turkcha shaklidir. Xitoy manbalariga ko'ra, “Sharqiy Turk xoqonligi qulagandan so'ng (630-yil) turkiy qabilalar Tabg'ach xoqoniga tobe bo'ladi. Shunda Tabg'ach imperatori 500 qabila boshliqlariga *sāñün* unvonini beradi”¹²⁰. “Unvon bitiglarda 23 o'rinda qayd etiladi va qadimiy turkiy tilli matnlardan boshqa biror davriy manbalarda ko'zga tashlanmaydi”¹²¹.

¹²⁰ Memmedli Y. Eski türkçe şahıs adları ve unvanları... – S. 101.

¹²¹ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... 261

H.Hausig, G.Ramsted va K.Menges *tudun* istilohining etimologiyasini xitoycha *tu-t'un*, ya'ni "askariy bo'lmagan hokim" leksemasi bilan bog'laydi¹²². G.Dyorfer ushbu nomning Volga bulg'arlarida *turun* (*tudun* > *tuḍun* > *tuzun* > *turun*) ko'rinishida mavjud bo'lganligini qayd etadi¹²³. "Xitoyning "Tang-shu" yilnomasida Choch hukmdorlari *tu-tun* unvoni bilan tilga olingan"¹²⁴. O'rxun bitiglarida *tudun* unvoni qarluqlarga qarshi yurishda Bilga xoqonning vakili *Yamtarning* va kidan (qitaniy)lar sardorining nomida ko'zga tashlanadi. "*biriyä qarluq bodun tapa sülä täp tudun Yamtarïy it(t)im* – janubga qarluq xalqi tomonga lashkar tort deb tudun Yamtarni jo'natdim" (BX, 40). Shuningdek, istiloh Yegen Erkin tomonidan bitilgan Ko'k turkcha Ixe Ashata¹²⁵ bitigida "*täkiš kül tudun inisi; kül tudun inisi altun tamyan tarqan* (IA, 1) – Kul Tudunning ukasi Takesh, Kul Tudunning ukasi Altun Tamgan Tarxon" mazmunida va Miran yozuvida *Uruḡu Tudun Čigsi* unvoni tarkibida uchraydi. Xitoy manbalariga ko'ra, *tudun* Ko'k Turkklar saltanatida hukmdor sulolasidan bo'lmagan boshqaruvchilarga meros sifatida beriladigan nomdir. Shuni qayd etish kerakki, manbalarda ushbu istilohning ma'nosi "askariy bo'lmagan" sifatida izohlansa-da, qadimgi turkiy tilda faol ishlatilgani, ya'ni harbiy xarakterda ekanligini hisobga olib, uni harbiy terminlar qatoriga kiritdik. Qolaversa, ushbu unvon egasi avarlarda shahar muhofazasiga mas'ul hisoblangan va keyinchalik hukmdorning unvoni darajasiga qadar ko'tarilgan. "Ushbu unvon sohibining vazifasiga soliq va boj to'lovlarini nazorat qilish kirganligi Tun-yabg'u xoqon (618-630) tomonidan Toshkent va Gandxara kabi g'arbiy mintaqalarga tayinlangan *ältäbärga* qo'shimcha ravishda, ushbu hududlarni nazorat qilish, turli yig'imler uchun *tudunning* ham tayinlanganligida ko'zga tashlanadi"¹²⁶. *Tudun* istilohi uyg'ur¹²⁷,

¹²² Gabain A. V. Alttürkische Grammatik... – S. 345; Haussig H. V. Theophylakts Exkurs über die skythischen Völker, – Byzantion. VIII, 1954. – S. 426; Karl H. Menges. The Turkic Languages ... 1968. – S. 169.

¹²³ Doerfer G. Türkische und mongolische... – S. 207-210.

¹²⁴ Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue ... – S. 141-142.

¹²⁵ Ko'k turk davri bitiglaridan bo'lgan Ixe Ashata bitigi Altun Tamgan Tarxonning maqbarasiga tegishli ikkita toshning uch qismiga yozilgan qabr yodgorligidir. qar. Orçun Ünal. İhe Ashete Yazıtı: Yeni Bir Okuma ve Anlamlandırma Denemesi. Bilig, 2015. – S. 271-294.

¹²⁶ Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue... 1903. – S. 24, 52.

¹²⁷ Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü... – S. 255.

avar¹²⁸ va xazarlarga oid manbalarda ham ishlatilgan. “Vizantiya tarixchilari Feofan va Nikefor (806-815)ning xazarlar haqidagi VII asrga oid asarlarida *tudunni* xoqonning vakili sifatida Xersonda hukm surgani haqida mulohaza yuritilgan”¹²⁹. *Tudun* istilohi “Devonu lug‘otit-turk”da “qishloq xonadonlariga ichimlik va suv tarqatadigan kishi” ma’nosida izohlangan (DLT, III, 400).

Harbiy voliy – *tutuyn*ning zamonaviy xitoycha *tuo-tok*, qadim xitoycha *tu-tu* (du du) dan kelib chiqqanligi qayd etilgan¹³⁰. Dastlabki izlanishlarga ko‘ra, unvonning juan-juanlar tomonidan xitoychadan o‘zlashtirilgani va keyinchalik turkiy tilga o‘tganligi ilgari surildi. Unvonning turkcha asosli ekanligi haqidagi qarashlar ilk marta turkiyalik olimlar tomonidan o‘rtaga tashlangan. Jumladan, O‘tgan asrda D.Sinor va A.Donuklar istilohning sof turkcha *tut-* “tutmoq, ushlamoq” fe’li bilan aloqador ekanligini aytishdi. H.Shirin User ham ushbu qarash tarafdori o‘laroq, istilohning hozirgi turkiy tillardagi *tutmoq* fe’li anglatgan ma’no bilan aloqadorlikda bitiglarda 20 o‘rinda qayd etilishini aytadi¹³¹. Lekin ushbu so‘zning ildizlarini xitoy tili bilan bog‘lash nisbatan haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Xususan, J.Kloson ham ushbu istiloh xitoycha *tu-tu* (*dudu*) so‘zidan olingani va uning *tutuk* shaklida o‘qimaslik kerakligi hamda boshqa bir qancha unvonlar qatori Xitoy imperatori tomonidan berilganini yozadi¹³². Shuningdek, “unvon tuput (tibet)larda *to-dok*, sug‘dlarda *twtwk’n* va xo‘tanlarda *tuttū*, *ttāttāha*, *ttāttāhi* shakllarida uchraydi”¹³³. Kul Tegin bitigida *tutuyn* istilohi az urug‘i yetakchisini ifodalaydi: “*anta yana kirib Türgäš qayan buyruqi, Az tutuyuy äligin tütüdi* – o‘shanda yana (jangga) kirib, Turgash xoqon(ning) vazirini, Az tutug‘ini (o‘z) qo‘li bilan ushladi” (KT, 38). *tutuyn* istilohi manbalarda asosan “viloyat noibi – voliy, yuqori darajali boshliq” ma’nosida ishlatilgan. “Uyg‘urlarda qabila boshlig‘i ayni istiloh bilan ifodalangan”¹³⁴. *tutuyn*ni Xitoy sulolalari boshqaruvidagi vazifasidan

¹²⁸ Doerfer G. Türkische und Mongolische ... – S. 217

¹²⁹ Golden P. B. Hazar Çalışmaları... – S. 215.

¹³⁰ Bazin L. Pre-Islamic Turkic Borrowings in Upper Asia, Diogenes 43 / 3, 1995. – P. 35-44.; Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил ... – Б. 119.

¹³¹ Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 258.

¹³² Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 417.

¹³³ Ecsedy H. Çin Menşeli Eski Türk Unvanları, Türkçeye çev.: E. B. Özbilen, Türk Dünyası Araştırmaları, 1996. – S. 188

¹³⁴ Mackerras C. Uygurlar, Türkçeye çev.: Ş. Tekin, Erken İç Asya Tarihi. – Istanbul: İletişim, 2003. – S. 433.

kelib chiqib, xoqonning joylardagi vakili, harbiy-ma'muriy noibi bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. Quyidagi ashyoviy materiallar istilohning keng qo'llanganini dalillaydi: *Öñ Tutuy* (Kul Tegin, Bilga xoqon), *Alp Uruñu Tutuy* (Chakul), *Atči Alp Tutuy* (Abakan), *Tutuy Bäg* (Qamchik-Qoya Boshi), *Bilgä Tay Säñün Tutuy* (Taryat), *Čigil Tutuy*, *Tutuy Baši* (Shine-Ussu) va h.k.

Taryat bitigtoshining 10-satrida tilga olingan *čigsi / čiksi* istilohi manbalarda asosan "harbiy yo'l boshchi" ma'nosida tilga olinadi: "*Täñirim qanım: ... qan atliy čigsi aqunču*" (Tar, 10). Shuningdek, Yenisey bitiglaridan Chaa Xol I (4-5), Chaa Xol VII (1), Qamchiq Qoyaboshi (7) bitiglarida uchraydi. *čigši / čikši* istilohi xitoycha *chig chi* (qadimgi xitoychada *chi-chi [jixi]*¹³⁵) so'zining turkcha talaffuzli shakli sifatida qaraladi¹³⁶. X.Eksedy ushbu istilohni xitoycha "voliy; yuksak rutbali qo'mondon" anglamidagi *Tz'ü-shih [Cishi]* bilan aloqalantiradi va turkchaga VII-VIII yuzyilliklarda o'zlashganini qayd etadi¹³⁷. J.Kloson ham ushbu istilohning xitoychadan o'zlashganini, xitoy tilining o'rta davrlarida *ts'yek syi* – "tuman sudyasi" ma'nosini anglatgani va aynan imperator tomonidagina tuhfa etiladigan unvon bo'lganligini keltiradi¹³⁸. Ushbu qarashlar so'zning xitoychadan o'zlashtirilganini to'la dalillaydi. Ammo ushbu istiloh etimologiyasi xususida o'zgacha qarashlar ham o'rtaga tashlangan¹³⁹.

Sanskritcha o'zlashmalar. Manbalardagi qadimgi hindcha o'zlashma istilohlardan biri *maqarač*dir. Sanskritcha o'zakli *maqarač (maharaja)* istilohi "ulug' hukmdor" ma'nosidagi harbiy unvon bo'lib, yuqoridagi jumlada Kul Teginning janoza marosimiga O'n o'q qabilasidan kelgan bir muhrdorning nomini anglatmoqda. Ushbu "unvon qadim hindcha *maqa* va *rača* so'zlarining o'zaro birikuvidan tashkil topgan. So'z oxiridagi *a* ning bitigtoshlarda talaffuz etilmasligi qadimgi turkiy til qonuniyati bilan izohlanadi"¹⁴⁰.

¹³⁵ Erhan A. Yenisey yozitlarında gečen unvanlar ve unvan niteleyicileri. – Malatya, 2011. – S. 14.

¹³⁶ Bazin L. Pre-Islamic Turkic Borrowings in Upper Asia, Diogenes 43 / 3, 1995. – P. 39.

¹³⁷ Eksedy H. Çin Menşeli Eski Türk Unvanları... – S. 188.

¹³⁸ Clauson G. An Etymological Dictionary of ... – P. 417.

¹³⁹ Bu uchun qarang: ДТС, 156; Tekin T. Kuzey Moğolistan'da yeni bir uygur anıtı: Taryat (Terhin) kitabesi, Belleten XLVI / 184, 1983. – S. 836.; Orhon Türkçesi Grameri, – Ankara: Sanat Kitabevi, 2000. – S. 242.; Şirin User H. Köktürk ve Ötüken uygur... – S. 258.; Aydın E. Uygur Kağanlığı Yazıtları, – Konya: Kömen, 2011. – S. 160-161.

¹⁴⁰ Mehmet Ö. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Öğeler (3) Türk Dilleri Araştırmaları 9, – Tokyo, 1999. – S. 64.

“On oq oylüm Türgäš qayanta Maqarač tamyači ... kälti – O’n o’q o’g’lim(dan) Turgash xoqonidan Maqarach tamg’achi... keldi” (KT, 53). Yuqoridagi jumlada *maqarač* istilohi O’n O’q qabilasidan Kul Teginning janozasiga kelgan muhrdorning nomini anglatmoqda. Sanskrit va toxarchada “hukmdor” ma’nosini anglatgan ushbu unvon qadimgi turkiylar va ularga yondosh xalqlarda hukmdorga yaqin lavozim nomi sifatida gavdalanadi.

Bitiglarda qo’llangan sanskritcha o’zlashmalardan yana biri *išbara* harbiy istilohidir. “Beg, shahzoda” ma’nosidagi ushbu unvonning ko’plik shakli *išbaras* bo’lib, qadimgi turkchaga toxarcha orqali sanskrit tilidan (*išvara* – “aslzoda, shahzoda”) o’tgan¹⁴¹. M.O’lmazga ko’ra, Vang so’zni eski inglizcha *spearwa* – “nayza”, eski mo’g’ulcha *šibagun* – “qush”, dagurcha *soo / sogo* – “burgut”, manjchurcha *šibāhu* – “qaldirg’och” bilan taqqoslaydi. Bundan tashqari xitoy manbalariga ko’ra, turklar jasur va kuchli odamlarni *šbara* deb atashgan¹⁴². A.Donuk ushbu so’zni qadimgi turkcha *čap-*, *čapar* so’zlari bilan bog’lashga harakat qiladi¹⁴³. Boshqa manbalarga ko’ra *išbara* qadimgi turkcha *äš* (yo’ldosh) va *böri* (qashqir) so’zlarining birikuvidan tashkil topgandir¹⁴⁴. Lekin leksemani turkchadagi o’zlashmalar qatoriga kiritish maqsadga muvofiq bo’ladi. Aytish lozimki, *išbara* so’zi xitoy manbalarida *šabolo* tarzida qayd etilgan. Bulg’or podshosi *Asparuh* (643-701)ning ismi ham ushbu so’z bilan aloqador. Shuningdek, o’rta asr manbalarida tilga olingan *Aspara* (Ashpara – Qozog’iston Jambul viloyati ma’muriy markazi) va *Isfara* (Tojikiston Sug’d viloyatidagi tuman¹⁴⁵) toponimi ham ushbu so’z bilan bog’liq. *išbara* unvoni bitiglarda sanoqligina o’rinlarda tilga olingan: “*äkinti išbara yamtar boz atig binip tägdi* – ikkinchi (bor) Ishbara Yamtarning bo’z otini minib hujum qildi” (KT, 33), “*biñ är: baši išbara Säñün Yaylaqar* – ming (jangchi)boshi Ishbara Sangun Yag’laqar” (Tar, 7). Birinchi jumladagi *išbara yamtar* birikmasi unvon (*Ishbara*) + ism (*Yamtar*)” shaklida tarkiblanib, Kul Teginiga arg’umoq sovg’a qilgan shaxsning nomini ifodalamoqda.

¹⁴¹ Clauson G. Tryjarski E. The Inscription at Ikhe Khushotu, Rocznik Orientalistyczny, 34 / 1, – Vvkrzava, 1971. – P. 13.

¹⁴² Ölmez M. EskiTürkYazitlarında... – S. 184-185.

¹⁴³ Donuk A. Eski türk yazitlarındaki ... – S. 18.

¹⁴⁴ Бобоёров Ғ. Ўзбек тили тарихи. Т. – Фан. 2022. – Б.85.

¹⁴⁵ Shahar birinchi marta X asrda “Tabariylar tarixi”da “Isfara” deb nomlangan. Агеенко Ф. Л. – Исфара // Словарь собственных имён русского языка. Ударение. Произношение. Словоизменение. – М.: Мир и Образование. – Оникс, 2010. – С. 880.

Ikkinchi misolda esa harbiy unvonni ifodalmoqda. “Uyg‘ur xoqonligi davrida yaratilgan Shine-Usu bitigida “Xitoy xalqiga tutuq berdim. Ishbaralar, tarxonlar tayinladim ...”¹⁴⁶ mazmunidagi jumla mavjud bo‘lib, undan *išbaraning* unvon ekanligi anglashiladi”¹⁴⁷. Eski uyg‘urcha lug‘atda bu so‘z “yuqori martabali” ma‘nosini anglatgan¹⁴⁸. I Ko‘k Turk xoqoni Tapar xoqon 581-yilda vafot etgach, taxt uchun xonadon a‘zolari o‘rtasida kurash boshlanadi va Tapar xoqonning o‘g‘li Umna xoqonning qisqa hukmronligi ortidan Nabar *İšbara Qayan* unvoni bilan taxtga o‘tirgan¹⁴⁹. *išbara* istilohi bilan bog‘liq nom va unvonlar turkiy manbalarda *İšbara Yamtar* (Kul Tegin), *İšbara Tamgan Čör* (Ongin), *İšbara Tamyan Tarqan* (Ongin), *İšbara Bilgä Köl İč Čör* (Ko‘l Ich Cho‘r) shakllarida ham uchraydi.

Sug‘dcha o‘zlashmalar. Bitigtoshlar matnida, asosan, yetti yuz kishini birlashtira olgan shaxsga nisbatan qo‘llangan “ulus boshlig‘i, xoqonzoda” ma‘nolaridagi *šad* unvoni tilga olinadi. DTCga ko‘ra, ushbu leksema qadim so‘g‘d (*χšyδ*) tili bilan aloqalantirilgan. S.Klyashtorniy va V.Livshits xoqonlikka tegishli ilk manbalardan bo‘lgan Bugut bitigtoshida tilga olingan *šadapit* so‘zidagi *šadni* so‘g‘dcha *γš’yδ*, *γšyδ*, *xšyδ* bilan bog‘laydi hamda uni qadimgi forscha *xšaita* (“Avesto”da *xšaeta* – “boshliq, yetakchi” (*əxšēdan*), arab va fors manbalaridagi *ixšid*, *ixšād* bilan qiyoslaydi¹⁵⁰. A.Bombachi va A.Gaben ham uni qadim eron tillaridagi *šah* (*shoh*), “Avesto”dagi *xšaeta* so‘zlari bilan bog‘liqligini qayd etadi. Unga ko‘ra, *šad* Turk xoqonligi tashkil topishidan avval turklarga juan-juanlardan kirib kelgan¹⁵¹. A.Jafero‘g‘li ushbu leksemani eski uyg‘urchadagi *šatu* – “lider, rahbar, ma‘mur” so‘zining qisqargan shakli sifatida ko‘rsatadi¹⁵². Shuningdek, “Devonu lug‘otit-turk”da “jur‘at, jasorat” anglamidagi *šat* so‘zi borki (DLT, I, 310), ushbu leksema yuqoridagi so‘zlarning eski turkiy tildagi shakli bo‘lsa kerak.

¹⁴⁶ Orkun H. N. Eski Türk Yazıtları, I. – Ankara: TTK, 1986. – S. 174.

¹⁴⁷ Odabaşı Z. Türk Devletlerinde Kullanılan ... – S. 181

¹⁴⁸ Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü... – S. 87.

¹⁴⁹ Pritsak O. Old Turkic Regnal Names in the Chinese Sources, Journal of Turkish Studies, Niğüča Biçig: Pi Wên Shu: An Anniversary Volume in Honor of Francis Woodman Cleaves, S. 9, 1985. – S. 205-211.

¹⁵⁰ Кляшторный С. Г., Лившиц В. А. Согдийская надпись из Бугута. – М.: Наука, ГВРЛ, 1971. – С. 121-146.

¹⁵¹ Şirin H. Kül Tigin yazıtı ... – S.210

¹⁵² Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü... – S. 216.

Asosan O'rxun-Yenisey bitigtoshlarida tilga olingan *šad* leksemasi dastlabki turkiy davlatlardagi harbiy qo'shin boshlig'i, tobe hududlar noiblariga beriluvchi harbiy unvon sifatida ko'zga tashlanadi: "*özüm Tarduš bodun üzä šad ärtim* – o'zim Tardush xalqi ustidan shad edim" (KT, 17); "*ulayu šadapit bäglär ... ataman tarqan, Tonyuquq, boyla baya tarqan* – keyin shadapit beklar ... ataman Tarxon, To'nyuquq, Bo'yla Bag'a Tarxon" (BX, 14). Shuningdek, To'nyuquq matnida yetti yuz kishini birlashtira olgan shaxs *šad* unvoni bilan yuritilishi aytiladi: "*yäti yüz kišig ... uduzuyma uluyi šad ärti* – yetti yuz kishini uyushtiradigan ulug'i shad edi" (To'n, 5-6). Istiloh To'las Shadning balbalida asar nomi (*Tolus Šad* shaklida) bilan tilga olinadi. Xoqonzodalar muayyan hudud yoki qavmga mas'ul etib tayinlanganda ularga *šad* unvoni berilgan. Ushbu fikrni quyidagi parcha dalillaydi: "*äki oyulima: yabyu: šad at bärtim* – ikki o'g'linga *yabg'u* va *shad* unvonini berdim" (MCh, 19). Ushbu unvondorlar qo'l ostidagi qabilalarning nomi mazkur unvon nomi bilan birga ishlatilgan. Masalan, "*sü baši Inäl qayan Tarduš šad barzun tädi* – lashkarboshi Inal xoqon Tardush shadi borsin, dedi" (To'n, 31). *šad*lar turli darajada mustaqillikka ham ega bo'lishgan. "Xitoy yilnomalarida ashina turklarining kelib chiqishi bilan aloqador bir afsonaga ko'ra, Tukyue (turk)larning ajdodlaridan birining nomi *Natuli shad* edi. Natulidan keyin taxtga uning kichik xotinining o'g'li keladi va u ham o'ziga *Asyan shad* unvonini oladi"¹⁵³.

Shuningdek, bitiglarda *šadapit* istilohi bilan anglashilgan unvon ham qayd etiladiki, u asosan "qanotdagi harbiy amaldor"¹⁵⁴ ma'nosida tilga olinadi: "*ulayu šadapit bäglär ... ataman tarqan, Tonyuquq, boyla baya tarqan*" (BX, 14). Ushbu unvonli amaldorlar har doim oliy hukmdorning yonidan o'rin olgan: "*Sabimän tükäti äšidgil: ulayu ini yigünüm, oylanim, biriki oyušum bodunum, biriyä šadapit bäglär* – So'zimni tugal eshitgil! Keyinimdagi ini, jiyanim, o'g'il(lar)im, ittifoq urug'im – xalqim, o'ngdagi shadapit beklar, so'ldagi tarxonlar, buyruq beklari" (KT, 1). Ushbu unvon ilk marta xoqonlik tarixiga tegishli dastlabki manbalardan bo'lmish sug'd tilida bitilgan Bugut bitigtoshida *š'öpyt* shaklida tilga olingan (B, II-

¹⁵³ Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах... – С. 221; Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre... S. 15-16; Taşağıl A. Gök-Türkler. I... – S. 11; Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги... – Б. 103.

¹⁵⁴ Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 2-60; Gömeç S. Kök Türkçe yazılı belgelerde ... – S. 129-142.

2). “V.Radlov ushbu soʻzni *šad-apa-t*, A.Gaben esa *šad-pit* shaklida oʻqiydi (-*pit* ni forscha -*pati* bilan aloqalantiradi)”¹⁵⁵. S.Malov Kul Tegin bitigtoshidagi *šadapit bäglär* birikmasini *shad va apa boshligʻi*, Bilga xoqon bitigtoshidagi shunday birikmani *shadapit begi* shaklida oʻgiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bitigtoshlar matnidagi leksemalar genealogik jihatdan oʻrganish natijasida oʻz va oʻzlashma qatlamga doir istilohlar qoʻllanish darajasi belgilanib, ularning asosiy qismi oʻz qatlamga tegishli ekani koʻzga tashlanadi. Shuningdek, bitigtoshlardagi bevosita harbiy ish bilan bogʻliq barcha terminlarning oʻz qatlamga oidligi, ayni chogʻda oʻzlashma qatlamga tegishli leksemalarning salmoqli ulushini unvon va lavozim nomlari tashkil qilishi qadimgi turklar harbiy ish va mudofaa borasida oʻz anʼanaviy tizimiga ega boʻlganligi, unvonlar borasida yondosh yirik sulolalar tizimidan muayyan darajada ozuqalanganini koʻrsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi turkiy tilda qoʻllangan harbiy istilohlarning bir qanchasi keyingi davr turkiy va gʻayri turkiy sulolalarda bitigtoshlardagi maʼnoda qoʻllanilgan boʻlsa, baʼzilari muayyan turkiy tillarda oddiy murojaat birliklari, shaxs otlari va nomlari sifatida saqlangan. Ushbu soʻzlarning bunday semantik qurilishi maʼno torayishi va maʼno kengayishi hodisasi bilan izohlanadi. Tarixiy taraqqiyot natijasida bitigtoshlar matnidagi leksemalar tizimida yuz bergan maʼnoviy oʻzgarishlarni tadqiq etish shuni koʻrsatdiki, baʼzi istilohlar garchi hozirgi oʻzbek adabiy tilida aks etmasa-da, oʻzbek shevalari va boshqa qardosh turkiy tillar, shuningdek, turkiy boʻlmagan tillarda saqlanib, yuz yillar davomida oʻzga tillarga ham kirib borgan. Xususan, bitigtoshlarda qoʻllangan bir qancha soʻzlar slavyan, fors-tojik va kavkaz tillariga kirib borgan. Bu holat ushbu hududlarda turkiy sulolalarning tashkil topishi va hukmronligi bilan izohlanadi. Bitigtoshlar matni leksikasini genealogik jihatdan oʻrganish natijasida oʻz va oʻzlashma qatlamga doir istilohlar qoʻllanish darajasi belgilanib, ularning asosiy qismi oʻz qatlamga tegishli ekani aniqlandi. Shuningdek, bitigtoshlardagi bevosita harbiy ish bilan bogʻliq barcha terminlarning oʻz qatlamga oidligi, ayni chogʻda oʻzlashma qatlamga tegishli leksemalarning salmoqli ulushini unvon va lavozim nomlari tashkil qilishi qadimgi

¹⁵⁵ Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri... – S. 42.

turklar harbiy ish va mudofaa borasida o'z an'anaviy tizimiga ega bo'lganligi, unvonlar borasida yondosh yirik sulolalar tizimidan muayyan darajada ozuqalanganini ko'rsatdi. Bitigtoshlar matnidagi o'zlashmalar xitoycha, sanskritcha, sug'dcha elementlardan iborat. O'zlashma qatlamning asosiy qismini (3 %) xitoycha so'zlar tashkil qiladi. Bu holat qadimgi turklarning Xitoy sulolalari bilan harbiy-siyosiy va boshqa sohalaridagi aloqalari, bir muddat Tan (618-907) sulolasiga qaram bo'lib, uning boshqaruvi ostida bo'lganligi, shuningdek, o'zaro mafkuraviy ta'sir bilan izohlanadi. O'zlashmalarning muayyan (2 %) qismi sanskritcha bo'lib, ularning o'zlashtirilishi turklarning qadimgi hind va tibet xalqlari bilan o'zaro harbiy va iqtisodiy aloqalari mahsuli sifatida izohlanadi. Sug'dcha o'zlashma (1 %) esa o'sha davrdagi sug'd tilining mavqeyi bilan baholanadi. Bitigtoshlar matnini tadqiq qilish yodnomalar tili anchayin sayqallashgan, uslubiy qolipga tushganligini ko'rsatdi. Turli davrga tegishli va turfa hududlardan topilishiga qaramay, bitigtoshlar matni uslub jihatdan bir-biriga yaqin. So'zlardagi ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanish, bitigchining badiiy mahorati xoqonlik rasmiy tilining takomilini ko'rsatdi.

III BOB. AMALIY-USLUBIY QISM

3.1. Mavzu bo'yicha o'qitish metodlari: an'anaviy va innovatsion yondashuvlar: mustaqil ta'lim topshiriqlari, savollar va testlar

O'qitish metodlari: an'anaviy va innovatsion yondashuvlar: Turkiy tilning dunyo tillari tizimida o'zni mavzusini o'qitishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. An'anaviy yondashuvlar: Ma'ruza metodi: tarixiy, genealogik va tipologik ma'lumotlarni tizimli taqdim etish. Jadval va sxema: genealogik oilalar, tipologik tiplash va areal xaritalar orqali mavzuni vizualizatsiya qilish. Qiyosiy tahlil: turkiy tillarni boshqa til oilalari bilan solishtirish, morfologik va leksik xususiyatlarni ko'rsatish. O'quv qo'llanmalar va darsliklar: an'anaviy matnlar orqali mustahkamlash.

2. Innovatsion yondashuvlar: Interaktiv xaritalar va GIS tizimlari: turkiy tillarning geografik tarqalishini vizual ko'rsatish. Multimedia va audiovizual materiallar: qadimgi yozuvlar, bitiklar va og'zaki tarixiy manbalarni video yoki audio shaklda taqdim etish. Onlayn test va viktorinalar: til oilalari, tipologik xususiyatlar va areal o'zni bo'yicha tezkor baholash.

Simulyatsion va loyiha metodlari: talabalar turkiy tillar tarixi, genealogiyasi va areal xususiyatlari bo'yicha mini-layihalar yaratish. Gamifikatsiya: o'quv jarayonida turli interaktiv o'yinlar yordamida til o'rganish va dunyo tillari bilan solishtirish.

3. Tavsiyalar: Darslar ma'ruza + vizual + interaktiv kombinatsiyasida olib borilsa, o'quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunadi. Qadimgi manbalar va o'z qatlam so'zlari praktik misollar bilan tahlil qilinsa, tarixiy va lingvistik izchillik mustahkamlanadi. Talabalarni mustaqil tadqiqot va mini-loyihalarga jalb qilish orqali mavzu bo'yicha tanqidiy fikrlash va ilmiy tadqiqot ko'nikmalari shakllantiriladi.

1. Mustaqil ta'lim topshiriqlari

Ma'lumot to'plash va tahlil qilish: Turkiy tillarning dunyo tillari tizimidagi genealogik o'rnini o'rganing. Turkiy tillarning yirik guruhlarini (G'arbiy, Qipchoq, Qarluq, Sibir) ajratib ko'rsating.

Areal tahlil: Turkiy tillarning geografik tarqalishini xarita yordamida belgilang. Turkiy tillar qaysi hududlarda boshqa tillar bilan uzun muddatli kontaktda bo'lganini aniqlang.

Tipologik taqqoslash: Turkiy tillarni boshqa yirik til oilalari (hind-yevropa, sino-tibet) bilan tipologik jihatdan solishtiring. Morfologik va sintaktik xususiyatlarni taqqoslovchi jadval tuzing.

Leksik tadqiqot: Qadimgi turkiy tilning o'z qatlam so'zlarini (asl so'zlar) ajrating va hozirgi turkiy tillardagi shakllari bilan solishtiring.

Ijodiy topshiriq: Turkiy tillar tarixi va dunyo tillari tizimidagi o'rnini haqida 1 sahifalik referat yozing. Turkiy tillarning dunyo madaniyatidagi ahamiyatini misollar bilan ko'rsating.

2. Mustaqil savollar

1. Turkiy tillar dunyo tillari genealogik tizimida qaysi oila tarkibiga kiradi?

2. Turkiy tillarning asosiy tipologik xususiyatlari nimalardan iborat?

3. "O'z qatlam so'zlari" tushunchasi nimani anglatadi? Misol keltiring.

4. Turkiy tillar geografik jihatdan qaysi hududlarda tarqalgan?

5. Areal lingvistika nuqtai nazaridan turkiy tillarning qaysi tillar bilan kontaktda bo'lgani kuzatiladi?

6. Qadimgi turkiy tilning asosiy yozma manbalari qaysilar?

7. Turkiy tillar boshqa genealogik oilalarga mansub tillardan tipologik jihatdan qanday farq qiladi?

3. Test savollar

Savol 1: Turkiy tillar dunyo tillari genealogik tizimida:

A) Hind-yevropa oilasiga kiradi

B) Turkiy oilaga kiradi

C) Sino-tibet oilasiga kiradi

D) Afro-osiyo oilasiga kiradi

Javob: B) Turkiy oilaga kiradi

Savol 2: Qadimgi turkiy tilning asosiy yozma manbalari:

A) Qur'on va Injil

B) Orxon-Yenisey bitiklari va Talas bitiklari

C) Xitoy klassik matnlari

D) Sanskrit va Avesta

Javob: B) Orxon-Yenisey bitiklari va Talas bitiklari

Savol 3: O'z qatlam so'zlariga misol keltiring:

- A) Kitap
- B) Maktab
- C) Su
- D) Madrasah

Javob: C) Su

Savol 4: Turkiy tillar tipologik jihatdan:

- A) Flektiv
- B) Agglutinativ
- C) Analitik
- D) Polisintetik

Javob: B) Agglutinativ

Savol 5: Turkiy tillar geografik jihatdan qaysi hududlarda tarqalgan?

- A) Shimoliy va Janubiy Amerika
- B) Yevrosiyo: Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Sibir, Xitoy g'arbiy hududlari
- C) Avstraliya
- D) Janubiy Afrika

Javob: B) Yevrosiyo: Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Sibir, Xitoy g'arbiy hududlari

Savol 6: Turkiy tillarning dunyo madaniy xaritasidagi ahamiyati qaysi jihat bilan belgilanadi?

- A) Faol og'zaki nutqning yo'qligi
- B) Yevrosiyo sivilizatsiyalari o'rtasidagi lingvistik ko'prik vazifasi
- C) Qisqa tarixiy rivojlanish
- D) Qat'iy izolyatsiya

Javob: B) Yevrosiyo sivilizatsiyalari o'rtasidagi lingvistik ko'prik vazifasi

7. Qadimgi turkiy tilning o'z qatlam so'zlaridan biri qaysi?

- A) Kitap
- B) Su
- C) Maktab
- D) Madrasah

Javob: B) Su

8. Turkiy tillarning tipologik xususiyatlarini ko'rsatadigan xususiyat:

- A) Bir affiks bir nechta grammatik ma'no bildiradi
- B) Qo'shimchalar har biri bitta grammatik ma'no bildiradi
- C) Grammatik ma'no faqat yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi
- D) Gap tuzilishi faqat SVO bo'ladi

Javob: B) Qo'shimchalar har biri bitta grammatik ma'no bildiradi

9. Areal lingvistika nuqtai nazaridan turkiy tillar qaysi tillar bilan kontaktda bo'lgan?

- A) Arab, fors, mo'g'ul
- B) Yapon, koreys
- C) Fransuz, nemis
- D) Afrika tillari

Javob: A) Arab, fors, mo'g'ul

10. Qadimgi turkiy tilning o'rta turkiy tilga o'tish davri:

- A) VII–IX asrlar
- B) IX–XI asrlar
- C) XI–XV asrlar
- D) XV–XVII asrlar

Javob: C) XI–XV asrlar

11. Turkiy tillarning dunyo tillari tizimidagi ahamiyati:

- A) Qisqa tarixiy rivojlanish
- B) Yevrosiyo sivilizatsiyalari o'rtasidagi lingvistik ko'priklari
- C) Izolyatsiya
- D) Faqat og'zaki nutq

Javob: B) Yevrosiyo sivilizatsiyalari o'rtasidagi lingvistik ko'priklari

12. Qaysi turkiy til guruhi O'rta Osiyoda tarqalgan?

- A) O'g'uz
- B) Qipchoq
- C) Sibir
- D) Qarluq

Javob: B) Qipchoq

13. Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi nimani anglatadi?

- A) Harflar tartibi
- B) Unlilar bir-biriga moslashishi
- C) Fe'l kategoriyasi
- D) Gap oxirida kelishik

Javob: B) Unlilar bir-biriga moslashishi

14. "Tengri" so'zi qaysi turkiy leksik qatlamga kiradi?

- A) O'z qatlam
- B) Arabcha o'zlashtirma
- C) Forscha o'zlashtirma
- D) Inglizcha o'zlashtirma

Javob: A) O'z qatlam

15. Qadimgi turkiy tilning yozuv tizimi qanday edi?

- A) Lotin alifbosi
- B) Kirill alifbosi
- C) Runik (Orxon-Yenisey)
- D) Arab alifbosi

Javob: C) Runik (Orxon-Yenisey)

16. Turkiy tillarning agglutinatив xususiyatini ko'rsatadigan misol:

- A) Kitap-lar-imiz-da
- B) House-s
- C) I am going
- D) La maison

Javob: A) Kitap-lar-imiz-da

17. Turkiy tillar dunyo tillari xaritasida qaysi kontinent markazida joylashgan?

- A) Afrika
- B) Evrasiyo
- C) Amerika
- D) Avstraliya

Javob: B) Evrasiyo

18. Qadimgi turkiy tilning keyingi yozma manbalari qaysi hududlardan topilgan?

- A) Turfan va Qochoq
- B) Shimoliy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Yevropa janubi

Javob: A) Turfan va Qochoq

19. Qadimgi turkiy tilning o'z qatlam so'zlari qaysi sohalar bilan bog'liq?

- A) Faqat diniy atamalar
- B) Tabiat, hayvonot, inson va jamiyat
- C) Faqat ilmiy terminlar
- D) Faqat siyosiy atamalar

Javob: B) Tabiat, hayvonot, inson va jamiyat

20. Turkiy tillarda ko'plik, egalik va kelishik shakllarini hosil qiluvchi morfologik vosita:

A) Affikslar

B) Alifbo

C) Intonatsiya

D) Gap tartibi

Javob: A) Affikslar

3.2. Baholash mezonlari va nazorat shakllari

1. Nazorat shakllari

Og'zaki nazorat: Dars davomida savol-javob orqali bilimni aniqlash. Misol: Turkiy tillar genealogik oilasi, o'z qatlam so'zlari, tipologik xususiyatlari bo'yicha tezkor javoblar.

Yozma nazorat: Testlar, mustaqil ish va referatlar orqali talabaning mavzuni qamrab olganini baholash. Misol: 20–50 ta test savol, mustaqil ta'lim topshiriqlari.

Amaliy ishlar: Xaritalar, diagrammalar va tipologik jadval tuzish orqali o'quvchilarning tahliliy ko'nikmalarini baholash. Misol: Turkiy tillarning geografik tarqalishi va boshqa tillar bilan areal kontakti bo'yicha mini-loyiha.

Ijodiy vazifalar: Referat, taqdimot yoki esselar yozish orqali talabaning mavzuni chuqur tushunganini baholash. Misol: "Turkiy tillarning dunyo madaniyatidagi ahamiyati" mavzusida 1 sahifalik esse.

2. Baholash mezonlari

Mezon Tavsif Baholash ko'rsatkichi		
Nazariy bilim	Turkiy tillarning genealogik, tipologik va areal o'rni bo'yicha bilim	0–10 ball
Terminologik savodxonlik	O'z qatlam so'zlari, qadimgi turkiy til manbalari, tipologik tushunchalar va ularning to'g'ri ishlatilishi	0–5 ball
Tahliliy ko'nikmalar	Xaritalar, diagrammalar, solishtiruvlar orqali mavzuni tahlil qila olish	0–10 ball
Amaliy ish	Mustaqil topshiriqlarni bajarish: jadval, xarita, mini-loyiha	0–10 ball

Ijodiy ishlash	Referat, esse yoki taqdimot sifatida mavzuni yoritish	0–5 ball
Javob tezligi va aniqligi (og‘zaki nazorat)	Savollarga tez va to‘g‘ri javob bera olish	0–5 ball
Umumiy ball: 45		

40–45: A (a‘lo)

35–39: B (yaxshi)

30–34: C (qoniqarli)

25–29: D (qoniqarsiz)

0–24: F (baholanmaydi)

3. Baholashning tavsiya etilgan shakllari

Kombinatsiyalashgan nazorat: Og‘zaki + yozma + amaliy ish kombinatsiyasi. Misol: Dars oxirida 5 daqiqalik tezkor savollar + test + mini-loyihani baholash.

Formativ baholash: Talaba dars davomida faol qatnashganini, savollarga javob berishini, mini-loyihalarni bajarishini hisobga olish. Har bir faoliyat 1–5 ball bilan baholanadi.

Summativ baholash: Dars yoki o‘quv modulining yakunida test va referat asosida umumiy ball beriladi. Peer-assessment (o‘quvchilar o‘zaro baholash): Talabalar mini-loyihalarni bir-biriga taqdim etadi va baholaydi. Bu o‘quvchilarda kritik fikrlash va o‘zaro o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Akar A. Bilge Tonyukuk Yazıtı. Ötüken, – Ankara, 2020. – 160 s.
- Altaylı S. Azerbaycan Türkçesi Sözlüğü. C. I, – İstanbul: Millî Eğitim Bakanlığı Yay, 1994. – 192 s.
- Altheim F. Geschichte dār Hunnen I. – Berlin, 1960. – S. 49.
- Arat Reşit Rahmeti. Eski Türk Şiiri, Türk Tarih Kurumu Yayınları. – Ankara. 1986. – S. 389.
- Arat Reşit Rahmeti. Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I: Metin, 5. Baskı, – Ankara. Türk Dil Kurumu, 2007. – S. 2334.
- Aydin Erhan. Orhon Yazıtları, – Konya: Kömen Yay, 2012. – 208 s.
- Babayar G. Köktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu – The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate. – Ankara: TİKA, 2007. – 244 p.
- Bahaeddin Ögel. Doğu Göktürkleri Hakkında Notlar. Belleten, XXI, – Ankara, 1957. – S.130.
- Bahaeddin Ögel. Şine-ısu Yazıtının Tarihi Önemi. Belleten, – Ankara, 1951. – S. 439.
- Bahaeddin Ögel. Türk Kültürünün Gelişme Çağları, 3. Baskı, – İstanbul, 1988. – 578 s.
- Battal Aptullah, İbni-Mühenna Lûgati (İstanbul nüshasının Türkçe bölümünün endeksidir). – Ankara. TDK Yayınları, – 1938. – 103 s.
- Bazin L. Pre-Islamic Turkic Borrowings in Upper Asia, Diogenes 43/3, 1995. – P. 35-44.
- Berta A. Türkçe Kökenli Macar Kavim Adları (Yelme ve Bıça. Haz. Demir, N.Yılmaz, E.). Grafiker Yayınları. – Ankara, 2002. – 139 s.
- Berta A. Die Verteilung der militärischen Termini in den Runeninschriften. Acta Orientalia. 47/1-2: 1994. – S. 49-56.
- Bombaci A. On the ancient title *Eltâbâr*, Proceedings of the IX th. Meeting of the PİAC. – Naples. 1970. – S. 1-66.
- Bombaci A. On the Ancient Turkish title *šaδ* // Gururajamenjarika Studi Onare di G. Tucci. – Napoli, 1974. – P. 168-193.
- Bombaci A. Qui Etait *Ĵebu Hak'an* ? // Turcica. – Paris, 1970. – P. 7-24.
- Bombaci A. The Husband of Princess Hsien Li Bilgä // Studia Turcica. – Budapest, 1971. – P. 103-123.

Boodberg P. A. The Language of the To-pa Wei, // Harvard Journal Asiatic Studies I, 1936. – P. 171.

Caferoğlu A. Eski Türkçe Uygur Sözlüğü, – İstanbul, 1968. – 240 s.

Caferoğlu A. Tukyü ve Uygurlarda Han Unvanları. Türk Hukuk ve İktisat Tarihi Mecmuası, I, – İstanbul. 1931. – 106 s.

Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkləri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Sälenge, 2007. – 132 s.

Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – 378 p.

Choi H.-W. A Study of the Ancient Turkic 'TARKAN', International Journal of Central Asian Studies 5, 1992. – 2000 p.

Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972. – 989 p.

Clauson G., Tryjarski E. The Inscription at Ikhe Khushotu, Rocznik Orientalistyczny, 34/1, – Vvkrszava, 1971. – 102 p.

Cüveynî, Tarih-i Cihan Güşâ, I, çev. Mürsel Öztürk. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yay. 1999. – 41 s.

Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2020. – 106 b.

Dadaboyev H., Yodgorov H. O'zbek harbiy terminologiyasi. O'quv qo'llanma – T.: Sahhof, 2021. – 210 b.

De Groot, Die Hunnen der Vorchristlichen Zeit, – Berlin-Leipzig, 1921. – S. 116-117.

Demirbilek S. Sun Zi'nin savaş sanatı ile Orhon Yazıtları arasındaki ilişki üzerine. // Journal of Old Turkic Studies, 2 (1), 2018. – S. 24-37.

Divanü Lūgat-it Türk Tārcümesi. Cilt I-IV. Çev. B. Atalay, TDK yayınları: – Ankara, 1985.

Dobrovits Mihaly. Gokturk ve Uygurlar'da Buyruk Terimi ve İdari Fonksiyonları. – Belleten, 2011. – S. 7-15.

Doerfer G. Türkische und mongolische Elementen in Neupersischen. Aus IV Bd. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag GMBH. – Bd. II. – 1965. – 671 s., Bd. III. – 1967. – 670 s., Bd. IV. 1975. – 640 s.

Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – İstanbul, 1988. – 133 s.

Dunlop D.M. The History of the Jewish Khazars, ABD: Princeton University Press, 1954. – 111 s.

Eberhard W. Bir Kaç Eski Türk Unvanı Hakkında, TTK-Belleten. – Ankara, 1945. – S. 319-337.

Ecsedy H. Çin Menşeli Eski Türk Unvanları, Türkçeye çev.: E.B.Özbilen, Türk Dünyası Araştırmaları. 1996. – S. 188

Ecsedy H. Old turkic titles of Chinese origin T.XVIII. // Acta Orientalia Hungarica. – Budapest, 1965. – P. 83-91.

Ercilasun A. B. Askerlikte Onlu Sisteme Türklerin Katkıları. Second International Congress on Turkic civilization. Bishkek, 2004. – Bishkek, 2005. – S. 151-158.

Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü, Türk Dil Kurumu Yayınları. – Ankara, 1999. – 543 s.

Ergin A. Karahanlı Hanedan Üyelerinin Gazneliler ve Selçuklularla Sıhriyeti, Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi, IV/5. 2015. – S. 392-408.

Ergin M. Orhun Abideleri. İstanbul: MEB. 1999. – 175 s.

Erhan A. Orhon yazıtları, Bilge kültür sanat: – İstanbul. 2019. – 99 s.

Erhan A. Orhon Yazıtları. Kömen Yay. – Konya. 2012. – 190 s.

Erkoç H.İ. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı. Basılmamış Yüksek Lisans Tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2008. – 286 s.

Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri. Türkçe çev. M. Akalın. – Ankara: TTK, 1988. – 313 s.

Gedikli Y. Hun türkçesi üzerine araştırma ve incelemeler – 3.Yabgu unvanının manası ve menşeyi // Türk dünyası araştırmaları. – Ankara: Nisan, 2007. – 167 s.

Genç R. Karahanlı Devlet Teşkilatı. – Ankara: TTK, 2002. – 265 s.

Giraud, R. Göktürk İmparatorluğu (çev. İ. Mangaltepe). – Ankara: Ötüken Yay, 1999. – 127 s.

Golden P. B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1992. – 483 p.

Golden P. B. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenga, 2006. – 384 s.

Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara: Karam, 2002. – 389 s.

Golden P.B. Khazar studies. An Historico-Philological Inquiry into the Origins of the Khazars. Vol.1 – Budapest: Akademiai kiado, 1980. – 287 p.

Gömeç S. Boyla ve Baga Unvanı, ODÜ Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi, I/1 2010. – S. 73-80.

Gömeç S. Kök türkçe yazılı belgelerde yâr alan unvanlar // Türk kültürü. № 443. – Ankara, 2000. – S. 129-142.

Gömeç S. Terhin Yazıtı'nın Tarihi Açısından Değerlendirilmesi, DTCF Tarih Araştırmaları Dergisi, C. XVI (27): 1996. – S. 71-84.

Gömeç S. Terken Unvanı Hakkında, Türkoloji Dergisi. 17/2, 2010. – S. 107-114.

Gül E. Babürname'de Geçen Askeri Terimler Üzerine, – Belleten, 2014-62-1, 2014. – S. 27-103.

Gyorffy, G. Die Rolle Des Buyruq in Der Altürkischen Gesellschaft," Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae, cilt 11, no 1/3. 1960. – 169 s.

Hamilton J., Tokuz-Oğuz ve On-Uygur, Türk Dilleri Araştırmaları, 7. 1997. – S. 187-232.

Hao C. On the authorship of the old Turkic inscriptions // Journal of the Royal Asiatic Society, 30 (4), 2020. – S.707-719.

Haussig H.V. Theophylakts Exkurs über die skythischen Völker, – Byzantion, VIII. 1954. – 426 s.

Kafesoğlu İ. Eski Türklerde Devlet Meclisi (Toy), Millî Türkoloji Kongresi. – İstanbul, 1980. – 208 s.

Kafesoğlu İ. Türk Millî Kültürü. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2014. – 268 s.

Karl H. Menges, The Turkic Languages and Peoples, – Wiesbaden, 1968. – 169 s.

Kaşıkçı O. Eski Türklerde Devlet Başkanlığı – Hakanlık, Cilt 2. Türkler. – Ankara, 2002. – 888 s.

Klaus R. Uigurisches Wörterbuch, Sprachmaterial der vorislamischen türkischen Texte aus Zentralasien, IV, – Wiesbaden, 1998. – 300 s.

Köprülü M.F. Eski Türk Unvanlarına Ait Notlar, Türk Hukuk ve İktisat Tarihi Mecmuası, c. II. – İstanbul, 1939. – 363 s.

Lászlo F. Kagan ve Ailesi, Türk Hukuk Tarihi Dergisi, I, – Ankara, 1944. – 50 s.

Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre Doğu Türkləri. Çeviri E. Kayaoğlu, D. Banoğlu. – İstanbul, 2006. – 640 s.

Luo X. Studies on the Titulary of Medieval Inner Asian Peoples. – Peking University Press, 2009. – 48 s.

Mackerras C. Uygurlar, Türkçeye çev.: Ş. Tekin, Erken İç Asya Tarihi, – İstanbul, İletişim. 2003. – 433 s.

Mehmet Altay Köymen. Alp Arslan Zmanı Selçuklu Saray Teşkilatı ve Hayatı, A.Ü. DTCF Dergisi, IV /6-7. 1966. – 100 s.

Mehmet Ölmez. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Ögeler // Türk Dilleri Araştırmaları, 1999. – S. 59-65.

Mehmet Vefa Nalbant. çerig/çeri sözcüğünün kökeni ve kök ailesi. Pamukkale Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü. 2008. – S. 109-116.

Moravcsik G. Byzantinoturcica II, Sprachreste der Türkvölker in den Byzantinischen Quellen, Akademie Verlag, – Berlin, 1958. – 290 s.

Mori M. The T'u-chüeh Concept of Sovereign // Acta Asiatica. Bulletin of the Institute of Eastern Culture, 41. – Tokyo, 1981. – P. 50-58.

Necipovič Emir. Yeni Uygur Türkçesi Sözlüğü, çev. İklil Kurban, Ankara: Türk Dil Kurumu Yay, 2008. – 71 s.

Nemeth G. A Ilonlbglalö Magyarsag Kialakulsisa, – Budapest 1930. – 262 s.

Odabaşı Z. Türk Devletlerinde Kullanılan İdari Ünvanlar. // Journal of Ottoman Civilization Studies Vol. 5, No. 9 2019. – S. 165-192.

Ögel B. Über die alttürkische Schad (Sü-Baschi)-Wurde // Central Asiatic Journal. – Vol. VIII, No. 1. – Wiesbaden, 1963. – S. 27-42.

Olbricht. Uchida's Prolegomena zu einer Geschichte der Jou-jan, // Ural-Altische Jahrbücher, XXVI, – Wiesbaden 1954. – S. 96-97.

Ölmez M. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Ögeler (2), // Türk Dilleri Araştırmaları, 1997. – S. 175-186.

Ömer Soner Hunkan, "Tegin", DİA, XL, – İstanbul. 2011. – 312 s.

Orçun Ünal. İhe Ashete Yazıtı: Yeni Bir Okuma ve Anlamlandırma Denemesi, // Bilig. 2015 – S. 271-294.

Orhun H. N. Eski Türk Yazıtları. – Ankara: TTK, 1986. – 960 s.

Osawa T. Batı Göktürk Kağanlığındaki Aşinaslı Bir Kağan'ın Şeceresine ait Bir Kaynak // Türkler, 2. cilt. – Ankara: Yeni Türkiye yayınları, 2002. – S. 79-88.

Osman Gazi Özgüdenli. Hüseyin Salman, "Yabgu", // DİA, XL, – İstanbul, 2013. – S. 170-179.

Özkırımlı A. Kâşgarlı'ya Göre Türklerde Askerlik, Türk Dili (Divânü Lugâti't-Türk Özel Sayısı), // C. XXVII, – Ankara, 1972. – S. 87-95.

Pelliot P. Louis Hambis, Histoire des campagnes de Genghis Khan: Chengwou ts'in-tcheng lou, Leiden: E.J. Brill, 1951. – 231 s.

Pelliot P. Neuf notes sur des questions d'Asie centrale, T'oung Pao, Second Series, Vol.26, No.4-5, 1929. – P. 237.

Pritsak O. Karahanlılar – Cilt VI. // İA. – İstanbul, 1952.– 262 s.

Pritsak O. Old Turkic Regnal Names in the Chinese Sources, // Journal of Turkish Studies, Niguča Biçig: Pi Wên Shu: An Anniversary Volume in Honor of Francis Woodman Cleaves, S. 9, 1985. – S. 205-211.

Pritsak O. Stammesnamen und Titulaturen der Altaischen Völker // Ural-Altäische Jahrbuch. – Wiesbaden, Band XXIV, Heft 1-2. 1952. – S. 49-104.

Pritsak O. The Proto-Bulgarian Military inventory inscriptions, Studia Turco-Hungarica, V, – Budapest. 1981. – 58 p.

Ramstedt G.J. Alttürkische und mongolische Titel // Journal de la société finno-ougrienne. – № 55. – Helsinki, 1951.– S. 59-82

Rasanen M. Versuci eines etymologiscien Wörterbucis der Turksprachen. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, – Helsinki, 1969. – 434 s.

Rybatzki V. Titles of Turk and Uigur Rulers in Old Turkic Inscriptions // Central Asiatic Journal. – Vol. 44. – Wiesbaden, 2000. – P. 205-292.

Resonyi L. Tarihte Türklük, – Ankara, 1971. – 73 s.

Resonyi L. Tarihte Türklük, 2. Baskı, – Ankara, 1988. – 60 s.

Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. // International Journal of Humanities and Education, 2008. – S. 260-296.

Savran Hülya. Kırım Tatar Türkçesi Dil Özellikleri Metinler Sözlük, Asi Kitap. – İstanbul, 2009. – 223 s.

